



**Z.S.ABDULLAYEV**

**SOLIQ MEXANIZMLARI ORQALI  
TURIZM SOHASIDAGI TADBIRKORLIK  
SUB'EKTLARINI RIVOJLANTIRISH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Zafarbek Safibullayevich Abdullayev**

**SOLIQ MEXANIZMLARI ORQALI  
TURIZM SOHASIDAGI TADBIRKORLIK  
SUB‘EKTLARINI RIVOJLANTIRISH**

*Monografiya*

**NAMANGAN – 2024**

**UO‘K: 338.48**

**KBK: 65.433**

**A – 13**

**Abdullayev, Zafarbek Safibullayevich**

Soliq mexanizmlari orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlantirish / Monografiya / Z.S.Abdullayev, Namangan: "SUNRISE-PRO" nashriyoti, 2024. – 164 b.

**KBK: 65.433**

Ushbu monografiya iqtisodiyot yo‘nalishlari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida soliq mexanizmlari orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlantirish kompetentligini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, iqtisodiyot, turizm, mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishlari talabalarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish konsepsiyasi va soliq madaniyatlari asosini tashkil etadigan kompetensiyani shakillantirish, ta‘lim jarayonida tizimli yondashuvni amalga oshirish, soliq mexanizmlari orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlantirish bo‘yicha kompetentlikni takomillashtirish muhiti yoritib berilgan.

Monografiyadan iqtisodiyot, turizm, mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish bakalavriat yo‘nalishlari talabalarini malakaviy ishlarini tayyorlashlarida, magistrlik dissertatsiyalarini bajarishda hamda oliy ta‘limdan keyingi kasbiy faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir:**

**D.N.Boymirzayev** – NamDU Menejment kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**Taqrizchilar:**

**K.I.Sirojiddinov** – NamDU Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasini dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

**O.A.Aripov** – Namangan muxandislik-qurilish instituti Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Monografiya Namangan davlat universiteti muvofiqlashtiruvchi kengashi-ning 26 noyabr 2024 yil kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida bayonnoma №8 bilan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN: 978-9910-691-99-7**

© Z.S.Abdullayev, 2024.

© "SUNRISE-PRO", 2024.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>I BOB. TURIZM SOHASINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA TURISTIK FAOLIYATNI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> .....	8
1.1-§. Turizm sohasining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va rivojlanish tendentsiyalari .....	8
1.2-§. Turizm faoliyatini rivojlantirishda soliqqa tortishning zamonaviy tizimi qo‘llashning kontseptual asoslari .....	18
1.3-§. Zamonaviy turizmni turli soliq vositalari orqali rag‘batlantirishning ilg‘or xorij tajribasi .....	37
<b>II BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH HOLATI VA SOLIQ ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI</b> .....	52
2.1-§. Turistik joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi turizm faoliyati subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlari .	52
2.2-§. Boshqa faoliyat turidagi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish mexanizmi tahlili .....	65
2.3-§. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi soliq preferentsiyalarning turizm sohasi subyektlari faoliyatiga va tarmoqning rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirining tahlili .....	77
<b>III BOB. O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURIZM FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI</b> .....	100

3.1-§. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy ta’sir qiluvchi samarali soliq imtiyozlarini beruvchi zamonaviy mexanizmlar . . . . .	100
3.2-§. Turizm industriyasida zamonaviy soliq tizimini takomillashtirish yo‘llari . . . . .	116
3.3-§. O‘zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish orqali turizm sohasini rivojlantirishni uzoq istiqbol davrga mo‘ljallangan prognoz rejalar . . . . .	127
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati . . . . .</b>	<b>140</b>

## KIRISH

Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) va Oxford Economicsning ma'lumotlariga ko'ra, jahon bozorlaridagi kon'yunkturaviy tebranishlarga qaramasdan 2023-yil mart oyida jahondagi 185 mamlakatdan 34 tasida turizm sanoatining milliy yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi 2019-yildagi darajasiga etgan. Turizm hissasiga jahon iqtisodiyotining qariyb 8 foizi, jahon investitsiya hajmining 7 foizi, har 16 ta ish o'rnining bittasi, jahon iste'mol sarflarining 11 foizi va barcha soliq tushumlarining 5 foizi to'g'ri keladi, biroq turizmning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 2019-yilga nisbatan 23 foizga pastligicha qolmoqda<sup>1</sup>. Ayni paytda turizm raqobatbardoshligini ta'minlash muhim hisoblanib, ushbu holatni tahlil qilish orqali mamlakatlarda turizm salohiyati istiqbolini prognoz qilish, turizm bozoridagi ustunliklarini aniqlash va turizmni rag'batlantirishga qaratilgan fiskal strategiyalarni aniqlab olish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahonda turistik faoliyat subyektlarining rivojlanishini ta'minlashda soliqqa tortish tizimidagi mavjud instrument va mexanizmlardan samarali foydalanish, soliqqa tortish tizimini optimallashtirish, turizm sohasini soliqlar orqali rag'batlantirish, nomavsumiy turizmni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin, turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning soliq yukini baholash hamda turizm sohasidagi soliq imtiyozlarining maqsadli berilishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilganiga qaramasdan, turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

---

<sup>1</sup> <https://wttc.org/research/economic-impact>

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyoz va preferensiyalar tizimini joriy etish, xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish orqali sohani barqaror rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga etkazish, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga etkazish»<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish, eng avvalo, yuqori sifatli turizm xizmatlarini taklif etish, turistik biznes subyektlari faolligini kuchaytirish, tashqi va ichki turizm yo‘nalishlarini har tomonlama kengaytirishda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirishni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur monografiya o‘z qamrovi va imkon darajasi doirasida soliq mexanizmlari orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlantirish borasidagi masalalar yechimini topishga qaratilgan.

Monografiya yaratishda asosiy e‘tibor soliq mexanizmlari orqali turizm sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarini rivojlantirish ishlarining xususiyatlari tahlili asosida metodologik asoslarini ishlab chiqish, mazkur yo‘nalishidagi ishlarni samarali isloh qilish omillarini aniqlash, soliqqa tortish mexanizmlarida ko‘zda tutilgan ishlar mazmunini takomillashtirish vazifalarini hal qilishga qaratildi.

Monografiya bo‘lajak iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining nazariy metodik bilimlarini oshirishda, ularni soliq mexanizmlari orqali

---

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

turizm sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishning yangi metod va shakllarini o'zlashtirishlarida muhim manba bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiyot bakalavriat yo'nalishlari talabalari malakaviy ishlarini tayyorlashlarida, magistrlik dissertatsiyalarini bajarishda hamda oliy ta'limdan keyingi kasbiy faoliyatlarida, aspirant va ilmiy izlanuvchilar monografiya materiallaridan o'z ish hamda ilmiy faoliyatlarida samarali foydalanishlari mumkin.

***Muallif***



# **I BOB. TURIZM SOHASINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA TURISTIK FAOLIYATNI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY KONTSEPTUAL ASOSLARI**

## **1.1-§. Turizm sohasining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va rivojlanish tendentsiyalari**

Zamonaviy dunyoda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan iqtisodiy tarmoqlardan biri bo‘lib, uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga bo‘lgan yuqori multiplikativ samarasi tufayli jahon iqtisodiyoti va mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida sohaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Turizm qadim zamonlardan ma‘lum bo‘lishiga qaramasdan, o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab namoyon bo‘lgan nisbatan yosh iqtisodiy yo‘nalish hisoblanadi. O‘rta asrlardagi turizmning maqsadi savdo-sotiq ishlari yoki ziyorat qilishga qaratilgan bo‘lib, boshqa mamlakatlarga sayohat imkoniyati faqat elita uchun mavjud edi. O‘sha davrdagi turizmning maqsadlari: ta‘lim olish, xaj ziyoratini amalga oshirish, davolanish kabi sohalarni qamrab oldi. O‘tgan asrning o‘rtalariga kelganda keng ommaga sayyohlikning mavjudligi, shuningdek, sayyohlik sanoatining shakllanishi natijasida ommaviy turizmning paydo bo‘lishi qayd etildi. Transport va telekommunikatsiya sohalaridagi o‘zgarishlar – paroxod va temir yo‘l ixtirosi, pochta aloqasi sifatini yaxshilash, yo‘llarning kengayishi turizmni rivojlanish tarixida muhim rol o‘ynadi. Sayyohlar sonining ko‘payishi ularga xizmat ko‘rsatish va joylashtirish uchun zarur vositalar yaratishga ta‘sir ko‘rsatdi, birinchi o‘rinda mehmonxonalar, shuningdek, Yevropada sayyohlik firmalarining faol o‘sishi natijasida maxsus sayohat agentliklari paydo bo‘ldi.

Turizm ommaviy ijtimoiy voqelik sifatida ikkinchi jahon urushidan keyin shakllandi. Turizm sohasining tadrijiy rivojlanishi bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular tomonidan texnik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar hamda turizmning maqsadli funksiyalari yuzaga kelishini inobatga olgan holda sohaning rivojlanishi asosan 4 ta davrga bo‘lgan holda ajratishadi<sup>3</sup>:

1. Dastlabgi davr sifatida qadimiy davrdan XIX asrning boshlarigacha bo‘lgan vaqtni ko‘rsatishadi. Bu davrda turizm asoslarining yuzaga kelishi bilan izohlanadi;

2. Ikkinchi bosqich ya’ni, XIX asrning boshlaridan XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davr. Ushbu oraliqda turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi ilk ixtisoslashgan korxonalarining paydo bo‘lishi, turizmning hashamatli xizmat sifatida rivojlanishini ko‘rsatishadi;

3. Uchinchi bosqich ya’ni, XX asrning boshlaridan “Ikkinchi jahon urushi”gacha bo‘lgan davr. Aynan shu davr ijtimoiy turizmni rivojlanishida muhim davr hisoblanadi;

4. Oxirgi bosqich hisobida bo‘lgan davr. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan bugungi kungacha bo‘lgan davr. Zamonaviy ommaviy turizmning rivojlanishi, turizm xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tarmoqlararo majmuani qamrab olgan turizm industriyasining shakllanishi.

Turizm rivojlanishning dastlabgi davrlarida iqtisodiy faoliyatning muhim sohasi sifati qaralmagan va uni rivojlantirish uchun alohida e’tibor qaratilmagan. Vaqt o‘tishi bilan soha son va sifat jihatidan rivojlandi, uning iqtisodiy ahamiyati yildan yilga ortib bordi.

---

<sup>3</sup> Шаповал Г.Ф. История туризма: Учеб, пособие. – Ми.: Экоперспектива, 1999; Макаренко С.Н., Саак А.Э. История туризма: Сборник. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2003. – 12 с.; Сапрунова В.Б. Туризм: эволюция, структура, маркетинг. – М.: «Ось-89», 2014. – 160 с.; Lickorish L.J. & Jenkins C.L. (2011) An Introduction to Tourism. New York: Routledge; Jayapalan N. (2001). An Introduction to Tourism. New Delhi: Atlantic Publishers and Distributors.

1980 yillarga kelib, turizmning ahamiyati va uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlari bilan o‘zaro aloqasi to‘g‘risida aniq tushunchalar paydo bo‘la boshladi<sup>4</sup>. Ushbu davrga kelib iqtisodchilar tomonidan turizmni iqtisodiy fenomen hamda jahon va milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etila boshlandi.

Turizm sohasini takomillashishining oxirgi to‘rtinchi bosqichiga kelib jahon iqtisodiyotidagi sohaning ahamiyatini muntazam oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga asoslanib, 1950 yilda xalqaro turistlar soni yigirma besh million kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkich 60 barobarga oshdi va bir milliard besh yuz million kishiga etdi. Turizm xizmatlari eksporti esa 2,1 mlrd. AQSh dollariga etdi (812 barobarga o‘sdi)<sup>5</sup>.

Xalqaro turizm va uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatining tahlili makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini samarali hal etishda turizm tarmog‘ining bir qator ustunlik jihatlari ega ekanligini ko‘rsatadi.

Turizm sohasining rivojlanishi turli xizmatlar va tovarlarga bo‘lgan talabni oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu orqali turizm va unga turdosh hisoblangan boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida taklifni rivojlantirishini rag‘batlantiradi.

2019 yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi turizm sohasiga iqtisodiy zarba berdi va o‘z navbatida sohada o‘z muammolarini namoyon etdi.


---

<sup>4</sup> Международные рекомендации по статистике туризма ЮНВТО (МРСТ2008). Статистические документы. Серия М № 83, Мадрид, Нью-Йорк, 2008.

<sup>5</sup> UNWTO. (2020). UNWTO World Tourism Barometer, 2008 Edition. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284424160>, <https://www.e-unwto.org/toc/wtobarometereng/21/2>

Ta’kidlash kerakki, birgina 2019 yilda turizm maskanlariga xorijiy turistlarning tashrifi milliy iqtisodiyotlar tomonidan qo‘shimcha 1 500 mlrd. doll, hajmida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishini rag‘batlantirgan hamda shuncha hajmdagi xorijiy valyuta kirimini ta’minlagan. 2020 yil xalqaro turizmda xizmatlar eksporti koronavirus pandemiyasi tufayli keskin tushib ketgan. Shunda, mos ravishda xalqaro turizmda turistlar soni deyarli ikkinchi jahon urushidan keyin bosqichga tushib qolgan.

2010 yildan 2019 yilgacha bo‘lgan davr mobaynida dunyo bo‘yicha xalqaro turistlar soni va mos ravishda turizm xizmatlari eksporti barqaror o‘shish ko‘rsatkichlarini qayd etdi. Jumladan, 2010 yilda dunyo bo‘yicha 973 mln.kishi xalqaro turizmda ishtirok etgan hamda o‘zlari tashrif buyurgan turizm maskanida 1099 mlrd.doll, hajmida tovarlar va xizmatlar uchun qo‘shimcha talab hosil qilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar 2019 yilga kelib mos ravishda 1 706 mln.kishi va 1 500 mlrd. AQSh dollarga etdi, ya’ni har kuni dunyo bo‘yicha o‘rtacha 4,1 mln.kishi sayohat qilgan hamda ular tomonidan turizm xizmatlari uchun 4,7 mlrd. AQSh dollari sarf qilingan (1.1.1-rasm).



**1.1.1-rasm. Xalqaro turistlar soni va turizm xizmatlari eksporti ko‘rsatkichlarining dinamikasi<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Butunjahon turizm tashkiloti va Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, turizm sohasining yuqori multiplikativ samaradorlikka ega bo'lganligi inobatga olinsa, turizm industriyasiga yondosh sohalarni rivojlantirish, bu orqali esa milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Turizm sohasini rivojlantirish va undan yuqori natijadorlik olish milliy iqtisodiyotda turizm industriyasini shakllantirishni talab etadi. Turist ehtiyojini to'laqonli qondirish doirasida turizm sohasi sanoatida birlamchi xizmatlar (joylashtirish, transport, ovqatlanish, savdo) hamda sayohat maqsadidan kelib chiqib maxsus (madaniy, ko'ngilochar, dam olish, ijtimoiy) va qo'shimcha xizmatlar tashkil etiladi. Bu esa, doimiy ravishda sohada yangi faoliyat turini yuzaga kelishi hamda yondosh tarmoqlarning rivojlanib borishini taqozo etadi.

Buning natijasida esa turizm sohasining iqtisodiyotga bevosita samarasi bilan bir qatorda bilvosita, ya'ni multiplikativ samarasi vujudga keladi. Turizmning multiplikativ samarasi shundan dalolat beradiki, "sarflangan xarajatlar – olingan daromadlar" zanjirli reaksiyasi natijasida bitta turistdan olingan jami daromad uning xizmat va tovarlarni sotib olishga sarflangan pul miqdoridan ko'proqni tashkil qiladi. Turizm xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromad multiplikatori ko'rsatkichi mamlakat yoki mintaqaga qarab 4 barobargacha farqlanadi. Xususan, qo'shimcha bir dollar hajmidagi xorijiy turistlarga ko'rsatilgan turizm xizmatlari va sotilgan tovarlar mamlakat iqtisodiyotiga 4 dollar hajmida ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda 9 dollar miqdorida bevosita va ikkilamchi daromad keltirishi mumkin. Ushbu qo'shimcha turistik xarajatlar 1,2 mingta qo'shimcha ish o'rinlarini va 0,3 mingta ikkilamchi ish o'rinlarini yaratilishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasining ishlab chiqarish

multiplikatori daromad multiplikatori 0,9 va bandlik multiplikatori 1,5 ga teng<sup>7</sup>.

Turizmning ushbu salohiyati tufayli sohani rivojlantirish iqtisodiyotning transport, aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kabi muhim tarmoqlarini rag‘batlantirishda va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Uncha ko‘p talab etmaydigan investitsiya bilan mazkur sohada tadbirkorlik boshlash imkoniyati mavjud bo‘lgan va bu sohadagi tadbirkorlik faoliyatiga kiritilgan mablag‘ning nisbatan qisqa muddatlarda o‘zini oqlashi, shuningdek, turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarning ortishi va sohadagi tadbirkorlikda yangi ish o‘rnining yaratilishi o‘rtasida qisqa muddatni talab etishi mazkur sohaning ish o‘rni yaratishdagi salohiyatini ko‘rsatadi<sup>8</sup>.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi yangi ish o‘rinlari va korxonalar asosan rivojlanayotgan hamda tabiiy boyliklari oz bo‘lgan mamlakatlarda tashkil etilayotganligi iqtisodiy o‘sish imkoniyatini muvozanatlashtirishga imkon beradi. Xalqaro turizm bozoridagi kuchli raqobat sharoitida turistlar uchun maqbul shart-sharoit yaratish maqsadida turizm infratuzilmasiga zaruriy investitsiyalar kiritilishi mahalliy aholining yashash sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi<sup>9</sup>.

So‘nggi o‘n yil mobaynidagi ko‘rsatkichlar tahlili turizm sohasining ish o‘rni yaratishda muhim omillardan biriga aylanganligidan dalolat beradi.

---

<sup>7</sup> Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. Экономика туризма. Учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 320 с.

<sup>8</sup> Корзун Р. М. Международный туризм // «Экономика АПК: проблемы и решения» – 2011. – 673 с.

<sup>9</sup> Brida J.G., Cortes-Jimenez I. & Pulina M. (2014). Has the tourism-led growth hypothesis been validated? A literature review. Current Issues in Tourism.

2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, turizm sohasida band bo‘lganlar soni 315 million kishidan ortiqni tashkil etib, jahon mehnat bozorida har o‘ninchisi ish o‘rni turizm sohasiga to‘g‘ri keladi. Turizm sohasida ish o‘rinlari soni iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan 1,5 barobar tezroq o‘smoqda. So‘nggi 3 yil mobaynida tashkil etilgan har to‘rtinchi yangi ish o‘rni turizm sohasiga to‘g‘ri keladi (1.1.1-jadval).

### 1.1.1-jadval

#### Jahon turizm bozorining asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendentsiyasi<sup>10</sup>

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Turizm tarmog‘ida band bo‘lganlar soni (mln.kishi)</b>	264	270	274	281	287	296	303	311	318	330	272	310	315
<b>Dunyo bo‘yicha bandlikdagi turizm ulushi (foiz)</b>	9,1	9,2	9,2	9,4	9,4	9,6	9,8	9,9	10,0	10,0	9,0	9,1	9,3

Shuningdek, turizm sohasining aholi bandligi va yangi ish o‘rinlari yaratilishidagi sezilarli ulushi, bunda, ayniqsa, ayollar va yoshlar hamda qishloq hududlarini qamrab olishi mazkur sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi. Turizm sohasining o‘shishi iqtisodiy o‘shish bilan musbat yuqori korrelyatsiyaga ega bo‘lgan soha bo‘lib, iqtisodiy o‘shishga katta rag‘bat beradi.

2009 yildagi jahon iqtisodiy inqirozidan 2019 yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy holatgacha bo‘lgan o‘y yil davr mobaynida turizm jahon iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga nisbatan salmoq hamda o‘shish darajasi jihatidan qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan. Turizm xizmatlari eksporti kimyo

<sup>10</sup> Butunjahon sayohat va turizm kengashi va Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

mahsulotlari va neft mahsulotlaridan keyin jahon eksportining eng yirik uchta tarmoqlaridan biri bo'lib, tovarlar eksportiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilgan. Xususan, 2019 yilda turizm xizmatlari eksporti hajmi 4 foizga o'sgan bo'lsa, tovarlar eksportida o'sish ko'rsatkichi 3 foizni tashkil qilgan<sup>11</sup>.

Turizm qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning asosiy omillaridan biri bo'lib, yo'l va mehmonxona qurilishi rivojini tezlashtiradi, barcha turdagi transport vositalari ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, xalq hunarmandchiligi, mintaqalar va mamlakatlarning milliy madaniyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra<sup>12</sup>, 2019 yilda turizm sohasi 3,5 foizga o'sib, jahon iqtisodiyotidagi ulushi jami 8,9 trillion dollarni yoki jahon yalpi mahsulotining 10,3 foizini tashkil etdi. 2011 yildan buyon 3,5 foizdan kam bo'lmagan o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lgan hamda sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari kabi sohalarga nisbatan jadal o'sgan dunyodagi uchinchi eng tez rivojlanadigan soha hisoblanadi (1.1.2-rasm).


Shunday ekan, turizm iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlararo soha sifatida shakllanib bormoqda. So'nggi yigirma yil mobaynida dunyoda kuzatilgan bir qator tabiiy va texnogen inqirozlar tahliliga ko'ra, turizm sohasi tashqi ta'sirlardan birinchi navbatda katta ziyon ko'radi hamda inqirozdan chiqish jarayonida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qisqa vaqt ichida va kam resurs asosida tiklanish salohiyatiga ega.

---

<sup>11</sup> World Travel and Tourism Committee. Travel and tourism economic impact 2020.

<sup>12</sup> World. <https://www.wttc.org/economic-impact/> va World Travel and Tourism Committee. Travel and tourism economic impact 2021: World. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact>.





### 1.1.2-rasm. Jahon yalpi mahsuloti va turizm sohasi daromadlarining so‘nggi yillar davomida o‘shish dinamikasi (foizda)<sup>13</sup>

Turizmga ta’sir etuvchi har qanday inqiroz qisqa fursatda ish o‘rinlarining qisqarishi, tadbirkorlar faolligining pasayishi va daromadlarining kamayishi, davlat uchun soliq tushumlarining va turizm sohasiga kiritiladigan investitsiya hajmining tushib ketishiga olib keladi<sup>14</sup>.

Shu bilan bir qatorda, turizm sohasining tez moslashuvchanligi sababli iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda inqirozlardan chiqishi va tiklanishi uchun nisbatan qisqa vaqt talab etiladi. Turizm sohasining o‘shish tendentsiyasidan ko‘rish mumkinki, har bir inqirozdan keyin turizm sohasi barqaror o‘shish ko‘rsatkichlarini qayd etgan. Xususan, 2000 yilning boshida kuzatilgan iqtisodiy turg‘unlik va 2009 yildagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarda jahon iqtisodiyotining va turizm sohasining pasayishi bilan bir qatorda inqirozlardan keyin tez tiklangan va barqaror o‘shishda davom etgan.

Xususan, XXI asrning boshidan buyon kuzatilgan inqirozlar ichida 2019 yildagi ijtimoiy inqiroz iqtisodiyot tarmoqlariga, shu

<sup>13</sup> Butunjahon sayohat va turizm kengashi va Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>14</sup> Laws E. & Prideaux B. (2005). Crisis management: A suggested typology. Journal of Travel & Tourism Marketing, 19(2/3), 1 – 8.

jumladan turizm sohasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ushbu inqiroz ta'sirida 2020 yilda xalqaro turistlar soni, xalqaro turizmdan ko'riladigan daromadlar pasayishi kuzatilgan. Keyingi ikki yil mobaynida turizm sohasida avvalgi ko'rsatkichlarga qaytish va rivojlanish jarayonlari sodir bo'ldi.

2020 yilning 11 mart kuni Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb e'lon qilingan COVID-19 infeksiyasi tarqalishi jahon iqtisodiyoti, ayniqsa turizm sohasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda hamda so'nggi yigirma yil davomida bo'lib o'tgan 90 tadan ortiq turli ko'lamdagi inqirozlar ichida ko'lami va darajasi jihatidan eng salmoqlisi bo'lib turibdi. Mazkur pandemiya oqibatida jahon turizm bozorida ish o'rinlari qisqardi va iqtisodiy ziyon hajmi sezilarli oshdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi baholashicha, COVID-19 pandemiyasi oqibatida jahon iqtisodiyoti 2009 yildagi kabi retsessiya holatiga keldi<sup>15</sup>. Bunda, turizm sohasi eng katta ziyon ko'rgan sohalardan bo'ldi. Jumladan, xalqaro sayohatlar soni 2019 yilga 1,5 milliardga nisbatan 74% ga kamaydi va 380 milliontani tashkil qilgan bo'lsa, turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 2019 yildagi 1,7 trillion dollardan 406 milliard dollargacha pasaydi.

Turizm sohasining inqiroz holatlaridan tez tiklanuvchi va o'zining yuqori multiplikativ samarasi orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga impuls berishi salohiyatidan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlar va hukumatlar tomonidan inqiroz sharoitida ushbu sohani qo'llab-quvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda<sup>16</sup>.

Xorijiy mamlakatlar tomonidan pandemiya asoratlarini yumshatish hamda turizm sohasi sub'ektlarining tiklanish jarayonini tezlash-

---

<sup>15</sup> International Monetary Fund. (2020). World Economic Outlook: The Great Lockdown. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2020/04/14/weo-april-2020>

<sup>16</sup> United Nations World Tourism Organization. (2020). Supporting Jobs and Economies through Travel & Tourist, <https://www.unwto.org/recommendations-for-recovery-covid-19>

tirish maqsadida fiskal instrumentlar, soliq imtiyozlari soliq ta'tillari vositasida rag'batlantirish choralari ko'rilmogda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turizm sohasi jahon va milliy iqtisodiyotlar uchun iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, valyuta tushumi va ijobiy to'lov balansini ta'minlash, tadbirkorlik faolligini oshirish va bandlikni ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, turizm sohasiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni tashkil etish va soha bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlanishini rag'batlantirish salohiyatiga ega muhim sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish esa alohida yondashuvni talab etadi.

Shularni nazarda tutgan holda keyingi bo'limlar turizm faoliyatini rivojlantirishda soliqqa tortishning zamonaviy tizimi qo'llashning kontseptual asoslarini tadqiq etish va turizmni soliq vositalari orqali rag'batlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganishga bag'ishlanadi.

### **1.2-§. Turizm faoliyatini rivojlantirishda soliqqa tortishning zamonaviy tizimi qo'llashning kontseptual asoslari**

Dunyo mamlakatlarida xususan yurtimiz iqtisodiyotida turizm industriyasining ahamiyati tobora oshib borayotganligi hamda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi ya'ni iqtisodiyotning lokomotivi, ustuvor drayveri va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlash salohiyatiga ega ekanligi tufayli, dunyo mamlakatlarida shu o'rinda mamlakatimizda ham iqtisodiy richaglari va turli mexanizimlar yordamida mazkur sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyoz

va preferensiyalar tizimini joriy etish, xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish orqali sohani barqaror rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga etkazish, tibbiyot va ta‘lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga etkazish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish, eng avvalo, yuqori sifatli turizm xizmatlarini taklif etish, turistik biznes subyektlari faolligini kuchaytirish, tashqi va ichki turizm yo‘nalishlarini har tomonlama kengaytirishda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlarini rivojlantirishni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan<sup>17</sup> yoritilgan ilmiy adabiyotlarda turizm sohasini rivojlantirishda davlat ishtiroki asosan talab va daromadlarni boshqarish yoki taklif va narxlarni boshqarish orqali amalga oshirilishi ko‘rsatiladi (1.2.1-rasm)<sup>18</sup>.

Turizm faoliyatida talabni va daromadlarni boshqarish uchun davlat tomonidan ma‘lum bir yo‘nalishda marketing faoliyatini rag‘batlantirish, mahsulot va xizmatlar narxlarini shakllantirish hamda ulardan foydalanishni (talabni) cheklash kabi vositalardan foydalanadi.


Ichki hamda tashqi turistlar tanlovi shuningdek, narxni tartibga solishga qaratilgan talabni boshqarish vositalaridan farqli ravishda turizm faoliyatida taklifni davlat tomonidan tartibga solish turizm

---

<sup>17</sup> Папирян Г.А. Международные экономические отношения: Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 1998. – 208 с.; Kubichkova M. (2016). The Role of Government in Tourism: Linking Competitiveness, Freedom, and Developing Economies, Czech Journal of Tourism, 02/2016, 73 – 92 pp.; Ritchie, J.R.B., & Crouch, G.I. (2003). The Competitive Destination, a Sustainable Tourism Perspective. Wallingford, UK: CABI.

<sup>18</sup> Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

sohasi subektlariga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq. Taklifni boshqarish uchun davlat tomonidan bozor mexanizmlarini o'rganish va tartibga solish, resurslardan foydalanishni rejalashtirish va mulkchilik munosabatlarini tartibga solish, soliqqa tortish va investitsiyalarni yo'naltirish vositalaridan foydalaniladi.



### 1.2.1-rasm. Turistik faoliyatni rivojlantirishda davlat ishtirokining asosiy yo'nalishlari

Turistik mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab narxga nisbatan yuqori egiluvchanlikka ega bo'lib, turizm mahsuloti va xizmatlarining narxi esa turizm sohasi subektlariga bo'lgan soliq yuklamasiga nisbatan yuqori sezuvchanlikka moyil deb hisoblanadi.

Konsalting va audit xizmatlarini ko'rsatadigan xalqaro kompaniya ostida tanilgan "Deloitte Touche" hisobotlarida<sup>19</sup>, bu borada o'tkazilgan tadqiqot natijalari ahamiyatlidir. Unga ko'ra, turizm sohasi subektlariga bo'lgan soliq yuklamasining o'zgarishi turizm mahsuloti va xizmatlarining narxini o'zgarishiga olib keladi, bu esa turistlarning sayohat qilish manzili – turizm maskani sifatida mamlakatlarni tanlash

<sup>19</sup> WTTC Taxation Policy Task Force Case Studies. (2021). Principles of Intelligent Taxation, East Lansing: The World Travel & Tourism Tax Policy Center, <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/isrcr/article/view/36>

bo'yicha qarorlariga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan, ma'lum bir mamlakatda turizm sohasida soliq yuklamasi oshsa, turizm mahsulotlari narxi sezilarli qimmatlashadi. Xorijiy turistlar nisbatan arzonroq turizm manzillarga sayohatlarini amalga oshirishga qaror qilishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqot doirasidagi Amerika Qo'shma Shtatlarining soliq qonunchiligida bo'lgan o'zgarish tahliliga ko'ra, o'tgan asrning so'ngi o'n yillarida ba'zi shtatlarda joylashtirish vositalari uchun besh foiz stavkada egri soliq shaklida mahalliy turizm yig'imi joriy qilinishi oqibatida joylashtirish vositalarining narxi shunga mos ravishda ya'ni besh foizga oshgan. Shundan keyingi besh yil davomidagi yangi soliqning ta'sirini baholash bo'yicha kuzatuvlar natijasida narxning oshishi tufayli joylashtirish vositalariga bo'lgan talabning 2,5 foizga tushishiga olib kelganligini ko'rsatgan, natijada ayrim shtat ma'muriyati mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilgan ushbu soliqni bekor qilgan.

Turizm bozori iste'molchilarning bir nechta yo'nalishlar o'rtasida keng tanlov imkoniyatlari mavjud bo'lgan yuqori raqobatli bozor bo'lganligi ya'ni talabning yuqori egiluvchanligi uchun ham mazkur faoliyat sohasi asosan soliqqa tortish tizimiga yuqori sezuvchanlikka ega ekanligi hamda soliq tizimidagi har qanday o'zgarish turizm sohasiga bevosita va bilvosita ta'sir qilishini taqazo etadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, turizm sohasi takomillashgan xorijiy mamlakatlarda milliy turizm sohasini raqobatchi boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq darajaga olib chiqish maqsadida sohani soliqqa tortishni maqbullashtirish siyosatini qo'llashadi. Shu jumladan sohaga soliq imtiyozlarini yoki turli preferentsiyalarni joriy qilishga doir tadqiqotlarni va uning asosida islohotlarni olib borish mexanizmlarini qo'llashadi. Natijada, joriy asrning o'tgan davri

mobaynida ko‘plab mamlakatlar turizm uchun mo‘ljallangan yangi soliq imtiyozlari va alohida soliq rejimlarini joriy etdilar<sup>20</sup>.

Amaliy tadqiqotda turizm faoliyatini rivojlantirishda soliq imtiyozlarini qo‘llashning kontseptual asoslarini ko‘rib chiqish uchun «turizm sohasi», «turizm sohasi subyektlari», «soliq imtiyozlari» va «soliq rejimlari» kabi asosiy atamalarni aniqlashtirib olish muhim hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda «turizm sohasi» atamasini talqin qilish bo‘yicha turli yondashuv mavjud. Xozirgi ilmiy adabiyotlarda «turizm sohasi» va «turizm industriyasi» atamalarining turli o‘rinda ishlatilishiga qaramasdan, bu ikki atama turizmdagi o‘zaro bog‘liq turizm faoliyatlarining majmuini aks ettiruvchi bir xil ma‘nodagi atama sifatida qaraladi<sup>21</sup>.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turizm industriyasini xizmat ko‘rsatish tarmog‘i bilan birga turist yo‘lovchilarini tashish transporti, turli turizm sohasiga ixtisoslashgan korxonalar va aniq turistik xususiyatga ega bo‘lmagan turizm uchun «ikkilamchi» korxonalarining (xususan, transport mashinasozligi va avtomobilsozlik, yoqilg‘i sanoati, kapital va yo‘l qurilishi, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va boshqalar) keng doirasini qamrab oluvchi milliy iqtisodiy majmua deb biladi<sup>22</sup>.

O‘z o‘rnida, turizm industriyasi esa turistlarga iste‘mol uchun barcha zaruriy bo‘lgan va turizm jarayonini amalga oshirish uchun

---

<sup>20</sup> UN and CIAT (2018). Design and Assessment of Tax Incentives in Developing Countries. United Nations and Inter-American Center of Tax Administrations (CIAT), [https://www.ciat.org/Biblioteca/Estudios/2018\\_design\\_assessment\\_tax\\_incentives\\_UN\\_CIAT.pdf](https://www.ciat.org/Biblioteca/Estudios/2018_design_assessment_tax_incentives_UN_CIAT.pdf)

<sup>21</sup> Экономика туризма: учебник / М.А.Морозов, Н.С.Морозова, Г.А.Карпова, Л.В.Хорева. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 320 с.

<sup>22</sup> Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. М.: Финансы и статистика, 2003.

etarli bo‘lgan turizm xizmatlari, ishlari va mahsulotlarni etkazib beruvchi korxonalarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida tavsiflanadi<sup>23</sup>.

Shu bilan birga ilmiy adabiyotlarda «turizm sohasi» va «turizm industriyasi» atamalarini teng ma’noga ega bo‘lgan tushuncha sifatida qaraladi hamda to‘liq yoki qisman, bevosita yoki bilvosita tashrif buyuruvchilar uchun mahsulot ishlab chiqaradigan va ularga xizmat ko‘rsatadigan barcha korxonalar va muassasalarning majmui<sup>24</sup>, shuningdek, moddiy-texnik bazani yaratishni, ishchi kuchi tayyorlash, tabiiy resurslardan, jamiyatning moddiy va nomoddiy qiymatliklaridan foydalanish asosida turizm mahsulotini ishlab chiqarish, sotish va iste’mol qilish jarayonini amalga oshirilishini ta’minlovchi iqtisodiyotning turli sohalari, madaniyat, ta’lim va fan muassasalari majmuasi sifatida ta’riflanadi<sup>25</sup>.

Mazkur tushunchaga milliy qonunchiligimizda ham ta’rif berilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, turizm industriyasi joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish ob’ektlari va ko‘ngilochar, ma’rifiy, ishbilarmonlik, davolash – sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo‘ljallangan ob’ektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek, ekskursiya etakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo‘riqchi-yo‘l boshlovchilarning xizmatlari majmuidan iborat.

Keltirilgan ushbu ta’riflar turizm sohasida sayohatni tashkil etish va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish sayohatning barcha bosqichlarida ma’lum bir faoliyat turlari orqali amalga oshirilishini

---

<sup>23</sup> Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: Издательский дом Герда, 2007.

<sup>24</sup> Квартальной В.А. Туризм. – М.: Финансы и статистика, 2002.

<sup>25</sup> Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. – Минск, Новое знание. 2002.



ko'rsatadi. Mazkur zaruriy faoliyat turlarining soni ko'pligi va xilma-xil bo'lganligi sababli ulardan asosiylarini ajratib ko'rsatish va shu bilan turizm sohasini tashkil etuvchi subyektlar tarkibini aniqlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, turizm sohasining subyektlari – bu, turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko'rsatish, qo'shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkilotining (keyingi o'rinlarda – UNWTO) 2008 yilda qabul qilingan Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalariga (keyingi o'rinlarda – TSXT-2008)<sup>26</sup> muvofiq, turizm sohasi asosiy faoliyati turizm faoliyatning o'ziga xos turi bo'lgan barcha tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Turizmga xos bo'lgan faoliyat turlari turizm mahsulotini ishlab chiqaruvchi faoliyat turlari hisoblanadi. TSTX-2008 ga muvofiq, turizm mahsulotlari deb quyidagi ikkita mezonan biriga yoki ikkilasiga ham mos keladigan mahsulotlar hisoblanadi:

- talab nuqtasidan turistik mahsulotga bo'lgan xarajatlar tashrif buyuruvchining umumiy turistik xarajatlarning sezilarli qismini tashkil qilishi kerak.

- taklif sifatida mahsulotga bo'lgan turistik xarajatlar iqtisodiyotdagi mahsulot qiymatining sezilarli qismini tashkil qilishi kerak.

Ushbu mezon tashrif buyuruvchi turistlar kamligi yoki yo'qligida xarakterli turizm mahsulotini sezilarli darajada etkazib berishni kamayishi yoki to'xtatishi mumkinligini anglatadi.

---


<sup>26</sup> Международные рекомендации по статистике туризма ЮНВТО. Статистические документы. Серия М №83, Мадрид, Нью-Йорк, 2008.

Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalarga muvofiq, quyidagilar turizm industriyasiga turizm xizmatlari va mahsulotlariga tegishli ekanini ko'rsatadi:

- tashrif buyuruvchilarni joylashtirish;
- umumiy ovqatlanish;
- avtotransportlarda, temir yo'l transportida, suv transportida va havo transportida yo'lovchilarni tashish;
- ekskursiya uchun transport uskunalari ijaraga berish;
- turizm agentliklari va boshqa band qilish xizmatlari (turagentliklar, turoperatorlar va boshqa band qilish xizmatlari);
- madaniyat va dam olish bilan bog'liq faoliyat (ijod, san'at va ko'ngil ochish sohasidagi faoliyat, muzey faoliyati hamda tarixiy obidalar va binolaridan foydalanish, botanika va zoologiya bog'lari hamda qo'riqxonalar faoliyati);
- sport va ko'ngil ochish faoliyati;
- ma'lum bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos turizm mahsulotlarining chakana savdosi;
- muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos turistik faoliyati.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, turizm industriyasida turistlarning sayohatini tashkil etish hamda sayohatning barcha bosqichida ularning talabini qondirish uchun turizm xizmatlari majmuini yoki ularning bir qismini amalga oshirishda, qo'shimcha turistik xizmatlarni va ishlarni bajarishda ham turistlarga tovarlarni realizatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha tarmoq va korxonalarining o'zaro bog'liq majmuasi sifatida ta'riflash mumkin. (1.2.2-rasm).

Mazkur sohada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslari esa turizm sohasi subyektlarini tashkil qiladi.



### 1.2.2-rasm. Turizm sohasi subyektlarining tarkibi<sup>27</sup>

Shu o'rinda soliq tizimida mavjud turli imtiyozli soliq mexanizmlarining tushunchasini aniqlab olish maqsadida ushbu sohadagi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi hamda ulardagi soliq tizimi atamasining ta'riflari qiyosiy o'rganildi.

Soliq tizimida iqtisodiy xususiyatlarini to'liq qamrab olish, shuningdek, aniq maqsad va vazifalarga erishish vositasi sifatida qarab, "soliq imtiyozini soliqqa tortish tizimida qo'llanishi aniq maqsadni ko'zlaydigan va uning iqtisodiy, byudjet-moliyaviy yoki ijtimoiy samaradorligini aniqlash mumkin bo'lgan, ayrim soliq to'lovchilarning soliq yukini kamaytirilishiga qaratilgan afzalliklar majmui" sifatida ta'riflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi mezonlarning barchasi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lsa, soliq imtiyoz deb hisoblash mumkin:

<sup>27</sup> Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkilotining 2008 yilda qabul kilingan Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalari asosida muallif ishlanmasi.

- soliq yukini kamaytirish yoki ozod qilish tadbiri qilinadigan aniq soliq to'lovchi (soliq to'lovchilar toifasi) va soliq solish obyekti mavjudligi;

- tadbiri qilinayotgan soliq yukini kamaytirish yoki ozod qilish aniq maqsadga yo'naltirilganligi va bu maqsadni aniqlash imkoniyatining mavjudligi;

- tadbiri qilinayotgan soliq yukini kamaytirish yoki ozod qilishning samaradorligini aniqlash imkoniyatining mavjudligi.

Soliq mexanizmlarini berishdan ko'zlangan maqsad va qo'yilgan vazifalar haqida to'xtalganda, bir qator ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, soliq imtiyozlari vositasida ma'lum bir soha yoki tarmoqni rivojlanishini rag'batlantirish, unga investitsiyalarni jalb qilinishi va kapital to'planishini kuchaytirish, soha yoki tarmoqda ishlab chiqariluvchi mahsuloti, bajargan ishi, ko'rsatilgan xizmatlari to'lovga qobiliyatli talabni kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, rag'batlantirish xususiyatidagi soliq mexanizmlari orqali soliq yukini kamaytirish o'sha sohada tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniyatini oshiradi, kichik korxonalarni yirik raqobatbardosh korxonalar toifasiga o'tishi uchun qulay va ko'lamli imkoniyatini kengaytiriladi<sup>28</sup>, shuningdek, bozor nuqsonlarini keltirib chiqaruvchi tashqi va ko'zlanmagan ta'sirlar va boshqa omillarning ta'sirini kamaytiradi<sup>29</sup>.

Amerika Qo'shma Shtatlarining "New Hampshire" universiteti professor D.Goldbergning qarashlariga ko'ra, barcha soliq mexanizmlarini rivojlantirish, shu o'rinda soliq imtiyozlarini joriy qilishdan

---

<sup>28</sup> Gentry W., Hubbard R. Tax Policy and Entrepreneurial Entry // American Economic Review. May 2000. Vol. 9.2.

<sup>29</sup> Toder E., Wasow B., Ettliger M. Bad Breaks All Around: The Report of the Century Foundation Working Group on Tax Expenditures. The Century Foundation Press, 2002. Chapter 1.

ko‘zlangan maqsad, ularni shaklidan qat’iy nazar, ma’lum bir faoliyatni amaldagi soliqqa tortish darajasini kamaytirish orqali kapital va ishchi kuchini shu faoliyat sohasiga harakatini rag‘batlantirish hisoblanadi<sup>30</sup>.

Ya’na bir AQShning iqtisodchi olimi Alex Easson XX asrning keyingi davri uchun o‘tgan yillardagiga qaraganda soliq imtiyozlari va preferetsiyalar investitsiya qarorlariga ta’sir ko‘rsatishida katta ahamiyat kasb etishi mumkinligini bir necha omillar bilan tushuntiradi<sup>31</sup>: Olimning takidlashicha, soliq imtiyozlari o‘tgan davrga qaraganda hozirgi va keyingi davrda yanada ko‘payadi, soliq satavkalari esa sezilarli darajada pasaydi, investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mamlakatlararo raqobat investitsiya loyihalari uchun soliq yukining kamayishiga olib keladi. Birgina xalqaro tajribada investitsiya loyihalari uchun beriladigan soliq ta’tillarining muddati o‘tgan davr mobaynida 2 yildan 10 yilgacha uzaytirildi. Shuningdek, so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida savdoni erkinlashgani va kapitalning katta harakatchanligi kuzatildi. Soliqqa oid bo‘lmagan to‘siqlarning olib tashlanishi bilan soliqlarning investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda muhim omili sifatida ahamiyati oshmoqda. Tadbirkorlik faoliyati ko‘p jihatdan o‘zgardi, korxonalarining tashkiliy tuzilishiga, ishlab chiqarish va tarqatish usullariga hamda ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan mahsulot turlariga katta o‘zgarishlar kirdi, yuqori darajadagi mobil servislar va nomoddiy qiymatliklar transchegaraviy operatsiyalarning ancha yuqori qismini tashkil etmoqda. Bunda, eng qulay va maqbul taqdim qilinadigan soliq mexanizmlari hamda imtiyozlar orqali

---

<sup>30</sup> Goldberg D. Tax Subsidies One-Time vs. Periodic. An Economic Analysis of the Tax Policy Alternatives. 49 Tax Law Review. 1994. P. 305, 306.

<sup>31</sup> Easson A. (2001). “Tax Incentives for Foreign Investment, Part I: Recent Trends and Countertrends”, Bulletin for International Fiscal Documentation, vol. 55.

ma'lum mamlakatni mazkur transchegaraviy operatsiyalar zanjiriga kiritish imkoniyatini oshiradi.

Tadbirkorlar va istemolchilar to'laydigan soliqlar bo'yicha Sh.Toshmatov davlatning tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan eng keng tarqalgan usullaridan biri sifatida quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatadi:

- iqtisodiy kon'yunkturaga qarab kapitalning yig'ilishining intensivligini tartibga solish;

- kapital kiritishni rag'batlantirish, aholining tovarlarga bo'lgan talabini qondirish uchun qulay sharoitlar yaratish;

- turli xildagi soliq imtiyozlari orqali korxonalar iqtisodiy faolligini rag'batlantirish yoki ustuvor bo'lmagan iqtisodiy faoliyatni cheklab qo'yish<sup>32</sup>.

Shuningdek, olim tomonidan soliqlar kamaytirilsa, xarajatlar pasayishi va foyda ko'payish imkoniyati yaratilishi asosida iqtisodiy manfaatdorlik kuchayishi bilan birga esa ishlab chiqarishga foydaning qayta joylashtirish imkoni ham kengayishi ta'kidlanadi. Shuning uchun, davlat tomonidan soliq mexanizmlari hamda imtiyozlaridan foydalanish joriy, nisbatan fiskal vazifalar doirasida uzoq muddatli iqtisodiy o'sish strategiyasiga ijobiy ta'sir etishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Soliq mexanizmlarining turlari va shakllarini aniqlash hamda turizmga xoslarini o'rganish maqsadida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari siyosiy tahlil qilindi. Ularda soliq elementlari shu o'rinda soliq imtiyozlarining bir nechta shakllari keltirilgan bo'lib, ularni guruhlariga ajratilgan.

---

<sup>32</sup> Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli // T.: "Fan va texnologiya", 2008. 204 b.

Xususan, S.Barulin esa soliq imtiyozlarini turi va shaklidan qat'iy nazar to'rt guruhga, ya'ni *ijtimoiy, investitsiyaviy, umumiy rag'batlantiruvchi, maxsus soliq rejimlari* guruhlariga ajratadi<sup>33</sup>.

Boshqa olimlar tomonidan esa soliq imtiyozlari (1) alohida daromadlar va operatsiyalarni soliqdan ozod qilish, (2) umumiy o'rnatilgan me'yordan farqli (pasaytirilgan) soliq stavkalarini qo'llash, (3) soliq to'lovchilarga soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimidan foydalanish huquqini berish, (4) belgilangan qoidalarga muvofiq hisoblangan miqdorga nisbatan soliq bazasini kamaytirishni ko'zda tutuvchi soliq chegirmalari, (5) soliq krediti, (6) soliq (hisobot) davrini uzaytirish, siyosatning ma'lum maqsadlariga erishish uchun soliq to'lovchilar moliyaviy resurslarini ko'paytirish maqsadida soliq to'lovini bo'lib-bo'lib to'lash yoki kechiktirish, (8) investitsion soliq imtiyozi, (9) soliq ta'tili kabi turlarga ajratiladi<sup>34 35</sup>.

Mazkur masala o'zbek olimlari tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, Z.Kurbanov va F.Akramov soliq mexanizmlari shu o'rinda soliq imtiyozlarini mohiyatini ochish maqsadida ularni nazariy jihatdan uch guruhga, ya'ni soliqdan to'liq yoki qisman ozod etish, soliq chegirmalari hamda soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar) guruhlariga bo'lib o'rganishgan.<sup>36</sup>

Har bir soliq turining qo'llanishida ma'lum bir maqsad nazarda tutiladi. Masalan, "korxonaga nisbatan soliqlar pasaytirilsa, yuzaga kelgan ortiqcha mablag'lar avvalo ish haqini oshirish, o'z mahsulotlari

---

<sup>33</sup> Барулин С.В. Организация системы мониторинга результативности и эффективности налоговых льгот и преференций // Финансы. 2013. № 4.

<sup>34</sup> Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. 4-е изд. – М., 2011. – 558 с.

<sup>35</sup> Налоговые льготы. Теория и практика применения [Электронный ресурс]: монография / И.А.Майбуров, Ю.Б.Иванов, С.В.Антоненко, А.С.Баландина, ред.: И.А.Майбуров, ред.: Ю.Б.Иванов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 488 с.

<sup>36</sup> Kurbanov Z., Akramov F. "Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari" Biznes-ekspert ilmiy jurnali № 9, 2015.

narxlarini pasaytirish orqali uning realizatsiyasini ko'paytirish, o'z moddiy bazasini mustahkamlashga sarflanishi mumkin. Korxonaning moliyaviy holati yaxshi bo'lsa, u holda soliqlarning pasaytirilishi natijasida yuzaga kelgan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirish"<sup>37</sup> imkoniyati yaratiladi, bu bilan davlat ishlab chiqarishni kengaytirish bilan birga soliq solinadigan bazani kengaytirishni ham nazarda tutadi.

Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, soliq imtiyozlarini guruhlariga ajratish ularni turlari va shakllaridan hamda ularni berishdan ko'zlangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Alohida ta'kidlash kerakki, soliq yukini kamaytirish vositalaridan biri sifatida soliq imtiyozlarini taqdim etish, byudjet subsidiyalaridan farqli o'laroq, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Shuningdek, ko'plab asossiz va tizimsiz soliq imtiyozlarini samarali soliqqa tortish tizimining asosiy sifat xususiyatlariga erishishga to'sqinlik qiladi<sup>38</sup>.

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqot xulosalari va ilmiy adabiyotlarda soliq mexanizmlarini, stavkalarni, imtiyozlarini qo'llashning asosiy tamoyillariga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) soliq imtiyozlarini taqdim qilish tizimi shaffofligini va samarali foydalanishini ta'minlash hamda ma'murchiligini takomillashtirish uchun quyidagi tamoyillar va shartlarga amal qilinishi lozimligini keltiradi<sup>39</sup>:

---

<sup>37</sup> Toshmurodova B.E. Iqtisodiy tarakkiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferata. – T.: BMA, 2007. – 10 b.

<sup>38</sup> Ададимова Л.Ю., Популях Ю.Г., Ойдуп Т.М. Исследование эффективности налоговых льгот в составе антикризисных мер // Экономический анализ: теория и практика. 2009. № 34.

<sup>39</sup> OECD, Principles to Enhance the Transparency and Governance of Tax Incentives for Developing Countries developed by Task Force on Tax and Development, [www.oecd.org/ctp/tax-global/transparencv-and-govenance-principles.pdf](http://www.oecd.org/ctp/tax-global/transparencv-and-govenance-principles.pdf)



- barcha soliqlar va boshqaruv doirasida ularning maqsadlari to‘g‘risida ommaga e‘lon qilib borish;
- barcha soliq imtiyozlarini berish, monitoring qilish va bekor qilishni bitta davlat organi vakolati ostida birlashtirish;
- soliq tizimi xarajatlari to‘g‘risidagi hisobotni e‘lon qilib borish hamda unda, zaruriy hollarda, soliq elementlarining asosiy foydalanuvchilarini ko‘rsatib borish;
- mavjud soliqlarning amal qilish davomiyligini ular belgilangan maqsadlarga qanchalar mos kelishini davriy baholab borish;
- soliq tizimining umumiy ta‘siri va samaradorligini doimiy monitoring qilish va soliq xarajatlari hisobotini doimiy yuritish;
- mamlakatlararo nosog‘lom soliq raqobatining oldini olish uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda I.Mayburov<sup>40</sup> soliq tizimi samaradorligini ta‘minlash uchun soliqlarda imtiyozlarni qo‘llashda quyidagi tamoyillarni qo‘shimcha qiladi:

- soliq imtiyozlarini taqdim qilish muddatining cheklangan bo‘lishi;
- individual asosda soliq imtiyozlarini berishdan voz kechish;
- soliq imtiyozlarini joriy qilishda asosan strategiya maqsadlariga erishish, shu jumladan milliy soliq tizimi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan imtiyozlarga ustuvorlik berish.

Shuni ham alohida ta‘kidlash kerakki, soliq imtiyozlari soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning qonuniy shakli sifatida sharoit yaratmasligi kerak. Hozirgi vaqtda taqdim etilayotgan imtiyozlar va preferentsiyalar sonining ko‘payishi bilan ularni soliq to‘lovchilar tomon-

---

<sup>40</sup> Налоговые льготы. Теория и практика применения [Электронный ресурс]: монография / И.А.Майбуров, Ю.Б.Иванов, С.В.Антоненко, А.С.Баландина, ред.: И.А.Майбуров, ред.: Ю.Б.Иванов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 488 с.

dan suiste'mol qilinishi ehtimolini oshirishi, bu esa ba'zi hollarda davlatning iqtisodiy manfaatlariga zarar etkazishi mumkin. Shu sababli soliq imtiyozlarini qo'llash samaradorligini baholashning ahamiyati o'sib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, byudjet tushumlarini maqbullashtirish va cheklangan resurslar sharoitida soliq imtiyozlarini aniq maqsadli va yuqori samara beradigan sohaga yo'naltirish hamda soliq imtiyozlari orqali yo'qotilgan byudjet mablag'larining natijadorligini baholash muhim vazifa hisoblanadi.

Ko'plab taniqli olimlar va amaliyotchi iqtisodchilarning tadqiqot ishlari ushbu muammoni o'rganishga bag'ishlangan. Ularda soliq imtiyozlarini qo'llash samaradorligini mikro va makro darajada tahlil qilish mumkinligi, mikro darajada korxonalar kesimida ko'rib chiqish aniqroq manzarani namoyish etishi, chunki bunda har bir alohida imtiyoz va afzalliklarni hisobga olish va ulardan foydalanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy natijalari bilan taqqoslash imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi. Biroq, bu kabi tadqiqotlarning katta mehnat talab qilishi va ko'lamini hisobga olgan holda, mualliflar asosan makro darajada soliq imtiyozlari samaradorligini baholash metodologiyasiga e'tibor qaratishadi.

Xususan, soliq mexanizmlarining iqtisodiy faoliyatga bevosita ta'siri T.Malinina<sup>41</sup> tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, u o'z tadqiqotlarida soliqlarning asosiy turlari bo'yicha imtiyozlarni taqdim etish bo'yicha xorijiy va Rossiya tajribasini tahlil qiladi, ularning miqdoriy bahosini beradi, shuningdek soliq imtiyozlarini qo'llash samaradorligini baholashda soliq xarajatlari kontseptsiyasini qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

---

<sup>41</sup> Малинина Т.А. Оценка налоговых льгот и освобождений: зарубежный опыт и российская практика. – М.: Институт экономической политики имени Е.Т.Гайдара, 2010.

Turizm sohasida soliq munosabatlarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligi V.Panskov<sup>42</sup> asarlarida har tomonlama tahlil qilingan bo'lsa, A.Mishachkova<sup>43</sup> hududiy va mahalliy byudjetlarni shakllantirishda soliq elementlarining rolini, shuningdek ularning samaradorligini obyektiv baholashga to'sqinlik qiladigan asosiy muammolarni o'rganadi.

A.Islamkulov o'z ishida "bevosita soliqlar bo'yicha imtiyozlar ko'lami kengligidan kelib chiqib, bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlarini hisoblashda tafovutlarni aniqlash va byudjetga moliyaviy jarimalar qo'llagan holda undirish amaliyotini joriy etish" muhimligini ta'kidlaydi<sup>44</sup>.

Shundan kelib chiqib, soliq imtiyozlarini taqdim qilish quyidagi hollarda asosli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi:

- bozor nuqsonlarini to'g'irlaydi va ularning ta'sirini kamaytiradi;
- dolzarb vazifalarni hal qilishga qaratiladi;
- daromad solig'ining progressivligini kamaytirmaydi;
- soliq qonunchiligi ijrosi va nazoratiga ortiqcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi;
- iqtisodiy agentlarning xatti-harakatlarini buzmaydi;
- xarajatlarni va foydalarni taqqoslash tamoyili bo'yicha to'g'iridan-to'g'ri byudjet xarajatlari (subsidiya, kompensatsiya, grant va boshqa) dasturlariga qaraganda ancha tejamli bo'ladi.

---

<sup>42</sup> Пансков В.Г. Налоговые льготы: целесообразность и эффективность // Финансы. 2012. № 10.

<sup>43</sup> Мишачкова А.Ф. Субфедеральные налоговые льготы: цели предоставления и проблемы оценки их эффективности в Москве // Региональная экономика: теория и практика. 2012. № 33.

<sup>44</sup> Islamkulov A.X. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barkarorligini ta'minlash yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 72 b.

Shu bilan birga, E.Touder, B.Uasou va M.Etlinger fikrlariga ko‘ra<sup>45</sup>, imtiyozi maxsus soliq rejimlarini joriy qilishda quyidagi savollarga aniq javoblar mavjud bo‘lishi kerak:

- yangi soliq imtiyozini joriy etish asosiy zaruriyati;
- ushbu soliq imtiyozini joriy etishdan ko‘zlangan maqsadlar va ushbu choraning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligining baholash mezonlari;
- soliq imtiyozini joriy qilish orqali ko‘zlangan maqsadlarga maqbul xarajatlar bilan erishilishiga imkon beruvchi omillar;
- ko‘zlangan maqsadlarga erishishida soliq imtiyozlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet xarajatlaridan afzalligi.

Biroq, ushbu masalaning dolzarbligiga qaramay, bugungi kunda ichki va xorijiy nazariyada, soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlash va hisoblashning rasmiy va ilmiy asoslangan yagona metodologiyasi mavjud emas.

Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlar va byudjet-soliq siyosati amaliyotida ma‘lum bir sohaga soliq imtiyozlari berishning maqsadga muvofiqligi va uning samaradorligini baholashda soliqlar harajati (tax expenditure) hamda xarajat-foйда (cost-benefit) usullari keng qo‘llaniladi.

Soliq xarajatlari – bu, odatdagi soliq tizimidan tashqarida bo‘lgan imtiyozlar tufayli kelib chiqadigan yo‘qotilgan byudjet xarajatlari sifatida tavsiflanadi. Soliq xarajatlarini hisoblash barcha soliq imtiyozlarini qamrab oladi<sup>46</sup>.

O‘z navbatida soliq xarajatlari quyidagi 3 ta usul bilan hisoblanadi:

---

<sup>45</sup> Toder E., Wasow B., Ettliger M. Bad Breaks All Around: The Report of the Century Foundation Working Group on Tax Expenditures. The Century Foundation Press, 2002. P. 28 – 29.

<sup>46</sup> James, Sebastian, 2014, “Tax and non-tax incentives and investments: Evidence and Policy Implications”, Investment Climate Advisory Services. World Bank Group, June 2014.

1. Yo‘qotilgan daromadlar usuli. Bu soliq imtiyozlari sababli byudjet tizimi tomonidan olinmaydigan soliq daromadlari hajmi bo‘lib, soliq xarajatlarini hisoblashning eng oddiy va keng foydalaniladigan usuli hisoblanadi.

Mazkur hisoblash usulida soliq deklaratsiyalari va hisobotlarida ko‘rsatilgan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarning kamayishi hisobini yuritish nazarda tutiladi.

2. Olingan daromadlar usuli. Bu usulda soliq imtiyozlarini odatdagi darajaga etkazish natijasida olinadigan daromadlarning o‘shishi hisoblanadi. Ya’ni, soliq xarajatlarini ma’lum bir soliq imtiyozini bekor qilganda olinishi mumkin bo‘lgan soliq daromadlari hajmi sifatida hisoblash usuli.

Bu usulda olinadigan daromadlarning o‘shishini hisoblash jarayonida soliq to‘lovchilarning xatti-harakatlari hisobga olinadi. Masalan, ma’lum bir afzal ko‘rilgan iste’molga nisbatan QQS stavkasi odatiy QQS stavkasigacha oshiriladigan bo‘lsa, yuqori narx sababli iste’mol darajasi kamayishiga olib keladi.

3. Xarajatlarga tenglashtirish usuli. Bu usulda soliq xarajatlari soliq imtiyozlari sababli soliq to‘lovchilar ko‘radigan foyda miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat sifatida hisoblab chiqariladi.

Mazkur usul vositasida turizm sohasida tadbiiq qilinishi rejalashtirilgan yoki tadbiiq qilingan ma’lum bir soliq imtiyozining samaradorligini baholashda asosiy inobatga olinadigan omillar quyidagilardan iborat:

- bevosita natijasi – soliq imtiyozi natijasida sohaga kiritilgan investitsiya miqdori hamda turizm eksporti va ichki turizm aylanmasi hajmining oshishi;

- ijtimoiy-iqtisodiy natijasi – yangi ish o‘rinlari yaratilishi, turizm imijining yaxshilanishi;

- ehtimoliy yo‘qotish hajmi – soliq imtiyozisiz ham erishilishi mumkin bo‘lgan turizm eksporti va ichki turizm aylanmasi hajmi;
- bilvosita rag‘batlantirish xarajatlari – ma‘muriy xarajatlar va imtiyozlardan noratsional foydalanish ehtimoli.

Boshqacha aytganda, turizm sohasi uchun taqdim qilingan soliq imtiyozi sohaga investitsiya kiritilishini, xorijiy va ichki turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining oshishini rag‘batlantirishi va ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishi bilan bir qatorda byudjet tushumlarini qisqartiradi va unga bilvosita xarajatlarni yuklashi mumkin. Shunday ekan, byudjet tushumlarining kamayishi va bilvosita xarajatlar qo‘shimcha investitsiya natijasida yuqori daromad va ijtimoiy natijadorlik bilan qoplanadigan bo‘lsa, rag‘batlantirish siyosatining ushbu turi samarali bo‘ladi<sup>47</sup>.

Ushbu bo‘limda keltirib o‘tilgan turizm sohasida soliq imtiyozlarini qo‘llashning kontseptual asoslaridan kelib chiqib, keyingi bo‘lim turizmni soliqlar vositasida rag‘batlantirishning ilg‘or xorij tajribasini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

### **1.3-§. Zamonaviy turizmni turli soliq vositalari orqali rag‘batlantirishning ilg‘or xorij tajribasi**


2017 yildan boshlab iqtisodiy rivojlanish dasturlarida soliq tizimi, ayniqsa turizm sohasini rivojlantirish uchun turli soliq imtiyozlarini qo‘llash ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. 2019 yildagi ijtimoiy inqirozdan keyingi davrda ko‘plab davlatlar iqtisodiy muno-

---

<sup>47</sup> Roca J. (2014). Evaluation of the Effectiveness and Efficiency of Tax Benefits. Institutional Capacity and Finance Sector, Discussion Paper IDB-DP-136. IDB.

sabatlarni tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida imtiyozli soliqqa tortish vositalaridan faol foydalanishmoqda<sup>48</sup>.

Tahlil va tadqiqotlarga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarga investorlarni jalb qilish uchun va ularning faoliyatiga samarali ta’sir ko‘rsatish uchun asosan soliq mexanizmlari orqali rag‘batlantirishga tayanishmoqda. 2019 yilda o‘rganilgan yuzdan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlarning yarmidan ko‘prog‘ida, makro darajada iqtisodiyot tarmoqlariga xususan, turizm sohasiga soliq ta’tili yoki imtiyozli soliq stavkasi qo‘llanilgan bo‘lsa, shu mamlakatlarning deyarli yarmida so‘nggi 5 yil davomida yangi soliq rejimlari joriy qilishgan yoki amaldagi soliq elementlarini xususan, soliq imtiyozlarini yanada kuchaytirishgan (1.3.1-rasm)<sup>66</sup>.



### **1.3.1-rasm. 2018 – 2022 yillar davomida soliq tizimida soliq imtiyozlarini qo‘llagan mamlakatlar ulushi<sup>67</sup> (foizda)**

Mazkur tendentsiyani mamlakatlararo investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha raqobat kuchayib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

<sup>48</sup> Колесов А.С. Об оценке эффективности финансовой политики // Финансы. 2012. № 11

Bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm sohasini isloh qilish, ushbu iqtisodiy tarmoqni yangi bosqichga ko‘tarish uchun hukumat tomonidan strategik yo‘nalish sifatida qaramoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasining tahliliga ko‘ra, xorijiy mamlakatlarda turizm sohasini rivojlantirish doirasida soliq mexanizmlari asosan quyidagi maqsadlar va yo‘nalishlarda taqdim qilmoqda<sup>49</sup>:

- turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilinishini rag‘batlantirish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish va turizm xizmatlari sifatini yaxshilash;

- xorijiy turistlarning mamlakat hududida xarajat qilishlarini rag‘batlantirish orqali turizm xizmatlari eksporti hajmini oshirish;

- ichki turizmni rivojlanishini rag‘batlantirish orqali turizm sohasidagi mavsumiy omilini kamaytirish va turizm faoliyati subyektlarining doimiy faoliyat yuritishini ta‘minlash;

- mamlakatning alohida hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasidagi tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish orqali mahalliy aholi bandligini ta‘minlash;

- turizm sohasi subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga bo‘lgan soliq yukini kamaytirish orqali ularning mahsulot va xizmatlari narxlarini tushirishga imkon berish va raqobatbardoshligini ta‘minlash.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish asosan yangi turizm infratuzilma obyektlarini barpo qilish, mavjudlarini ta‘mirlash, yangilash va kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, evropa mamlakatlarida 2020 yilda turizm infratuzilma obyektlarini, xususan joylashtirish vositalarini ta‘mirlash, moderniza-

---

<sup>49</sup> Andersen, M.R., Kett, B.R., & von Uexkull, E. (2017). Corporate tax incentives and FDI in developing countries. In Global investment competitiveness report 2017/2018: Foreign investor perspectives and policy implications (pp. 73 – 99). Washington, DC: World Bank.



tsiyalash, ularda energiya samaradorligini ta'minlash va turli xatarlarga qarshi choralarni e'tiborga olgan holda renovatsiya qilish uchun soliq mexanizmlarini tizimga joriy qilingan. Mazkur imtiyoz 2019 yildan boshlab kemping, fermer uyi, pansionat kabi eko va agroturizm bilan bog'liq joylashtirish vositalarini yangilashga, shuningdek, joylashtirish vositalarida raqamli texnologiyalar infratuzilmasini yaxshilash uchun taqdim qilindi.

Soliq kreditlari hajmi belgilangan maqsadlar uchun amalga oshirilgan xarajatlarning 30% dan 65% gacha bo'lgan qismini (200 ming evrogacha) tashkil qiladi. 2014 – 2020 yillarda bu maqsadlarda jami 460 mln evro miqdoridagi soliq kreditlari berilgan.

Bu orqali joylashtirish vositalari fondini zamonaviylashtirish va yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish orqali tashrif buyuruvchi sayyohlarga xizmatlar sifatini va xajmini oshirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilgan hamda u asosida sohada qo'shimcha yangi ish o'rni va qo'shilgan qiymat yaratilishiga erishilgan.

Shuningdek, 2014 – 2016 yillar davomida joylashtirish vositalari, turizm operatorlari va agentliklari uchun xizmatlarni raqamlashtirish xarajatlari, ya'ni internetga ulanish uchun uskunalar va xizmatlarni sotib olish, veb-sahifani ochish, qidiruv xizmatlarida ro'yxatdan o'tish kabilar bo'yicha xarajatlarning 30% miqdoridagi, biroq jami hajmi 12,5 ming evrodan oshmagan miqdorda soliq kreditlari qo'llanilgan. Bu orqali, Italiyada turizm sohasi subyektlari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosiy transformatsiya qilishni rag'batlantirilgan.

Turizm infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni yo'naltirishni rag'batlantirish tajribasi Avstraliyada ham qo'llaniladi. Mehmonxona biznesiga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish uchun imtiyozli soliq rejimi 1984 yildan buyon amalda qo'llanib kelinadi. Uning doirasida joylashtirish vositalarining investorlariga

amortizatsiyalashgan stavkalarini qo'llash huquqi berilgan. Xususan, joylashtirish vositalari uchun yillik amortizatsiya qurilish xarajatlari-ning 4 foizi miqdorida 25 yil davomida hisobdan chiqarishi mumkin (boshqa binolar uchun 2,5% bilan 40 yil davomida hisobdan chiqarish amal qiladi).

Fransiyada esa dam olish, ko'ngilochar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi turistik obyektlarini tashkil qilish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ularga investitsiya jalb qilishga ko'maklashish maqsadida 1998 yildan turli maqsadli soliq rejimlari joriy qilingan. Unga ko'ra, faoliyat yuritmaydigan yoki kamida 15 yil oldin qurilgan binoni sotib olib, turistik obyekt sifatida ishga tushirsa yoki shu maqsadda kamida 9 yilga ijaraga bersa, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini kamaytirilgan 11% stavkada to'lash huquqi berilgan.

Gretsiyada va Isroilda joylashtirish vositalaridagi xona fondini ko'paytirish va mehmonxona xizmati sifatini oshirish maqsadida joylashtirish vositalari va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini qurish yoki kengaytirish, ularning binolarni tiklash yoki ta'mirlash, modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan yillik 50 foizidan ortmagan miqdorda chegirishni ko'zda tutuvchi soliq chegirmalari joriy qilingan.

Mazkur yo'nalishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatib turibdiki, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va ulardagi xizmatlar sifatini yaxshilash uchun investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish borasida asosan soliq chegirmalari shaklida imtiyozlar qo'llanilgan. Soliq imtiyozlarini berishda uning subyektlari, obyekti va ulardan ko'zlangan maqsad aniq belgilanganini ko'rish mumkin.

Mamlakatda turizm xizmatlari iste'molchilarining xarajat qilishlarini rag'batlantirish uchun soliq mexanizmlarini qo'llashning yana bir yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va rivoj-

lanish tashkilotiga a'zo mamlakatlar tajribasi tahliliga ko'ra, ularning uchdan birida ushbu yo'nalishda soliqlar joriy qilingan<sup>50</sup>.

Xorijiy turistlarga ko'rsatiladigan turizm xizmatlari hajmini oshirish maqsadida tegishli mamlakat hududida tashrif buyuruvchilarning xarajat qilishlarini rag'batlantirishga qaratilgan "Tax Free" qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) qaytarishni nazarda tutuvchi soliq imtiyozini joriy qilingan.

Jumladan, Isroilda xorijiy turistlar iste'molining o'sishini rag'batlantirish maqsadida turistlar tomonidan mamlakatda bo'lish davrida sotib olingan tovarlar bo'yicha to'langan QQSni (18%) qaytarish tizimi amal qiladi. Xuddi shu tarzda, 2006 yil yanvar oyida Meksikada QQSni qaytarish tizimi joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra tashrif buyuruvchilarga 16% stavkasidagi QQS mamlakatdan chiqishda qaytarib beriladi.

Avstraliyada xorijiy turistlar bir xaridda 300 avstraliya dollari (221 AQSh doll.) va o'ndan ortiq miqdorda, Janubiy Afrikada esa 250 rand (16 AQSh doll.) va o'ndan ortiq miqdordagi xaridlarni amalga oshirganda QQSni qaytarish tizimi qo'llaniladi.

Ushbu tajribani tatbiq qilish doirasida Koreya Respublikasida 2014 yilda QQSni qaytarishning avtomatlashtirilgan tizimi (The Tax Refund Automated System) va 2016 yilda Tezkor soliqni qaytarish siyosati (Immediate Tax Refund Policy) joriy etilgan. QQS ni qaytarishning avtomatlashtirilgan tizimi aeroportda xorijiy turistlar pasportni va QQSni qaytarish chekini maxsus moslamada skanerlashi orqali QQSni qaytarib olish imkoniyatini bersa, tezkor soliqni qaytarish siyosati xalqaro turistlarga Koreya Respublikasi hududida savdo

---

<sup>50</sup> OECD (2014), OECD Tourism Trends and Policies 2014, OECD Publishing, <http://dx.doi.org/10.1787/tour-2014-en>

nuqtasining o‘zida ma’lum hajmdagi tovarlarni QQS hisobga olmagan holda sotib olish imkoniyatini beradi.

Mazkur yo‘nalishdagi soliq imtiyozlarini qo‘llash QQS stavkasi miqdorida iste‘mol tovarlarining narxini arzonlashtirish asosida xorijiy tashrif buyuruvchilarning iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabini rag‘batlantirishda samarali hisoblanadi.

Soliq vositasida turizm mavsumiyligi omilini kamaytirish va turizm sohasi subyektlarining doimiy faoliyatini ta‘minlash maqsadida ichki turizmni rivojlanishi rag‘batlantiriladi.

Mamlakat aholisini ichki turizm bo‘yicha sayohatlarni amalga oshirishga rag‘batlantirish borasida Vengriya tajribasi e‘tiborli bo‘lib, mamlakatda “Secheni dam olish kartasi” nomli ichki sayohatlarni rag‘batlantirish dasturi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu dasturga ko‘ra, korxonalar va tashkilotlar o‘z ishchilariga ish haqini to‘liq yoki bir qismini maxsus ichki turizm bank kartalariga o‘tkazish orqali ushbu pul miqdoridan jismoniy shaxslar olinadigan daromad solig‘idan, pensiya va tibbiy sug‘urta jamg‘armalariga ajratmalardan ozod qilinadi. Bu orqali xodim ish haqi to‘liq hajmda odatiy bank kartasiga o‘tkazilganga qaraganda 30% gacha tejashga yordam beradi. Maxsus ichki turizm bank kartasi egasi tejab qolingan pul mablag‘larini o‘zining yoki yaqin qarindoshlarining mamlakat bo‘ylab sayohati uchun sarflash huquqiga ega bo‘lishlari xam mumkin.

Ushbu imtiyoz miqdori yiliga 1500 evrogachani tashkil etib, shundan 750 evrosi mehmonxona xizmatlarini, 500 evrosi ovqatlanish xarajatlarini va 250 evrosi boshqa turistik xizmatlarni qoplash uchun foydalanish mumkin. Maxsus ichki turizm bank kartasiga to‘plangan mablag‘larni kartaga tushgan paytdan boshlab ikki yil davomida ishlatish mumkin.

Vengriya Markaziy statistika idorasining ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yil yanvaridan noyabrigacha maxsus ichki turizm bank kartalaridan foydalanganlar soni 1250 ming kishiga etgan. Ushbu maxsus kartalar bo'yicha jamg'arilgan mablag'larning umumiy miqdori esa 90 mlrd forintdan (310 mln AQSh doll.dan ortiq) oshgan. Shuningdek, mamlakatda barcha ichki turizm xarajatlarining 25% maxsus ichki turizm bank kartasi bilan to'langan.

Shu kabi tajriba Panamada ham qo'llaniladi. Mazkur mamlakatda korxonalar va tashkilotlar o'zlarining ishchilari va ularning oila a'zolari uchun poytaxtdan tashqarida va San-Migelito shahrining atrofidagi hududlarda yil davomida uch kundan oshmaydigan ta'til davomida ichki sayohatlari davrida qiladigan 5 ming AQSh dollargacha bo'lgan xarajatlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va QQSdan ozod qilinadi.

Aholini ichki turizm doirasida mamlakat bo'ylab sayohatga rag'batlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarda qo'llaniladigan bu kabi soliq mexanizmlari mamlakatda turizm mavsumi past bo'lgan oylarida turizm sohasi subyektlarining xizmatlariga talabni shakllantiradi va tadbirkorlik subyektlarini doimiy ish bilan bandligini ta'minlaydi. Bu esa, mavsum past bo'lgan davrda tadbirkorlarning o'z xodimlarini qisqartirishni oldini oladi hamda undan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlat byudjeti bevosita xarajatlaridan (ishsizlik nafaqasi, tadbirkorlar uchun subsidiyalar va boshqa) saqlaydi.

Soliq mexanizmlarini takomillashtirishdan maqsadli yo'nalishlaridan yana biri – mamlakatning alohida hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasidagi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishi orqali mahalliy aholi bandligini ta'minlash hisoblanadi.

Bu yo'nalishda Xitoy, Daniya va Polsha mamlakatlarida qo'llash tajribalarini ko'rib chiqib, tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jumladan,

Xitoyning soliqqa tortish tizimida mamlakatdagi alohida hududlarida turizm faoliyatini qo‘llab-quvvatlash doirasida quyidagilar joriy qilingan:

- qishloq joylarida turizm agentliklari va operatorlari, transport, umumiy ovqatlanish kabi xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritadigan kichik korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab bir yil muddatga bazaviy stavkasi 25% ni tashkil etadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi, faoliyatning ikkinchi yilidan boshlab esa mazkur soliq 2 barobarga kamaytirilgan stavkada to‘lanadi;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanmagan hududlarda yoki davlat siyosatiga muvofiq ustuvorlik berilgan hududlarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar shaklidagi turizm faoliyati subyektlari 3 yil muddatga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi;

- qishloq joylarida yangi tashkil etilgan va qishloq aholisi mehnatini jalb qiladigan turizm faoliyati subyektlari 10% stavkada yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash belgilangan bo‘lsa, an’anaviy hunarmandchilikni saqlash nuqtai nazaridan zarur bo‘lgan korxonalarni 3 yil muddatga mazkur soliqni to‘lashdan ozod qilinadi.

Bu orqali, Xitoy hukumati tomonidan tadbirkorlik faoliyatini ochish va yuritishni rag‘batlantirish orqali tegishli hududlarda ish o‘rnini yaratish, qo‘shilgan qiymatni yaratish orqali yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish ta’minlanadi.

Daniyada 1978 yildan e’tiboran belgilangan alohida hududlardagi joylashtirish vositalari, mehmon uylari va qisqa muddatli ijara uylari asosida faoliyat ko‘rsatiladigan joylashtirish vositalarining xizmatlari bo‘yicha QQS 75% gacha kamaytirilgan stavkada undiri-

ladi. Bu orqali o'sha hududlardagi turizm xizmatlarining narxini tushirish hamda xorijiy va ichki turistlar tashrifini ko'paytirishga sharoit yaratishdan iboratdir. Ushbu soliq mexanizmi orqali esa turizmning multiplikativ samarasidan foydalanib hududda yondosh bo'lgan sohalarda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Polshada esa 1995 yildan e'tiboran qishloq hududlarida mehmon uylarini ijaraga berishdan tushgan tushumdan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish tartibi joriy qilingan. Unga ko'ra, qishloq joylarida dam olish uchun xonalar soni 5 tadan oshmaydigan mehmon uylarini ijaraga berishdan olinadigan daromad yuqorida sanab o'tilgan soliqlardan ozod qilinadi. Mazkur rejimdan foydalanish uchun quyidagi shartlarni bajarilishi talab etiladi:

- ko'rsatilayotgan xizmatlar binolarni (xonalarni) ijaraga berish bilan bog'liq bo'lishi;
- ijaraga beriladigan binolar (xonalar) qishloq hududida joylashgan bo'lishi va turar-joy binolari bo'lishi;
- ijara xizmati qishloq hududidagi mahalliy aholi tomonidan tashkil qilinishi;
- ijaraga berilgan xonalar soni beshtadan oshmasligi.

Shu orqali qishloqlarda agroturizmni rivojlantirishni rag'batlantirish, qishloq hududidagi mahalliy aholiga o'z uylari va mulki negizida tashkil qilingan mehmon uylariga tashrif buyurganlar uchun joylashtirish xizmatini ko'rsatish va oziq-ovqatni sotishdan qo'shimcha daromad olishlariga imkon berishga qaratilgan. Bu orqali esa byudjetning soliq xarajatlari hisobiga joylarda aholini o'zini o'zi band qilish hamda turmush tarzini yaxshilash bo'yicha harakat qilishi ta'minlanadi. Bir vaqtning o'zida hududda soliq to'lovchilar va ularning soliq bazalari kengayishiga olib keladi.

Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasi subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning mahsulot va xizmatlari narxlarini tushirishga imkon berish orqali raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida zamonaviy soliq mexanizmlari taqdim etiladi. Jumladan, turizm sohasi subyektlari uchun QQS pasaytirilgan yoki “nol” stavkada qo‘llash orqali ushbu maqsadlarga erishish ko‘zda tutiladi.

2015 yilda 140 tadan ortiq mamlakatlarda QQS amalda bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib mazkur egri soliq joriy qilingan mamlakatlarning soni 166 taga etdi<sup>51</sup>.

Xorijiy mamlakatlarda QQSni tadbiq qilinishining tahliliga ko‘ra, mazkur soliq tovarlar va xizmatlar uchun umumiy stavkaga ega bo‘lsada, 70 tadan ortiq mamlakatlarda mazkur soliq joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish nuqtalari, transport, turoperator xizmatlari kabi turizm sohasi bilan bog‘liq faoliyat turlari uchun pasaytirilgan yoki “nol” stavkada qo‘llaniladi.

Avstriyada joylashtirish vositalari, Kolumbiya, Boliviya, Barbados kabi davlatlarda turoperatorlar uchun QQS “nol” stavkada qo‘llanilsa, mazkur tartib Isroilda joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish shahobchalari va turoperatorlarga tatbiq etilgan. Buyuk Britaniya, Baxreyn, Bolgariya, Daniya, Janubiy Afrika, Malta, Filippin kabi mamlakatlarda yo‘lovchi transport xizmatlari uchun QQS “nol” stavkada belgilangan.

Xususan, joylashtirish vositalari uchun QQS stavkasi Avstriyada 10% dan 0% ga, Vengriyada 18% dan 5% ga, Ruminiyadan 9% dan 5% ga, Slovakiyada 20% dan 10% ga pasaytirilgan bo‘lsa, umumiy

---

<sup>51</sup> Consumption Tax Trends 2018: VAT/GST and excise rates, trends and policy issues. Consumption Tax Trends. Secretary-General of the OECD. 2018. doi:10.1787/ctt-2018-en



ovqatlanish shahobchalari uchun 52,27% dan 5% ga, Portugaliyada - 23% dan 13% ga, Ruminiyada 24% dan 5% ga kamaytirilgan.

Shuningdek, bir qator mamlakatlarda joylashtirish vositalari va umumiy ovqatlanish shahobchalari kabi turizm sohasi subyektlariga qoʻllaniladigan QQS stavkasi yilma-yil kamayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining 39 ta aʼzo mamlakatlarining 28 tasida joylashtirish vositalari va umumiy ovqatlanish shahobchalari uchun pasaytirilgan QQS stavkalari qoʻllanilsa, ulardan 11 tasida 2013 yilga nisbatan 2020 yilda QQS stavkalari kamaygan (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

**Mamlakatlarning soliq tizimida turizm sohasi subyektlari uchun qoʻshilgan qiymat soligʻi stavkalrining qoʻllanilishi<sup>53</sup>**

(foiz hisobida)

Mamlakat	2013 yil 1 yanvar			2020 yil 1 yanvar		
	Standart stavka	Joylashtirish vositalari	Umumiy ovqatlanish nuqtalari	Standart stavka	Joylashtirish vositalari	Umumiy ovqatlanish nuqtalari
1. Avstriya	20	10	10	20	0	10
2. Belgiya	21	6	12	21	6	12
3. Vengriya	27	18	27	27	5	5
4. Germaniya	19	7	19	19	7	19
5. Gretsiya	23	6,5	13	24	13	13
6. Irlandiya	23	9	9	23	13,5	13,5
7. Islandiya	25,5	7	7	24	11	11
8. Isroil	18	0	18	17	0	17
9. Ispaniya	21	10	10	21	10	10
10. Italiya	21	10	10	22	10	10
11. Latviya	21	12	21	21	12	21
12. Litva	21	21	21	21	9	21
13. Lyuksemburg	15	3	3	17	3	3

<sup>52</sup> AvalaraVATLive, International VAT and GST rates for 2020. <https://www.avalara.com/vatlive/en/vat-rates/international-vat-and-gst-rates.html>

<sup>53</sup> Jadvalda Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Yevropa komissiyasi, “KPMG” va “AvalaraVATLive” axborot portallari maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan. AvalaraVATLive, International VAT and GST rates for 2020. <https://www.avalara.com/vatlive/en/vat-rates/international-vat-and-gst-rates.html>

14. Niderlandiya	21	6	6	21	9	9
15. Norvegiya	25	8	15	25	6	25
16. Polsha	23	8	8	23	8	8
17. Portugaliya	23	6	23	23	6	13
18. Ruminiya	24	9	24	19	5	5
19. Sloveniya	22	9,5	9,5	22	9,5	9,5
20. Frantsiya	19,6	7	7	20	10	10
21. Finlyandiya	24	10	14	24	10	14
22. Xorvatiya	25	10	10	25	13	13
23. Chexiya	21	15	21	21	10	15
24. Shveysariya	8	3,8	8	7,7	3,7	7,7
25. Shvetsiya	25	12	12	25	12	12

Bundan tashqari, bir qator mamlakatlarda QQS ning pasaytirilgan stavkalarini joylashtirish vositalari va umumiy ovqatlanish shahobchalari uchun qo'llash bilan bir qatorda boshqa turizm bilan bog'liq faoliyatlarga nisbatan ham qo'llanilmoqda. Jumladan, yo'lovchi transporti xizmatlari (Avstriya, Chexiya, Frantsiya, Gretsiya va Polsha) hamda teatrlarga, muzeylarga va boshqa o'ziga xos diqqatga sazovor turistik obyektlar tomonidan ko'rsatiladigan asosiy xizmatlarni alohida ko'rsatish mumkin.

Irlandiya misolida ekskursionlar uchun ijaraga olingan va turistlar tomonidan yollangan litsenziyalangan transport vositalari uchun turistik guruh xizmatlari QQSdan ozod qilingan bo'lsa, Gretsiya misolida QQSdan diqqatga sazovor joylar, turistik namoyishi obyektlari xizmatlari (teatr, muzeylar, yodgorliklar va arxeologik joylar) ozod qilingan.

Evropa Ittifoqining 2006 yil 28-noyabrdagi 2006/112/ES-sonli direktivasining 3-ilovasi 93-130-moddalariga ko'ra, Yevropa Ittifoqining a'zo davlatlarida QQS stavkasini 15% dan 25% gacha belgilashlari lozim. Shuningdek, a'zo mamlakatlarda xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida adolatsiz raqobat xavfi yo'qligini baholash asosida joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish kabi ba'zi yuqori ish kuchi

talab qilinadigan 2 tadan ortiq bo‘lmagan faoliyat turlari uchun QQS stavkasini 5% dan 15% gacha bo‘lgan oraliqda kamaytirish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Avstriya, Frantsiya, Germaniya, Islandiya, Irlandiya, Latviya, Portugaliya va Shvetsiya mamlakatlarida turizm bilan bog‘liq faoliyat turlari uchun QQSning pasaytirilgan stavkasini joriy etishdan asosan sohada yangi ish o‘rinlari yaratish, sohani rivojlanish va o‘shishni qo‘llab-quvvatlash ko‘zlanadi.

Mazkur mamlakatlarda QQSning pasaytirilgan stavkasi joriy etilgandan so‘ng belgilangan maqsadlarga erishilganligini aniqlash uchun soliq samaradorligi muntazam ravishda monitoring qilinadi va baholab boriladi. Xususan, Shvetsiyada umumiy ovqatlanish shahobchalarida QQS stavkasini pasaytirish natijasida iste’mol narxlari, talab va ish soatlariga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish asosida baholab boriladi. Dastlabki baholash natijalariga ko‘ra, mazkur tartib joriy qilingandan keyin narxlarning 4% ga pasayishi, 3% ga talabning o‘shishi va 3% ga ishlangan soatlarning ko‘payishi kuzatilgan<sup>54</sup>.

Ushbu tartibning samaradorligini baholash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahliliga ko‘ra, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo‘yicha yagona metodologiya mavjud emas, amaliyotda soliq xarajatlari va xarajat-foyda usullari keng qo‘llaniladi.

Xalqaro byudjet hamkorligi tashkiloti (The International Budget Partnership) ma’lumotlariga ko‘ra, Argentina, Chili, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Gvatemala, Hindiston, Yamayka, Iordaniya, Keniya, Livan, Malayziya, Marokash, Nepal, Pokiston, Peru, Filippin, Rossiya, Serbiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Shri Lanka, Tanzaniya kabi mamlakatlarda qo‘llanilgan soliq tartiblarining samaradorligini

---

<sup>54</sup> OECD (2014), OECD Tourism Trends and Policies 2014, OECD Publishing, [http://dx.doi.org/10.1787/tour-2014-en\\_IMF](http://dx.doi.org/10.1787/tour-2014-en_IMF), OECD, UN and World Bank (2017) Options for low income countries’ effective and efficient use of

baholash soliq xarajatlari usulida olib boriladi va hamda doimiy ravishda soliq xarajatlari e'lon qilinib boriladi<sup>55</sup>.

AQShning har bir shtati o'zining alohida soliq samaradorligini baholash metodologiyasi mavjud bo'lib, ko'zlangan maqsad va qo'llanish sohasiga ko'ra farqlanadi<sup>76</sup>. Buyuk Britaniyada esa soliq samaradorligi yuqorida keltirilgan usullar jamlanmasidan tarkib topgan integral tahlil usuli asosida davlat organi bilan bir qatorda xususiy tashkilotlar tomonidan ham baholab boriladi.

---

<sup>55</sup> Joint Legislative Audit and Review Committee in Washington State, the USA. Available at: <http://leg.wa.gov/larc/Pages/aboutlarc.aspx> tax incentives for investment. A Report to the G-20 Development Working Group by the IMF, OECD UN and World Bank, <https://www.oecd.org/tax/options-for-low-income-countries-effective-and-efficient-use-of-tax-incentives-for-investment.htm>

## **II BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH HOLATI VA SOLIQ ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI**

### **2.1-§. Turistik joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi turizm faoliyati subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2021 – 2023 yillarda mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022 yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo‘shimcha 1,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjudligi, turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilanishi sifatida o‘tgan davr mobaynida turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirildi<sup>56</sup>.

Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko‘tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko‘paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta‘minlash va ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida 2022 yil 1 iyundan boshlab «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!»

---

<sup>56</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/5840284>

dasturi doirasida jamoa shartnomalariga ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun yiliga bir marotaba mahalliy sayohatga chiqish imkonini yaratish qoidalari kiritildi.

Shuningdek, 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ya’ni mahalliy turistlar uchun «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish «Cashback» tartibini joriy etildi. Ushbu yangi tizimga muvofiq sayohat xarajatlarini qaytarish ichki sayohatlarni rejalashtirish va mablag‘larni qaytarish hamda «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida taqdim qilinadigan chegirmalar, tayyor turistik paketlarni mustaqil shakllantirishni nazarda tutuvchi elektron platforma, shu jumladan uning mobil ilovasi orqali amalga oshirilganda, sayohat xarajatlarini qaytarish sayohat qilish davomida bir vaqtning o‘zida ya’ni, avia, temir yo‘l va avtomobil transportidan foydalanilsa shuningek, joylashtirish vositalari xizmatlaridan foydalanilsa va madaniyat tashkilotlariga tashrif buyurganda xarajatlarining bir qismi qaytarib beriladi.

Sayohat xarajatlarini qaytarish har bir turistga quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

- aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

- temir yo‘lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

- joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so‘mdan oshmagan miqdorda;

- teatr, muzey, tsirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda xisoblanadi.

Sayohat xarajatlari faqatgina Platforma orqali amalga oshirilgan ichki sayohatlar uchun uning yakuni bilan mahalliy turistlarning bank kartalariga qaytariladi. Platforma Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi (soliq.uz) bilan integratsiya qilingan holda, xarajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, xarid chekining matritsali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko‘rsatish orqali sayohatlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatga keluvchi xorijiy turistlar va mamlakat bo‘ylab sayohat qiluvchi mahalliy turistlar sonining ortishi turizm xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirdi, bu esa, o‘z navbatida tadbirkorlik subyektlarini mazkur sohaga investitsiya kiritishiga rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida xizmat qildi.

Shunga qaramasdan, o‘tgan davr mobaynidagi turizm sohasidagi turizm xizmatlariga bo‘lgan talab va taklif holatining tahliliga ko‘ra, mamlakatda 2017 – 2019 yillarda yuzaga kelgan turizm xizmatlari bozoridagi talabning o‘sishi taklifning o‘shidan yuqori sur‘atlarda davom etdi.

Xususan, mazkur davrda mamlakatga kelgan xorijiy turistlar soni yiliga 32,7% dan 2 barobargacha oshgan bo‘lsa, joylashtirish vositalaridagi xonalar soni esa 2017 yilda 3;8%, 2018 yilda 8% va 2019 yilda 29,3% gacha o‘sib borgan. 2016 yilda joylashtirish vositalarining 1 ta xonasiga 112 nafar xorijiy turist to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib 1 ta xonaga 256,7 nafar xorijiy turist to‘g‘ri kelgan. Ichki turistlarni inobatga olganda esa bu ko‘rsatkich yanada oshadi.

Joylashtirish vositalarining tarkibi milliy qonunchilik hujjatlari-da ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasiga ko‘ra, joylashtirish vositalari mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualarni, dam olish uylari va zonalarini, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uy-

larini, o‘tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylarni hamda mehmonxonalar xizmatlari (joylashtirish bo‘yicha xizmatlar) ko‘rsatiladigan boshqa obyektlarni, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan er usti transporti kabi turlarni o‘z ichiga oladi<sup>57</sup>.

Mamlakatda yuqorida sanab o‘tilgan joylashtirish vositalaridan mehmonxonalar, xostel va oilaviy mehmon uylari keng rivojlangan turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, oilaviy mehmon uylari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 631-son Qarori qabul qilingandan keyin jadal rivojlana boshladi. Xususan, 2018 yilning so‘nggiga qadar 106 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etilgan bo‘lsa, 2019 yil oxiriga kelib ularning soni 886 taga etdi.

Oilaviy mehmon uylari sonining keskin oshishiga mazkur qaror bilan oilaviy mehmon uylarini tashkil qilishda sertifikat olish talabining bekor qilinganligi hamda mazkur faoliyat bilan shug‘ullanishda yuridik shaxs tashkil etmasdan qat’iy belgilangan soliq to‘lovini to‘lash huquqi berilganligi asosiy omillardan bo‘ldi.

Joylashtirish vositalarining rivojlanishi va mazkur faoliyat bilan shug‘ullanishga xususiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya va tadbirkorlik muhiti bilan bir qatorda soliqqa tortish tizimi ham muhim o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, joylashtirish vositalarini soliqqa tortish tizimini ko‘rib chiqsak.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga asosan, turizm sohasi subyektlari yuridik shakli va daromad hajmiga bog‘liq ravishda umumiy belgilangan soliqlar bilan bir qatorda foyda solig‘i, daromad solig‘i, aylanmadan

---

<sup>57</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/4428097>



olinadigan soliq yoki qat'iy belgilangan stavka qo'llanilgan holda soliqqa tortiladi.

Shu bilan birgalikda, joylashtirish vositalarining ma'lum yuridik shaklda faoliyat yuritishida xodimlarni yollash bo'yicha cheklov va huquqlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 219-sonli qarorning 1-ilovasi va Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati" ga ko'ra, oilaviy mehmon uylari va xostellarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etishda xususiy tadbirkorlar tomonidan yollanadigan xodimlarning cheklangan soni 2 tani tashkil etadi.


Bunda, xususiy tadbirkor (xodimlarni yollashni bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan xususiy tadbirkor), faoliyatning turlari sonidan qat'i nazar, uch nafardan ko'p bo'lmagan xodimlarni yollash huquqiga ega<sup>58</sup>.

Joylashtirish vositalaridan mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari (turistik baza va majmua, dam olish uyi va zonasi, pansiyonat, kemping, motel, sanatoriy) faoliyati sertifikatlanishi sababli faqat yuridik shaxs sifatida, xostel, joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan er usti transporti, o'tov va chodirli oromgohlar faoliyatini esa barcha yuridik shakllarda hamda oilaviy mehmon uylarini yuridik shaxs tashkil etmasdan yuritish mumkin<sup>59</sup> (2.1.1-rasm).

---

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 219-sonli qarorning 1-ilovasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/2715039>

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi



### 2.1.1-rasm. Joylashtirish vositalarining yuridik shakli bo'yicha farqlanishi<sup>60</sup>

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, 2.1.1-rasmda sanab o'tilgan yuridik shaxs tashkil etib faoliyati yo'lga qo'yiladigan joylashtirish vositalari daromad hajmiga ko'ra ikki xil usulda soliqqa tortiladi.

Agar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 1 milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritayotgan kishi joylashtirish vositalari 4% stavkada aylanmadan olinadigan soliq va boshqa o'rnatilgan soliqlarni to'lovchisi hisoblanadi. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi 1 mlrd, so'mdan oshsa joylashtirish vositalaridan 15% stavkada foyda solig'i hamda o'rnatilgan tartibda boshqa soliq to'lovlar undiriladi (2.1.1-jadval).

mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/1727490>.

<sup>60</sup> Jadval O'zbekiston Respublikasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

## 2.1.1-jadval

### Yuridik shaxs tashkil etilgan holda turistik faoliyatni yo'lga qo'ygan joylashtirish vositalari uchun soliqlar va ularning stavkalari<sup>61</sup>

Joylashtirish vositalari turi	Daromad hajmi	Soliq turlari				
		Foyda solig'i/ aylanmadan soliq (AOS)	Mol-mulk soliq'i	Er solig'i	QQS	Ijtimoiy soliq
<i>2023 yil uchun</i>						
<b>Mehmonxona xostel va boshqa joylashtirish vositalari</b>	daromadi 1 mlrd soʻmdan oshganda	15%	1,5%	er maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	12%	12%
	daromadi 1 mlrd soʻmdan oshmaganda	4% (AOS)				

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi asosida milliy soliq tizimiga, xususan joylashtirish vositalarini soliqqa tortish tartibiga o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur o'zgarishlar natijasida esa joylashtirish vositalariga bo'lgan soliq yukining oshishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovchilari hisoblanardi. Iqtisodiy faoliyat turlarining tasnifi<sup>62</sup>ga asosan esa mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga yillik o'rtacha xodimlar soni 1 – 10 nafarni tashkil etsa mikrofirma, 11 – 100 nafar bo'lsa kichik korxonalar sifatida faoliyat yuritishi belgilangan.

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-hududiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>62</sup> Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/3019920>

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 208-moddasida o‘n beshinchi qismida sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari hamda turistik-ekskursiya xizmatlari QQSdan ozod qilingan edi. Bunda, turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko‘rsatish uchun yo‘llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kirishi, shuningdek barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko‘rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doyr xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo‘lishi belgilangan edi.

Shundan kelib chiqqan holda, 2019 yilgacha yuridik shaxs sifatida faoliyat yurituvchi joylashtirish vositalari xodimlarining soni 100 nafargacha bo‘lganda yagona soliq to‘lovchisi, xodimlar soni 100 nafardan oshgan taqdirda ham QQS solig‘idan ozod qilingan edi. Mazkur soliq tartibi asosida yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritgan joylashtirish vositalariga tushgan sof soliq yukining miqdori (soliq stavkalari yig‘indisi) 20 – 34% ni tashkil qilgan (2.1.2-jadval).

2019 yilning 1 yanvaridan va 2020 yilning 1 apreldan kuchga kirgan yangi soliqqa tortish tartiblariga muvofiq, joylashtirish vositalarini soliqqa tortish usullari yillik o‘rtacha xodimlar sonidan kelib chiqib emas, ularning daromadlari hajmidan kelib chiqib tasniflanadigan bo‘ldi. Shuningdek, QQS bo‘yicha imtiyozlar mehmonxona va boshqa xizmatlarni qamrab oluvchi turistik-ekskursiya xizmatlari uchun bekor qilinib, joylashtirish vositalarining soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmasa 10% stavkada, agar mazkur miqdordan oshsa 15% miqdorida QQS undirilishi belgilandi.

## 2.1.2-jadval

### O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati joylashtirish vositalariga bo‘lgan ta‘siri<sup>63</sup>

Daromad hajmi / xodimlar soni	Soliq turlari					Sof soliq yuki
	Foyda soligi / Aylanmadan olinadigan soliq (AOS)	Mol-mulk solig‘i	Er solig‘i	QQS	Ijtimoiy soliq	
<b>Yuridik shaxslar</b>						
<b>2022 yil</b>						
<i>daromadi 1 mlrd so‘mdan oshmaganda</i>	4 % (AOS)	1,5 %	Er maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	15 %	12 %	33 % <
<i>daromadi 1 mlrd so‘mdan oshganda</i>	15 %					44 % <
<b>2019 yil</b>						
<i>daromadi 1 mlrd so‘mdan oshmaganda</i>	4 % (AOS)	-	-	10 %	12 %	26 % <
<i>daromadi 1 mlrd so‘mdan oshganda</i>	12 %	2%	2 %	20 %		48 % <
<b>2018 yil</b>						
<i>Xodim soni 100 nafardan oshmaganda</i>	5 % (AOS)	-	Ozod qilingan	-	15 %	20 % <
<i>Xodim soni 100 nafardan oshganda</i>	14 %	5 %	Er maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	-		34 % <

QQS bo‘yicha imtiyoz faqatgina sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari uchun saqlanib qolindi<sup>64</sup>. Bunda, sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari,

<sup>63</sup> Jadval O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 243-moddasi.

bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'iy nazar, yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi.

Soliq tizimidagi mazkur o'zgarishlar natijasida joylashtirish vositalariga bo'lgan sof soliq yuki 33 – 44% gacha oshishiga olib keldi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni quyidagi tartibda to'laydi (2.1.3-jadval):

### 2.1.3-jadval

#### **Yuridik shaxs tashkil etmasdan xususan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatni yo'lga qo'yilgan joylashtirish vositalari uchun soliq munosabatlari<sup>65</sup>**

T/r	Realizatsiya tushumlari miqdori	Soliq turi	Soliq stavkasi	Soliqlarni to'lash tartibi
<b>2023 yil uchun</b>				
1	100 mln. so'mgacha	Jismoniy shahslardan olinadigan daromad solig'i	12 % yoki qat'iy miqdordagi summada	Soliqlarni yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida yoki qat'iy belgilangan miqdordagi summada to'lashni tanlashi mumkin
2	100 mln. so'mdan 1 mlrd, so'mgacha	Aylanmadan olinadigan soliq yoki QQS va foyda solig'i	4 % yoki 12 %	100 mln.so'mdan oshgan summadan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi yoki QQS va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy o'tishi mumkin
3	1 mlrd.so'mdan ortiq	QQS va	12 %	QQS va foyda solig'ini to'lashga o'tadi
		Foyda soligi		yoki foyda solig'i tartibida to'lashni tanlashi mumkin

<sup>65</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

a) kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar daromad solig‘ini ikki xil usulda:

- har oyda qat’iy belgilangan mikdorlardagi soliqni to‘lashi;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan haqiqiy daromadi bo‘yicha ushbu daromadlarni olish bilan bog‘liq xarajatlar summasini chegirib tashlagan holda doimiy yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirish yo‘li bilan daromad soligini to‘lashi mumkin.

b) kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 million so‘mdan oshgan biroq 1 milliard so‘mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni (avvalgi yagona soliq to‘lovi) to‘lashga o‘tkaziladi.

Bunday tadbirkorlar ham ikki xil usulda soliqlarni to‘lashni tanlashi mumkin:

- kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so‘mdan oshganda, oshgan summadan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashi;

- kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so‘mdan oshganda, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lash o‘rniga ixtiyoriy tarzda qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashni tanlashi mumkin.

v) kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 1 mlrd, so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to‘lashga o‘tadi.

Shuningdek, soliqlarni yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga foyda solig‘ini hisoblab chiqarishning ixchamlashgan tartibini tanlash huquqi berildi.

Yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq yuqorida keltirilgan soliqqa tortish tartiblari asosida joylashtirish vositalarining daromadi oshgan sari ularga bo‘lgan soliq yuki ham ortib borish xarakteriga ega.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, joylashtirish vositalari faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan yo‘lga qo‘yish tajribasi 2018 yilning sentyabr oyidan boshlab oilaviy mehmon uylari uchun tatbiq qilina boshlandi, ular qat’iy belgilangan stavkada soliq to‘lashlari belgilandi<sup>66</sup>. Bungacha faqat yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritish mumkin edi.

Oilaviy mehmon uylari xizmatlarini amalga oshiruvchi xususiy tadbirkorlar yoki oilaviy tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovar va xizmatni realizatsiya qilishdan tushgan tushumi 100 mln. so‘mgacha bo‘lganda qat’iy belgilangan soliq to‘lovlarini to‘laydi<sup>67</sup>.

Oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkor har oyda bazaviy hisoblash miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda ijtimoiy soliq to‘lovni to‘laydi.

2018 yilda joylashtirish vositalari Iqtisodiy faoliyat turlarining tasnifi<sup>68</sup>ga asosan yillik o‘rtacha xodimlar soni 1 – 10 nafarni tashkil etsa mikrofirma, 11 – 100 nafar bo‘lsa kichik korxonalar sifatida faoliyat yuritishini inobatga olgan holda asosiy ko‘rsatkichlar hisoblangan

---

<sup>66</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 631-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/3857179>

<sup>67</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 9-ilovasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <https://www.lex.uz/docs/4131684>

<sup>68</sup> Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/3019920>



bo'lsa, 2020 yil uchun daromadlar hajmiga muvofiq joylashtirish vositalari toifalanib ko'rsatkichlari o'rganildi.

O'rganish natijasiga ko'ra, 2018 yilda soliqqa tortish tartibi asosida yiliga o'rtacha 100 nafar xodim va 1 mlrd, so'mgacha daromadga ega bo'lgan joylashtirish vositalari sof foydasining jami tushumdagi ulushi 25% ni hamda soliq yuki 8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda esa yangi tartib bo'yicha ularning faoliyat rentabelligi 15% ga kamaygan (10%) va ularga bo'lgan soliq yuki 15% ga ortib 23% ni tashkil qilgan.

Yiliga o'rtacha 100 nafardan ko'p xodimlar va 1 mlrd, so'mdan ortiq daromadga ega bo'lgan joylashtirish vositalari faoliyatining rentabelligi 2018 yilda 36% ni hamda soliq yuki 13% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda esa mos ravishda 22% va 26% ni tashkil qilgan.

Tahlil qilingan mehmonxonalarning faoliyat rentabelligining kamayishi va soliq yukining oshishiga ta'sir qilgan asosiy omillar sifatida:

- soliq davridagi daromadi 1 mlrd, so'mgacha bo'lgan mehmonxonalar uchun 5% stavkadagi yagona soliq to'lovi o'rniga 4% lik aylanmadan olinadigan soliq hamda mulk solig'i va er solig'ining joriy qilingani;

- soliq davridagi daromadi 1 mlrd, so'mdan ortiq bo'lgan mehmonxonalar uchun foyda solig'ining 14% dan 15% ga va er solig'ining oshganligi hamda QQSning joriy qilinganligi bilan izohlash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mehmonxona xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilishda tegishli standart talablariga javob beradigan binolar, ko'chmas mulklar talab qilinishi sababli mehmonxona xo'jaliklarida mulk solig'ining (agar ijaraga olinsa, ijara to'lovining) salmog'i yuqori bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, mehmonxona xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tekstil mahsulotlari, sanitar-gigienik va tozalovchi vositalarni talab qiladi hamda bugungi kunda ularning aksariyati QQS to'lovchilari hisoblanmaydi. Shu sababli, xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, QQS stavkasini maqbul darajagacha pasaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## **2.2-§. Boshqa faoliyat turidagi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish mexanizmi tahlili**

Xalqaro turizm mahsuloti va xizmatlarining iste'molchilari qaror qabul qilishlarida ularning narxi asosiy omillardan biri hisoblanadi<sup>69</sup>. Mazkur omil, ayniqsa, iste'molchilarning iqtisodiy holatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli inqiroz holatlarida turizm mahsulotini tanlashda eng muhim omilga aylanadi.

Turizmni milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini inobatga olgan holda xalqaro turizm bozoridagi raqobatda ustunlikka ega bo'lish uchun mamlakatlar tomonidan turizm mahsulotlari sifatini tushirmagan holda ularning narxini pasaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bir yildan ortiq vaqt davomida davom etayotgan koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda yuzaga keladigan xalqaro turizm bozorida narx va sifat jihatidan raqobatbardosh turizm mahsulotlarini taklif qilish uchun ularda fiskal instrumentlarni o'z ichiga olgan dasturlar qabul qilingan.

Mazkur jihatni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasida ko'rsatiladigan turizm xizmatlarini o'zida jamlovchi turizm mahsulotlari (8 kunduz va 7 kecha uchun turpaket) narxini Gruziya, Isroil, Turkiya,

---

<sup>69</sup> WTTC Taxation Policy Task Force Case Studies. (2004). Principles of Intelligent Taxation, East Lansing: The World Travel & Tourism Tax Policy Center, [traveltax.msu.edu/taskforce/case3jprincipals.htm]

Ozarbayjon, Qozog‘iston kabi bir qator mamlakatlarda taklif etilayotgan turizm mahsulotlari narxlari bilan qiyosiy o‘rganildi.

Unga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasi turizm bozorida taklif etilayotgan O‘zbekistonda ko‘rsatiladigan turizm mahsulotlarining narxi Ozarbayjon turizm mahsulotlariga qaraganda 23% ga, Gruziya turizm mahsulotlariga nisbatan 49% ga, Turkiya va Ispaniya turizm mahsulotlaridan esa 54% ga qimmatni tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda ko‘rsatiladigan turizm mahsulotlari Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Qirg‘iziston turizm mahsulotlaridan 22% va Gruziya turizm mahsulotlaridan 41% ga qimmat narxlarda taklif etilmoqda. Indoneziya turizm mahsulotlari esa O‘zbekistonga nisbatan 8 ming.km uzoqroqda joylashgan bo‘lishiga qaramasdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari turizm bozorida O‘zbekiston turizm mahsulotlariga qaraganda 2 barobar arzonroq taklif etilmoqda.

O‘zbekiston turizm mahsulotlari boshqa mamlakatlardagiga nisbatan qimmat narxlarda taklif etilayotganligi sabablarini aniqlash uchun turizm mahsuloti tarkibiga kiruvchi turizm xizmatlarini qiymatlashuviga olib keluvchi omillarni atroflicha o‘rganishni talab qiladi.

Turizm operatorlari (turoperatorlar) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar hamda ularning rasmiy veb-sahifasi va turizm mahsulotlarini sotuvchi maxsus savdo platformalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida kirish turizmi<sup>70</sup> va ichki turizm<sup>71</sup> bo‘yicha turizm mahsulotlarining tarkibiy turizm xizmatlari ulushi o‘rganildi (2.2.1-jadval).

---

<sup>70</sup> Kirish turizmi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati (O‘RQ-549-son, 18.07.2019).

<sup>71</sup> Ichki turizm O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati (O‘RQ-549-son, 18.07.2019).

## 2.2.1-jadval

### O‘zbekiston Respublikasida ichki va kirish turizmdagi turizm mahsuloti tarkibidagi xizmatlarning ulushi<sup>72</sup>

Tarkibiy turizm xizmati turlari	Turizm mahsuloti qiymatidagi xizmatlar ulushi	
	Ichki turizm mahsuloti	Kirish turizmi mahsuloti
Mehmonxona (joylashtirish) xizmati	37	15
Transport xizmatlari	25	60
Ovqatlanish xizmatlari	20	10
Ekskursiya xizmati	9	6
Turoperator xizmati	9	9
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Unga ko‘ra, ichki turizm bo‘yicha turizm mahsulotlari qiymatining asosiy ulushi mehmonxona xizmatlari (37%), transport xizmatlari (25%) va ovqatlanish xizmatlarini (20%) tashkil qilsa, kirish turizmi bo‘yicha turizm mahsulotlari qiymatining asosiy qismi transport xizmati (60%), mehmonxona xizmatlari (15%) va ovqatlanish xizmatlari (10%) tashkil qiladi. Bunda, eng ko‘p foydalanilgan transport vositalari nuqtai nazaridan ichki turizmdagi transport xizmatlarida avto-transport va temir yo‘l transporti orqali ko‘rsatilgan xizmatlar narxi hisobga olingan bo‘lib, kirish turizmida havotransport xizmatlari hisoblangan.

Ichki va kirish turizmdagi turizm mahsuloti qiymatida turoperatorlar xizmatining ulushi 9% ga ega bo‘lishiga qaramasdan turoperator turizm xizmatlarini bir mahsulot sifatida shakllantiruvchi va uni reklamasi asosida realizatsiya qiluvchi, ya’ni turizm mahsuloti ta’mi-

<sup>72</sup> Jadval tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

not zanjirini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi subyekt hisoblanadi.

Mahsulot (ish va xizmat) narxiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar soliq yuki, resurslar ta'minoti va etarligi hamda raqobat muhiti ekanligini inobatga olgan holda turizm mahsulotining asosiy qismini tashkil qiluvchi mehmonxona, transport va ovqatlanish xizmatlarini, shuningdek turizm mahsulotini shakllantiruvchi turoperator xizmatini ko'rsatuvchi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlarini tadqiq etish zaruriyati yuzaga keladi.

Ushbu bobning 2.1-qismida mehmonxona xizmatini ko'rsatuvchi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, mazkur qismda umumiy ovqatlanish korxonalarini, turoperatorlar va transport tashkilotlarini soliqqa tortishning maxsus xususiyatlari ko'rib chiqiladi.


Milliy qonunchilik hujjatlariga muvofiq, umumiy ovqatlanish sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyekt, bu umumiy ovqatlanish sohasida kulinariya, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, sotish va iste'mol qilishni tashkil etish hamda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha funktsiyalarni bajaruvchi yuridik shaxsdir. Shu bilan birgalikda, umumiy ovqatlanish sohasida uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan maxsus ajratiladigan joylarda ovqatlanish joylari tashkil etmasdan donali taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanish mumkin<sup>73</sup>.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini belgilangan talablar asosida mulkdor deb belgilanadigan restoran, vagon-restoran, bar, kafe, yozgi

---

<sup>73</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/243235#1071215>

kafe, kafeteriy, oshxona, choyxona, bufet va kichik oshxona turlariga bo‘linadi. Ularning soni 2018 – 2020 yillarda 50% ga, ya’ni 2018 yildagi 18,3 mingdan 2020 yilda 27,4 mingtacha ko‘paydi (2.2.1-rasm).



**2.2.1-rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarini soni<sup>74</sup> (ming)**

Umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tartibi ularning daromadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Xususan, soliq davrida ularning daromadi 1 mlrd, so‘mdan oshsa, umumiy o‘rnatilgan soliq-larni (foyda, mulk, ijtimoiy, er, qo‘shilgan qiymat soliqlari) to‘laydi.

Soliq davrida umumiy ovqatlanish korxonalarining daromadi 1 mlrd, so‘mdan oshmasa, umumiy ovqatlanish korxonalarini foyda solig‘i o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq (AOS) to‘laydi. Bunda, ular uchun joylashgan joyiga qarab soliq stavkalari tabaqalashtirilgan bo‘lib, aholi soni 100 ming kishi va undan ortiq bo‘lgan shaharlarda 8%, boshqa aholi punktlarida 6%, borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda 4% qilib belgilangan (2.2.2-jadval).

<sup>74</sup> Mazkur rasm Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

## 2.2.2-jadval

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish<sup>75</sup>

Daromad hajmi	Soliq turlari				
	Foyda solig‘i/ aylanmadan soliq	Mol-mulk solig‘i	Yer solig‘i	QQS	Ijtimoiy soliq
<b>2022 yil uchun</b>					
daromadi 1 mlrd so‘mdan oshganda	15 %	1,5 %	yer maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	15 %	12 %
daromadi 1 mlrd so‘mdan oshmaganda	4 – 8 % stavkada aylanmadan olinadigan soliq				

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoniga asosan, 2019 yilning 1 yanvaridan soliq davrida daromad miqdori 1 mlrd.so‘mdan oshgan umumiy ovqatlanish vositalari QQS to‘lashi belgilandi.

## 2.2.3-jadval

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun soliq stavkalari va soliq yuki dinamikasi<sup>76</sup> (foizda)

	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Yagona soliq to‘lovi	10	10	10	10	0	0	0	0	0
Aylanmadan soliq	0	0	0	0	4	4	4	4	4
QQS	0	0	0	0	20	15	15	15	12
Ijtimoiy soliq	0	0	0	0	15	15	12	12	12
Foyda solig‘i	0	0	0	0	12	15	15	15	15
Soliq yuki	10	10	10	10	51	49	47	47	45

<sup>75</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>76</sup> Jadval O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Buning natijasi o‘laroq, umumiy ovqatlanish korxonalariga bo‘lgan soliq yukini so‘nggi olti yildagi dinamikasi o‘rganilganda, o‘rtacha soliq yuki 10% dan (2015 yil) 35% gacha (2023 yil) oshganligini kuzatish mumkin (2.2.3-javdal). Soliq yukining oshishi 2019 yildan ular uchun QQS va ijtimoiy soliqlarning joriy qilinganligi bilan izohlash mumkin.

Umumiy ovqatlanish sohasining o‘ziga xosligi ushbu sohadagi korxonalariga QQS ning qo‘yilishi ularga bo‘lgan soliq yukining oshishiga olib keldi. Mazkur sohaning o‘ziga xosligi shundaki, umumiy ovqatlanish korxonalari tayyorlab realizatsiya qiladigan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarining asosini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi va realizatsiya qiluvchilarning asosiy qismi QQS to‘lovchilari bo‘lib hisoblanmaydi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 68% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan. Shu sababli, umumiy ovqatlanish korxonalarining QQS ni hisobga olish imkoniyatlari cheklanadi va QQS jami aylanmadan olinadigan soliq ko‘rinishiga aylanadi.

Bu holatda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun bozorning barcha ishtirokchilariga teng sharoit yaratish maqsadida mazkur masalani ijobiy hal qilishning ikki yo‘li mavjud, ya’ni ta’minot zanjiridagi barcha ishtirokchilarni QQS to‘lovchilari sifatida ro‘yxatga olish yoki umumiy ovqatlanish korxonalari uchun mazkur soliq stavkasini tushirish (masalan, 5%) maqsadga muvofiq. Bu taklifni rivojlantiradigan bo‘lsak, QQS to‘lovchisi bo‘lmagan subyekt yoki undirilmaydigan mahsulotlar ta’minot zanjirining (mahsulot tannarxining) 40% idan ortig‘ini tashkil qiladigan bo‘lsa, shunga muvofiq o‘sha tarmoq (subyekt, mahsulot) uchun QQS stavkasini kamaytirish lozim.



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1972 yilda dunyoning 40 mamlakatida QQS joriy qilingan bo'lsa, 2022 yilga kelib ularning soni 166 taga etgan. Oziq-ovqat xavfsizligi, turizm sohasini rivojlantirish masalalarining muhimligini inobatga olgan holda hamda doimiy rivojlanish uchun tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'lariga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida, ushbu mamlakatlarning 50 tasidan ortig'ida umumiy ovqatlanish, mehmonxona uchun tabaqalashtirilgan QQS qo'llaniladi. Mazkur mamlakatlarda QQS stavkasi 15 – 25% ni tashkil etsa, yuqorida keltirilgan sohalarga 0 – 10% darajasida soliq stavkasi belgilangan.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan umumiy ovqatlanish sohasida uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlari qarori bilan maxsus ajratiladigan joylarda ovqatlanish joylari tashkil etmasdan donali taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish faoliyatini soliqqa tortish 2.1-qismda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Turizm mahsulotlari ta'minot zanjirida turizm xizmatlarini iste'molchi bilan bog'lovchi subyekt turoperator hisoblanadi. Turizm mahsulotini shakllantiruvchi va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning barchalari 2020 yilgacha turoperator sifatida litsenziyalangan bo'lib, 2019 yilning 18 iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuniga asosan turizm faoliyati turoperatorlik va turagentlik turlariga bo'lindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq turizm faoliyati turoperatorlik va turagentlik faoliyatini o'z ichiga oladi, shuningdek:

- turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turoperatorlik faoliyatidir;

- turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turagentlik faoliyatidir.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 noyabrdagi 433-son qarori bilan tasdiqlangan Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida nizomning 3-bandiga muvofiq, turoperatorlik faoliyati yuridik shaxs tomonidan, turagentlik faoliyati esa yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bunga mos ravishda xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga turgagentlik faoliyati kiritilgan<sup>77</sup>.

Koronavirus pandemiyasi tufayli amaldagi turoperatorlarni xatlovdan o'tkazish asosida ularni faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, turoperator va turagentlarga bo'lish ishlari yakuniga etmagan. 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, turoperatorlarning soni 1774 tani tashkil qilib, 2017 yildagi ko'rsatkichga (749 ta) qaraganda deyarli 80%, 2016 yilga (484 ta) nisbatan 2,8 barobarga ko'pni tashkil etadi (2.2.2-rasm).

Shuni ta'kidlash kerakki, koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan turizm sohasidagi inqiroz natijasida ularga taqdim etilgan imtiyozlar va engiliklarga qaramasdan 2020 yilda mamlakatda turoperatorlar soni 136 taga, ya'ni 1482 tadan 1346 tagacha kamaydi.

---

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/1727490>



### 2.2.2-rasm. Turoperatorlar sonining o'zgarishi tendentsiyasi<sup>78</sup>(ming)

Yuqorida ta'kinlanganidek, turoperatorlik faoliyatini faqatgina yuridik shaxs sifatida yo'lga qo'yish mumkin. Shu sababli, 2022 yilda turoperatorlarni soliqqa tortish ushbu bobda keltirilgan yuridik shaxs shaklida mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni soliqqa tortish kabi bo'ladi (2.2.4-jadval).

### 2.2.4-jadval

#### Turoperatorlarni soliqqa tortish stavkalari<sup>79</sup>

Daromad hajmi	Soliq turlari				
	Foyda solig'i/ aylanmadan soliq	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	QQS	Ijtimoiy soliq
daromadi 1 mlrd so'mdan oshganda	15%	1,5 %	Yer maydoni xususiyatidan kelib chiqadigan stavkada	15%	12%
daromadi 1 mlrd so'mdan oshmaganda	4% stavkada aylanmadan olinadigan soliq				

<sup>78</sup> Mazkur rasm Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>79</sup> Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ulardan farqli quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehmonxona xizmatlari binolarda (ko'chmas mulklarda) ko'rsatilishi sababli ularda mulk solig'ining salmog'i yuqori bo'lsa, turoperatorlik faoliyati binoga ega bo'lish zaruriyati yo'qligi tufayli mazkur soliq sezilarli emas;

- soliq davrida daromad hajmi 1 mlrd. so'mdan oshmagan umumiy ovqatlanish korxonlari tabaqalashtirilgan stavkalarda aylanma soliq to'lovchisi bo'lsa, turoperatorlardan 4% lik stavkada undiriladi;

- turoperatorlarning kirish turizmi bo'yicha xorijiy turistlarga ko'rsatgan xizmatini realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumida eksport ulushi 15 foizdan yuqori bo'lganda xizmatlarni eksportga realizatsiya qilish;

- hajmiga to'g'ri keladigan foyda qismi yuzasidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i / yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq bazasi kamaytiriladi<sup>80</sup>.

Soliqqa tortish tizimining o'zgarishini turoperatorlar faoliyatiga bo'lgan ta'sirini ko'rib chiqish uchun ichki va kirish turizmi bilan shug'ullanuvchi turoperatorlarning<sup>81</sup> 2018 yil (eski Soliq kodeksi) va 2019 yillar (yangi Soliq kodeksining joriy qilishni boshlash), shuningdek 2019 yildagi moliyaviy ko'rsatkichlari (tushum va xarajatlar) asosida 2021 yil (yangi Soliq kodeksi to'liq joriy qilinishi) uchun soliq yuki va faoliyat rentabelligining taqqoslama tahlili qilindi.

Unga ko'ra, 2018 yilda turoperatorlarning barchasi kichik korxonalar sifatida faoliyat yuritganligi sababli ular yagona soliq to'lov-

---

<sup>80</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabridagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni.

<sup>81</sup> Tadbirkorlar talabiga ko'ra nomlari ochiq qilmadi.

chilari bo‘lishgan hamda ularning rentabelligi 12% va soliq yuki 6% ni tashkil qilgan. Ma’lumot uchun, 2018 yilda turoperatorlar iqtisodiy faoliyat turlarining tasnifiga asosan yillik o‘rtacha xodimlar soni 1 – 10 nafarni tashkil etsa mikrofirma, 11 – 25 nafar bo‘lsa kichik korxonada sifatida toifalangan.

2019 yildan e’tiboran daromadi 1 mlrd, so‘mdan oshgan yuridik shaxslarga foyda solig‘i joriy qilindi. 2018 yilda faoliyat yuritgan turoperatorlarning barchalarida daromad miqdori 1 mlrd, so‘mdan ortiqni tashkil etganligi uchun ularning barchalari foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lishgan. Shuningdek, 2019 yilda amalda bo‘lgan Soliq kodeksining 208-moddasi o‘n beshinchi qismiga asosan turoperatorlik xizmati QQSdan ozod qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-son Qonuniga muvofiq mazkur modda 2020 yilning 1 apreligacha qadar kuchda bo‘lgan. Shu sababli, 2019 yilda turoperatorlarning rentabelligi 4% va soliq yuki 3% ga teng bo‘lgan.

Turoperatorlarning 2019 yildagi asosiy faoliyat ko‘rsatkichlari asosida 2022 yildagi soliq tartibi bo‘yicha soliq to‘lovlari hisoblanganda, ularning rentabelligi 2018 yilga qaraganda 8% ga kamaygan va 4% ni tashkil qilgan bo‘lsa, soliq yuki 6% dan (2018 yil) 12% ga etgan. Soliq yukining oshishiga olib kelgan asosiy omil QQS ning joriy qilinganligi hamda turizm mahsuloti ta’minot zanjiridagi QQS to‘lovchisi bo‘lmagan ishtirokchilarning mavjudligi sababli ushbu soliqni hisobga olishning imkoni yo‘qligi hisoblanadi. Xususan, ta’minot zanjiridagi gid, ekskursiya, madaniyat va ko‘ngilochar

obyektlar xizmatlari hamda qisman umumiy<sup>82</sup> ovqatlanish nuqtalari va joylashtirish vositalarining (oilaviy mehmon uylari va xostellar) QQS to'lovchisi emasligi turoperatorlarga QQSni aylanmadan olinadigan soliqqa tenglashtirib qo'yadi.

### **2.3-§. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi soliq preferentsiyalarning turizm sohasi subyektlari faoliyatiga va tarmoqning rivojlanishiga bo'lgan ta'sirining tahlili**

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun soliq preferentsiyalarining o'zini berish kifoya emas, balki ularni samaradorligini doimiy baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, soliq bo'yicha engilliklarni berishdan yuzaga keluvchi soliq xarajatlari undan keladigan foydadan oshib ketsa, davlatga ham, soliq imtiyozini oluvchilarga ham aks ta'sir etishi mumkin<sup>83</sup>.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas. Bu esa, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda<sup>84</sup>.

Shuningdek, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri soliq imtiyozlarining samaradorlik darajasini baholash asosida ularni taqdim etishning aniq mezon va mexanizmlarini belgilash hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda mamlakatda soliq imtiyozlari samaradorligini baholab borish-

---

<sup>82</sup> Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/3019920>

<sup>83</sup> Steshenko J.A., Tikhonova A.V. (2018) An integral approach to evaluating the effectiveness of tax incentives. *Journal of Tax Reform*, vol. 4, no. 2, pp. 157 – 173.

<sup>84</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori.

ning yagona uslubiyati mavjud emas. Mazkur masalaning muhimligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 31 maydagi “Imtiyozlar va preferentsiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3756-sonli qarorida alohida keltirilgan. Turizm sohasiga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligini tahlil qilishdan oldin mazkur sohaga soliq imtiyozlarining ahamiyati va berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish holatini ko‘rib chiqiladi.

Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishidagi asosiy omillarni, shu jumladan bunda soliq imtiyozlarining muhimligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan turizm sohasi subyektlarining fikrini o‘rganish maqsadida ular o‘rtasida ekspress so‘rovnoma o‘tkazildi<sup>85</sup>. So‘rovnomada turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillarni ta’sir darajasini 1 – 5 gacha, ya’ni eng kam ta’sirga ega omilni 1 va eng katta ta’sirga egasini 5 bilan belgilash orqali baholash so‘raldi.

Uning natijalariga ko‘ra, soliq imtiyozlari (3,9) va aholining daromadlari darajasi (3,9) turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga eng katta ta’sirga ega. Salmog‘i va ahamiyati bo‘yicha bulardan keyinni o‘rinda faoliyat uchun zaruriy xom-ashyo, yoqilg‘i, inventar va mahsulotlar mavjudligi va narxi omili (3,7) ko‘rsatildi. So‘rovnomada ishtirok etganlarnig fikricha, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi (3,1) hamda davlatlarning ikki tomonlama kelishuv va shartnomalari (3,1) sohadagi tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan eng kam ta’sirga ega (2.3.1-jadval).

---

<sup>85</sup> So‘rovnoma 2020 yilning noyabr oyida “Telegram” ijtimoiy tarmog‘idagi turizm sohasi subyektlarining maxsus guruhlarida o‘tkazildi. Unda jami 176 joylashtirish vositalari, turoperatorlar, gidlar va transport tashkilotlari ishtirok etdi.

So‘rovnoma natijalari ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekistonda turizm sohasi subyektlari o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarida soliq imtiyozlariga bo‘lgan ehtiyoji yuqori va ularga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan eng muhim rag‘batlantirish instrumenti hisoblanadi.

Soliq imtiyozlarini qo‘llash uchun zarur shartlar, shuningdek, qat’iy hisobot shakli sifatida sotilgan vaucherlar shaklining belgilangan tartibda tasdiqlangan shaklga muvofiqligi hisoblanadi.

### 2.3.1-jadval

#### **Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishidagi asosiy omillarni baholash so‘rovnomasi natijalari<sup>86</sup>**

№	Omillar	Jami ovoz	5	4	3	2	1	O‘rtacha salmog‘i (ahamiyati)
1	Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi	176	32	14	15	8	31	3,8
2	Huquqiy tartibga solishning shaffofligi	166	43	10	16	6	25	3,4
3	Davlatlarning ikki tomonlama kelishuv va shartnomalari	165	31	12	22	10	25	3,1
4	Imtiyozlar paketi (soliq imtiyozlari)	163	58	12	10	5	15	3,9
5	Aholining daromadlari darajasi	169	54	17	10	4	15	3,9
6	Malakali ishchi kuchi mavjudligi	170	39	14	17	10	20	3,4
7	Faoliyat uchun zaruriy xom-ashyo, yoqilg‘i, inventar va mahsulotlar mavjudligi va narxi	173	47	16	13	7	17	3,7

Soliq imtiyozlarini qo‘llash uchun zarur shartlar, shuningdek, qat’iy hisobot shakli sifatida sotilgan vaucherlar shaklining belgilangan tartibda tasdiqlangan shaklga muvofiqligi hisoblanadi.

Sayyohlik kompaniyalari vositachidir va ular QQSdan ozod qilish imkoniyatidan foydalana olmaydi, chunki ular xizmatlar ko‘rsa-

<sup>86</sup> Ekspress so‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



tishda bevosita ishtirok etmaydilar. Boshqa shaxs manfaati uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan bunday soliq to'lovchilar QQS bazasini ushbu shartnomalarning birortasini bajarishda ish haqi (boshqa har qanday daromad) shaklida olgan daromadlari miqdorini belgilaydilar.

Turizm biznesida turoperator tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan kiruvchi turizmga ikki baravar soliq solishni, turistik mahsulotlarning real sotilishi amalga oshiriladigan, O'zbekiston Respublikasida daromad solig'ini to'lash yo'li bilan bekor qilinadi. Agar bu turoperatorning filiali (vakolatxonasi) ishtirokida, balki chet elda sodir bo'lsa, unda soliq chet elda to'lanadi, shundan so'ng u O'zbekiston Respublikasida mahalliy turoperatorning soliq majburiyatlarini kamaytirishda hisoblanadi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida xalqaro tajribada turistik oqimlar hajmi hamda turizm xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi usullarda yig'ilishi va shakllantirilishi asoslab berildi:

1) migratsiya xizmatlarining chegarada ro'yxatdan o'tkazish tizimi orqali ma'lumotlarni yig'ish usuli;

2) turar joy obyektlarining statistik hisoboti tizimi orqali ma'lumotlarni yig'ish usuli;

3) bank ma'lumotlaridan foydalanish orqali ma'lumotlarni yig'ish usuli;

4) maxsus o'tkaziladigan so'rovnomalar orqali ma'lumotlarni yig'ish usuli.

Migratsiya xizmatlarining chegarada ro'yxatdan o'tkazish tizimi orqali ma'lumotlarni yig'ish usulida ro'yxatdan o'tkazish mamlakatga kirish va chiqish vaqtida migratsiya nazorat punktlari orqali aeroportlar, temir yo'l stantsiyalari, dengiz portlari, chegara postlari va boshqa

joylarda amalga oshiriladi. Turistlar to‘g‘risida ma’lumot yig‘ishning asosiy manbai bo‘lib, maxsus anketalar, kirish (chiqish) kartalari, shuningdek, chet el pasportlari va vizalar hisoblanadi. Ikkinchi usulda jamoat turar joy binolariga kelganlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar tashrif buyuruvchilarni qayd etish orqali shakllantiriladi. Mazkur usul bo‘yicha tashrif buyuruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar “2-turizm shakli” davlat statistika hisobotining jamoat turar joy binolariga tashrif buyurgan turistlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlari asosida shakllantiriladi hamda birinchi yondashuv asosida shakllantirilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi (2.3.2-jadval).

### 2.3.2-jadval

#### O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni dinamikasi<sup>87</sup> ming kishi

	Yillar										
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
<i>1-usul orqali shakllantirilgan</i>	974,6	1394,8	1895,0	1968,7	1862,0	1917,7	2027,0	2690,1	5346,2	6748,5	1504,1
<i>2-usul orqali shakllantirilgan</i>	577,6	690,5	704,7	700,7	701,0	556,5	661,5	806,3	1200,7	1520,8	178,5
O‘zaro nisbati, %	59,3	49,5	37,2	35,6	37,6	29,0	32,6	30,0	22,5	22,5	11,9

Dinamik ma’lumotlarni ko‘radigan bo‘lsak, 2010-2019 yillar davomida mazkur ikki usulda shakllantirilgan ma’lumotlar o‘rtasidagi tafovut ortib borgan. 2019 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning 22,5% gina jamoat turar joy binolarida ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 11,9% ni tashkil etgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekiston tajribasida O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni to‘g‘risida ma’lumotlarni birinchi usul yordamida shakllantirish maqsadga muvofiq, deb topildi.

<sup>87</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida turizm iste'moli ko'rsatkichlarini bank ma'lumotlari asosida kuzatish usuli ham o'rganib chiqildi. Ma'lumotlarni ushbu uchinchi usulda shakllantirishning bir qator afzalliklari mavjud. Jumladan, mazkur usulda turistlardan qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinmaydi, chegaradagi rasmiyatchilik va statistika idoralarining xarajatlari kamayadi, ma'lumotlar muntazam, tezkor va tizimlashtirilgan holda shakllantiriladi. Yaxshi tashkil etilgan hisob-kitoblar hamda valyuta va moliya bozori ustidan kuchli nazorat mavjud bo'lgan iqtisodiyotlarda, bank ma'lumotlari asosida kuzatish usuli turizm xarajatlari hajmini ishonchli baholash imkonini beradi. Olib borilgan tahlillar natijasida to'rtinchi usul turizm iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ishda eng afzal usul, deb topildi.

Faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari olingan natijaning sarf qilingan xarajatlarga nisbati bilan quyidagi 2.3.3-jadvalda keltirilgan formulalarda ifodalanadi.

### 2.3.3-jadval

#### Turistik faoliyat subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligining ko'rsatkichlari<sup>88</sup>

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich	Belgilar
Budjet samaradorligi	$S_1 = \frac{C_h}{T_{dx} + T_{tdx}}$	S1 – budjet samaradorligi; Sn – turizm sohasi korxonalaridan konsolidatsiyalangan budjetga hisobot davrida olingan soliqlar summasi; Td.x. – turistik agentliklarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari miqdori; Tt.d.x. – turdosh tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari miqdori.
Institutsional samaradorlik	$S_2 = \frac{TS_s + TT_s}{T_{dx} + T_{tdx}}$	S2 – institutsional samaradorlik; TSs – hisobot davrida yangi tashkil etilgan sayyohlik agentliklari va turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni; TTs – hisobot davrida turdosh tarmoqlarning tashkil etilgan yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni.

<sup>88</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida turistik subyektlar uchun aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha davlat budjetiga soliq tushumlarini prognoz qilish metodlari ishlab chiqildiki, ularni quyidagicha izohlash mumkin. Aylanmadan olinadigan soliq tushumlari prognozi (AOS) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$AOS = \sum_{i=1}^n (V_n * S * K + Q - O)(+/-)F,$$

AOS – qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq tushumlarini baholash;

$i, n$  – turizm tarmog'i;

$$V_n = D * H$$

$V_n$  – Prognoz qilinayotgan davr uchun soliqqa tortish bazasi;

$D$  – Hisobot yili yakuniga kutilayotgan soliqqa tortish bazasi;

$H$  – Tarmoqda qo'shilgan qiymatining prognoz qilinayotgan davrdagi o'sish koeffitsienti;

$$D = V(12/M * NI + 1)$$

$V$  – Hisobot yilining o'tgan davridagi amaldagi soliqqa tortish bazasi;

$12$  – Kalendar yili yakuniga qolgan oylar soni;

$M$  – Hisobot yilidagi o'tgan oylar soni;

$NI$  – Tarmoqda qo'shilgan qiymatining hisobot yilining qolgan davrida kutilayotgan o'sish koeffitsienti;

$S$  – Taklif etilgan soliq stavka;

$K$  – Yig'iluvchanlik darajasi, %;

$Q$  – Soliq turi bo'yicha mavjud qarzdorlik;

$O$  – Soliq turi bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov;

$F$  – Qonunchilikdagi o'zgarishlarni, haqiqiy tushumlarni, soliq rejimini o'zgartirishni, shuningdek, bir martalik operatsiyalarni (tushumlarni, qaytarib berishni va boshqalarni) hisobga olgan holda tushumlarning tuzatilgan summasi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvning boshqa mualliflar tomonidan tavsiya etilgan yondashuvlardan farqli jihatlari tanlab olingan omillarning mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi, ko‘rsatkichni ishlab chiqishda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlaridan foydalanilganligi, hududlar bo‘yicha alohida omillarni qiyoslashdagi o‘ziga xoslik hisoblanadi.

Tadqiqotda bir qator mualliflar<sup>89</sup> tomonidan olib borilgan turizmni integral ko‘rsatkichlar yordamida baholash bo‘yicha izlanishlar o‘rganib chiqildi va milliy statistika amaliyotida O‘zbekiston hududlarining turizm salohiyatini baholash uchun “Turizm salohiyati integral ko‘rsatikichi” ishlab chiqildi. Mazkur integral ko‘rsatkich turizm resurslarini ifodalovchi bir nechta omillarni o‘z ichiga oladigan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda, hududning turizm salohiyatini ifodalovchi yagona ko‘rsatkichni aniqlash imkonini berdi. Mazkur ko‘rsatkich quyidagi 2.3.4-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarni umumlashtirish orqali hisoblandi.

### 2.3.4-jadval

#### Turizm salohiyatini ifodalovchi omillar va ko‘rsatkichlar tizimi<sup>90</sup>

T/r	Omillar	Ko‘rsatkichlar
1.	Turizm infratuzilmasi ( $F_{ij}$ )	<ul style="list-style-type: none"> <li>- turar-joy vositalari;</li> <li>- sanatoriya va kurortlar;</li> <li>- turizm tashkilotlari;</li> <li>- umumiy ovqatlanish tashkilotlari;</li> <li>- transport;</li> <li>- sport;</li> <li>- madaniyat;</li> <li>- moliyaviy tashkilotlar;</li> <li>- internet tizimi.</li> </ul>

<sup>89</sup> Кулакова Л.И., Осипов В.А. Методические подходы к оценке туристско-рекреационного потенциала российских регионов // Russian Journal of Entrepreneurship #24'2017 (December). 4262 – 4272 стр.

<sup>90</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2.	Turizm resurslari ( $R_{ij}$ )	- tabiiy-iqlim resurslari; - tarixiy-madaniy meroslar.
3.	Hudud turizmining boshqaruv tizimi ( $G_{ij}$ )	- turizm marketingi; - hududning turizm siyosati; - hududning turizm kooperatsiyasi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan turizm salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirish orqali quyidagi turizm salohiyati integral ko'rsatkichini keltirib chiqarildi:

$$I = \sum_{i,j=1}^n F_{ij} * w_i + \sum_{i,j=1}^n R_{ij} * w_i + \sum_{i,j=1}^n G_{ij} * w_i, \quad (2)$$

Mazkur formuladagi  $w$  har bir alohida ko'rsatkichning vaznini ifodalaydi. Vaznlar ko'rsatkichning muhimligidan kelib chiqib belgilanishi mumkin. Bu erda turizm tarmoqlaridagi turizmning ulushi ko'rsatkichini qo'llashni maqsadga muvofiq, deb hisoblandi.

Mavjud ko'rsatkichlar asosida yuqoridagi formuladan foydalalanib, O'zbekiston hududlarining turizm salohiyatini baholash hamda ularni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. 2019 yil uchun hududlar bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini nisbiy o'lchovlarga keltirish va ularni umumlashtirish orqali mazkur yo'nalish bo'yicha hududlar salohiyati ( $F_{1j}$ ) baholandi. Bunda joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari sifatida joylashtirish vositalari soni ( $F_{1,1}$ ), nomerlar fondi ( $F_{1,2}$ ), joylashtirilganlar soni ( $F_{1,3}$ ), tunab qolishlar soni ( $F_{1,4}$ ), joylashtirish vositalarida joylar fondidan foydalanish koeffitsienti ( $F_{1,5}$ ) hamda sohada ish bilan bandlar soni ( $F_{1,6}$ ) kabi ko'rsatkichlar hududlar bo'yicha umumiy nisbiy o'lchovga keltirildi va yuqorida keltirilgan formula orqali umumlashtirildi.

Hududlardagi har bir yo'nalish bo'yicha nisbiy ko'rsatkichlar eng yuqori (maksimal) ko'rsatkichni 100 ga tenglashtirish orqali quyidagi formuladan foydalanib umumiy o'lchovga keltirildi:

$$F_{ij} = \sum_{j=1}^n \frac{F_n}{F_{max}}, \quad (3)$$

Bu erda,  $F_n$  – ixtiyoriy hudud ko‘rsatkichi,

$F_{max}$  – hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich.

Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari faoliyati bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblar natijasida olingan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, bu yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori salohiyat Toshkent shahri (100), Samarqand (39) va Buxoro (35) viloyatlarida, o‘rtacha salohiyat Toshkent (23), Xorazm (22) va Farg‘ona (19) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, mamlakatning boshqa hududlarida bu yo‘nalish bo‘yicha past (10 – 16 oralig‘ida) salohiyat kuzatilgan.

Keyingi bosqichda, hududlarning turizm infratuzilmasi salohiyati integral ko‘rsatkichini turizm sohalari bo‘yicha to‘g‘rilash koeffitsientlari orqali quyidagi formula yordamida aniqlandi.

$$F_D = \sum_{i,j=n}^n F_{ij} * w_i, \quad (4)$$

Bu erda,  $F_D$  – turizm infratuzilmasining salohiyati;

$F_{ij}$  – turizm infratuzilmasi tashkilotlari;

$w_i$  – turizm tarmoqlarida turizmning ulushi.

Mazkur hisob-kitoblarda, joylashtirish vositalari, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari va turistik bazalar uchun to‘g‘rilash koeffitsienti ( $w_i$ ) sifati tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlarda turizmning ulushi ko‘rsatkichi (99,3%), turistik firma va tashkilotlar uchun turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo‘yicha boshqa xizmatlarda turizmning ulushi ko‘rsatkichi (72,4%), jismoniy tarbiya va sport uchun sport va dam olish bo‘yicha xizmatlarda turizmning ulushi ko‘rsatkichi (31,2%), teatrlar, muzey-

lar, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog‘lari uchun madaniyat sohasidagi xizmatlarda turizmning ulushi ko‘rsatkichi (33,9%) qo‘llanildi. Tahlillarimizga ko‘ra (2.3.5-jadval), turizm infratuzilmasi salohiyati bo‘yicha eng yuqori integral ko‘rsatkich Toshkent shahri (47) va Toshkent viloyati (25)da kuzatilgan bo‘lsa, keyingi o‘rinlarni Farg‘ona (20), Samarqand (18), Buxoro (14) va Xorazm (13) viloyatlari egallagan. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha eng past natija Sirdaryo (4), Jizzax (7) va Navoiy (8) viloyatlarida qayd etildi.

### 2.3.5-jadval

#### O‘zbekistonda hududlarning turizm infratuzilmasi salohiyatini ifodalovchi umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar<sup>91</sup>

(2021 yil 1 yanvar holatiga, ball)

	Joylash-tirish vositalari	Turistik firma va tashkilotlar	Sana-toriya-kurort muassasalari	Jismoniy tarbiya va sport	Teatrlar	Muzeylar	Konsert tashkilotlari	Madaniyat va istirohat bog‘lari	Jami
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11	1	9	52	24	9	27	26	9
viloyatlar:									
Andijon	14	1	14	65	17	7	18	90	12
Buxoro	35	6	10	48	15	33	12	38	14
Jizzax	10	2	19	41	14	7	15	10	7
Qashqadaryo	16	2	19	67	22	7	27	50	12
Navoiy	13	2	13	31		7	9	39	8
Namangan	10	1	51	50	7	7	17	46	12
Samarqand	39	19	28	75	28	50	13	49	18
Surxondaryo	10	1	14	52	15	7	1	38	9
Sirdaryo	14	0	2	23	5	1	10	9	4
Toshkent	23	4	90	67	5	9	9	25	25
Farg‘ona	19	1	83	78	23	23	32	57	20
Xorazm	22	45	6	46	21	17	8	34	13
Toshkent sh.	100	90	41	59	100	79	100	92	47

Shuningdek, mavjud ma‘lumotlar asosida olib borilgan hisob-kitoblar natijasiga ko‘ra, turizm infratuzilmasi va turizm resurslari

<sup>91</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.



bo'yicha hududlarning salohiyat indekslarini umumlashtirib hududlarning turizm salohiyati natijaviy indeksini aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz hududlarida turizm salohiyati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (55 ball) hamda Toshkent (50), Samarqand (47), Buxoro (44) va Xorazm (44) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha keyingi o'rinlarni Qashqadaryo (37), Surxondaryo (36), Jizzax (29) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (36) egallagan bo'lsa, Sirdaryo (2), Namangan (6), Andijon (6), Navoiy (10) va Farg'ona (10) viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqoridagi hududlarga nisbatan ancha kam bo'lgan. Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvning boshqa mualliflar tomonidan tavsiya etilgan yondashuvlardan farqli jihatlari tanlab olingan omillarning mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi, ko'rsatkichni ishlab chiqishda turistik faoliyat subyektlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimi va mexanizmlaridan foydalanilganligi, hududlar bo'yicha alohida omillarni qiyoslashdagi o'ziga xoslik hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, turistik soliqqa tortish faoliyati butun dunyoda o'sishda davom etadi. Shu bilan birga, bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri soliqlardan foydalaniladi, ular amalda ham oson boshqariladi va samarali bo'ladi<sup>92</sup>. Bundan tashqari, empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu soliqlar oqlanishi mumkin, chunki ular atrof-muhit sifatiga bog'liq bo'lishi mumkin, o'z vaqtida bunga diqqat kuchaytiriladi. Biroq, sayyohlarning atrof-muhit sifati uchun pul

---

<sup>92</sup> Gago, A., Labandeira, X., Picos, F. & Rodriguez, M. (2009). Specific and general taxation of tourism activities. Evidence from Spain. *Tourism Management*, 30.

to'lashga tayyorligi foyda olish uchun haqiqiy soliqlardan yuqori bo'lishi kerak<sup>93</sup>.

Shunday qilib, turizm faoliyati subyektlariga soliqqa tortishning o'zgarishi quyidagi 2.3.6-jadvalda bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyatiga soliq solishni takomillashtirishning ustuvor vositalari majmuasini o'z ichiga oladi.

### 2.3.6-jadval

#### **Turizm faoliyatiga soliq solishni takomillashtirishning ustuvor vositalari<sup>94</sup>**

<p>Muammolar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yangi yoki o'zgartirilgan qonunchilik noaniqlikni keltirib chiqaradi;</li> <li>- murakkab siyosiy vazifalar;</li> <li>- amalda amalga oshirish uchun murakkab qonunchilik;</li> <li>- qoidalarining mos kelmasligi;</li> <li>-takomillashmagan ma'lumot</li> </ul>	<p>Nomukammal axborot o'zgartirish vositalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'muriy jarayonning evolyutsiyasi;</li> <li>- barcha biznes uchun qonunlarda umumiy o'zgarishlar.</li> <li>- ayrim faoliyat turlari, jumladan, sayyohlik biznesi uchun o'ziga xos o'zgarishlar;</li> <li>- maxsus soliq rejimlarini takomillashtirish.</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- qonunchilikka rioya qilish xarajatlarini kamaytirish;</li> <li>- soliq bazasini aniqlashda xatolarni kamaytirish;</li> <li>- soliq siyosati va qonun hujjatlarining oshkoraligi;</li> <li>- ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;</li> <li>- adolat;</li> <li>- biznesni rivojlantirish talablariga muvofiqligi.</li> </ul>	

Bizning fikrimizcha, konvertatsiya quyidagi printsiplarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:

- status – soliq qonunchiligi qonun bilan va parlament tomonidan tegishli demokratik nazorat ostida qabul qilinishi kerak;
- soliq qoidalarining aniqligi;

<sup>93</sup> Brida, J. & Pereyra, J. (2009). Tourism taxation and environmental quality in a model with vertical differentiation. *Tourismos: An International Multidisciplinary Journal of Tourism*, 4(1), 45 – 62.

<sup>94</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- oddiylik – soliq o‘zgarishi oddiy, tushunarli va aniq bo‘lishi kerak;
- oson hisoblash va oddiy ma’lumot to‘plash, shu jumladan keraksiz xarajatlarsiz;
- to‘g‘ri maqsadlar – soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun hech qanday sabab yo‘q;
- doimiylik – asosiy qoidalarni o‘zgartirish minimallashtirilishi kerak, o‘zgarishning iqtisodiy asoslari e’lon qilinishi kerak;
- konsultatsiyalar – barcha manfaatdor tomonlar tayyorgarlikda ishtirok etishlari kerak;
- dolzarblikni aniqlash uchun qayta ko‘rib chiqishning muntazamligi;
- adolat va razvedka – nizolarni hal qilish mexanizmi bo‘lishi kerak;
- soliq o‘zgarishining iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga, birinchi navbatda, investitsiyalarga muvofiqligi.

Muayyan shaxs uchun soliq yuki sotishdan tushgan daromadlardagi soliqlarning ulushi sifatida tavsiflanadi. Soliqlarning bir hil emasligi va ularning iqtisodiyotga ta’sir darajasi tufayli korxonaga soliq yuki darajasini baholashdagi quyidagi asosiy qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, asosiy xarajatlar hisobiga to‘langan soliqlar bo‘yicha soliq yukining og‘irligi ushbu soliqlarning asosiy tannarxdagi solishtirma og‘irligi bilan o‘lchanishi kerak. Ikkinchidan, korxonaning faoliyatining moliyaviy natijalari hisobiga to‘lanadigan soliqlarni asosiy faoliyatni amalga oshirishdan olinadigan foyda bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Soliq yuki korxonaning faoliyatini tartibga solish obyekti bo‘lib, soliq xavfini hisobga olgan holda korxonalarining soliq tekshiruv jarayonida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- yuridik shaxslarning daromadlari (foydalari) va jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan daromadlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqqa tortish shartlarini tenglashtirish, korxonalar daromad solig‘i stavkasini jismoniy shaxslarning daromad solig‘i stavkasiga bosqichma-bosqich yaqinlashtirish maqsadida;

- ikki tomonlama daromad solig‘ini bartaraf etish;

- mulkchilikning turli shakllari, tashkiliy-huquqiy shakllari va iqtisodiy faoliyat turlari sub’ektlari uchun xo‘jalik yuritishning teng shart-sharoitlarini yaratish;

- soliq solish tizimining ma‘muriy soddaligi, iqtisodiyoti va barqarorligini ta‘minlash;


- davlat va soliq to‘lovchilarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish.

Ushbu shartlarga mos keladigan soliq tizimi modelini yaratish soliq islohotini o‘tkazish sharoitida byudjetning muvozanatlilikini ta‘minlash imkonini beradi, bu esa byudjet tushumlarini yo‘qotmasdan soliq yukini kamaytiradi.

Shu munosabat bilan biz korxonalarining soliq yukini ularning moliyaviy barqarorligiga ta‘siri bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazdik.

Hozirgi vaqtda ichki va kirish turizmi o‘z mamlakatining iqtisodiyoti uchun juda muhim rol o‘ynaydi. Bu ish bilan bandlikni oshiradi, mamlakat aholisining farovonligini oshiradi va iqtisodiyotning turli sohalarini sezilarli darajada rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi ichki turizmni rivojlantirish uchun ulkan tabiiy resurslar va tarixiy-madaniy salohiyatga ega. Bu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi ichki va xorijiy sayyohlarni qabul qilishning yuqori ulushiga ega bo‘lgan mamlakatlardan chiqarib yuborilishi mumkin emas.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy muammosi ushbu bozor ishtirokchilari, asosan, iqtisodiy va soliq imtiyozlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlarining mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu sohani investitsiyalash, barqaror va yuqori tadbirkor daromad olish nuqtai nazaridan nisbatan nochor holga keltirib, yalpi ichki mahsulotdagi ulushning o‘shishi natijasida yuzaga keladi. Davlat biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy manbai hisoblanadi (2.3.1-rasm).



### 2.3.1-rasm. Turistik biznes subektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullari majmuasi<sup>95</sup>

Davlat, xususan, mintaqaviy hokimiyat timsolida, biznes imkoniyatlarining umumiy yomonlashuvi sharoitida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga tushirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.


Shaxsiy tadbirkorlar, shunga ko‘ra, jismoniy shaxslarning daromadlari, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘-

<sup>95</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

lash majburiyatidan ozod etiladi. Bundan tashqari, yagona hisoblangan daromad solig'ini qo'llaydigan tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari emas. Hisoblangan daromadlarga yagona soliq solinishi munosabati bilan tashkilotlar buxgalteriya hisobidan ozod qilinmaydi. Shuningdek, hisoblangan daromadlardan olinadigan yagona soliqning afzalligi shundaki, soliq summasi shu muddat davomida to'langan majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha sug'urta badallari summasiga (hisoblangan summalar doirasida), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan belgilangan to'lovlar ko'rinishidagi sug'urta badallari miqdoriga kamaytiriladi. Ularning sug'urtasi uchun va xodimlarga to'lanadigan vaqtinchalik nogironlik nafaqalari miqdori uchun, lekin 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda. Taqdim etilgan soliq tizimlarining yig'indisi ko'rib chiqilayotgan masalaning hozirgi holatini tashkil etadi – korxonalar va xususan, turizm sohasidagi korxonalar uchun soliq imtiyozlari. Ushbu soliq tizimlarining ishlashini aniq misollar bilan ko'rib chiqayotganda, eng katta soliq yukini umumiy soliqqa tortish tizimini qo'llaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar yuklaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bu jihatdan bilvosita soliq – QQS muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan kiritiladigan QQSni hisobga olish imkoniyatini hisobga olish kerak. Shunday qilib, agar korxonalar o'z narxiga qo'shilgan QQS bilan xizmatlarni sotib olsa, u holda sotib olingan xizmatlar asosida shakllantirilgan o'z xizmatlarini sotishda u sotib olingan xizmatlar bo'yicha QQSni to'liq ushlab qolishi va shu bilan byudjetga to'lash kerak bo'lgan hisoblangan QQS miqdorini kamaytirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesning soliq yukini kamaytirishga yordam beradigan bir nechta maxsus soliq rejimlari mavjud bo'lishiga qaramay, davlat ko'magi va rag'batlantirishga muhtoj

bo‘lgan ichki kapitalga xususiy kapitalni jalb qilish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Davlatimiz O‘zbekiston Respublikasida ichki turizmni soliq imtiyozlari masalalariga unchalik e‘tibor bermasligi sababli, hozirgi vaqtda tatbiq etilayotgan soliqqa tortish tizimi turizm sohasini rivojlantirishning muhim cheklovchi omili bo‘lib, bir qator vositalar va amalga oshirish mexanizmini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi [22].

Bundan tashqari, soliq imtiyozlari sayyohlik tashkilotlariga ham, sayyohlarning o‘ziga ham yo‘naltirilishi mumkin, bu esa ularni ko‘proq mahalliy sayyohlik mahsulotlarini sotib olishga undaydi. Turistik mahsulotning asosiy iste‘molchilar uchun yakuniy narxini tashkil etadigan asosiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, soliq imtiyozlari yo‘naltiriladigan turizm bozori subyektlarini 2.3.2-rasmda ko‘rsatilgan toifalarga ajratish maqsadga muvofiqdir.



**2.3.2-rasm. Solliq imtiyozlari yo‘naltirilgan turizm bozorining subyektlari<sup>96</sup>**


<sup>96</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, so‘nggi yillarda kuzatilgan ishbilarmonlik amaliyotining eng keskinlashuvi sharoitida alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan sayyohlik kompaniyalari sayyohlik bozoridagi eng zaif yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Turoperator va sayyohlik turistik xizmatlar bozorining bir-birini to‘ldiruvchi subyektlaridir, ayni paytda turagentning faoliyati turoperator bilan o‘zaro aloqasiz holda tasavvur qilib bo‘lmaydi, aksincha emas. Ichki turizm sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, bizning fikrimizcha, ularning ichki daromadlari umumiy hajmida ichki turizmdan tushadigan daromadlarning ulushiga talablarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy O‘zbekiston Respublikasi bozor mexanizmlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur siyosiy va iqtisodiy iqlimni yaratishga intiladi, uning yordamida mamlakat ichidagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, global moliyaviy bozorlar dinamikasiga moslashuvchan javob berish va jahon miqyosida munosib o‘rin egallash mumkin. Iqtisodiy jarayonlarga davlat ta‘sirining nazariyasi va amaliyotida mustahkam isbotlangan eng samarali bozor mexanizmlaridan biri soliqqa tortishdir. Moliyaviy-iqtisodiy tizimning bir qismi bo‘lgan soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim elementi bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatning soliq tizimini shakllantirish orqali davlat uni amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat doirasida qo‘llashni maqsad qilib qo‘yadi. Shu munosabat bilan u nisbatan mustaqil yo‘nalishga aylanadi – davlatning moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlari majmuasi bo‘lgan soliq siyosati, davlat faoliyatini moliyaviy ta‘minlash uchun mamlakatning soliq tizimini yaratish, jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlarini, shuningdek, moliyaviy va boshqa resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash-



dir. Davlat soliq siyosatining asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni, soliqlarning yuqori yig‘ilishini va umuman, aholi farovonligini oshirishni ta‘minlaydigan samarali soliq tizimi mexanizmini yaratishdan iborat. Samarali soliq siyosatini amalga oshirish soliqlarga xos bo‘lgan o‘zaro bog‘liq funktsiyalarga asoslanadi (2.3.3-rasm).



### 2.3.3-rasm. Samarali soliq siyosatini amalga oshiradigan soliqlarning vazifalari<sup>97</sup>

Zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatda soliqlar davlat daromadlarining asosiy shakli hisoblanadi. Ushbu aniq fiskal funktsiyadan tashqari, soliq mexanizmi davlatning ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning dinamikasiga va tuzilishiga, kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy farovonligiga iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, soliq yuki asosiy kapitalga investitsiyalarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

<sup>97</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Faoliyat turlari va soliqqa tortish tizimlarining eng to'liq ro'yxati 2.3.7-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvalda biz taklif etilayotgan mahalliy turistik korxonalar tasnifi va ularga rioya qilish soliq imtiyozlari ko'rinishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga imkon beradigan talablarni belgilaydi.

### 2.3.7-jadval

#### **Turizm sohasidagi faoliyat turlarining soliqqa tortish tizimlariga muvofiqligi<sup>98</sup>**

<b>Soliq tizimi</b>	<b>Turizm mavzusi / turizm sohasidagi faoliyat turi</b>
Umumiy soliq tizimi	Turoperatorlar, turagentlar, tashuvchilar, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalar.
Yagona daromad soli-g'i ko'rinishidgi soliq solish tizimi	Quyidagi ishlarni amalga oshirishdan turistik korxonalar: - yo'lovchilarni tashish uchun avtotransport xizmatlarini ko'rsatish; - umumiy ovqatlanish xizmatlarini mehmonlarga xizmat ko'rsatish zaliga ega bo'lgan umumiy ovqatlanish tashkiloti obyekti orqali ko'rsatish; - mehmonlarga xizmat ko'rsatish zaliga ega bo'lmagan umumiy ovqatlanishni tashkil etish obyekti orqali umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish; - vaqtinchalik joylashtirish va yashash uchun xizmatlar ko'rsatish; - va hokazo.
Patent soliqqa tortish tizimi	Yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan sayyohlik korhonalari quyidagilarni amalga oshiradilar: - avtomobil transportida yo'lovchilarni tashish bo'yicha avtotransport xizmatlarini ko'rsatish; - yakka tartibdagi tadbirkorga mulk huquqi asosida egalik qiluvchi turar-joy va noturarjoy xonalari, dachalar, er uchastkalarini ijaraga berish (ijaraga berish); - xalq badiiy hunarmandchiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish; - temir yo'l vokzallari, avtovokzallar, aerovokzallar, aeroportlar, dengiz, daryo portlarida tashuvchi xizmatlar

<sup>98</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

	ko'rsatish; - yo'lovchilarni suv bilan ta'minlash; - ov xo'jaligini yuritish va ovni amalga oshirish; - ijara xizmatlari; - ekskursiya xizmatlari; - umumiy ovqatlanish tashkilotining har bir obyekti uchun 50 kvadrat metrdan ortiq bo'lmagan mehmonlarga xizmat ko'rsatish zali maydoni bilan umumiy ovqatlanishni tashkil etish obyektlari orqali ko'rsatiladigan umumiy ovqatlanish xizmatlari; - umumiy ovqatlanish xizmatlari, mehmonlarga xizmat ko'rsatish zali bo'lmagan, umumiy ovqatlanishni tashkil etish obyektlari orqali ko'rsatiladi; - va h.k.
--	---

Shunday qilib, turizm sanoatining aksariyat korxonalarini o'z ichiga olgan kichik va o'rta biznesni soliqqa tortish tizimini shakllantirish va rivojlantirish davlatning soliq siyosatini ishlab chiqishda asosiy vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasida mavjud bozor iqtisodiyoti iqtisodiy munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatdi va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosi bo'ldi. Bozor konyunkturasining o'zgarishiga tezkor javob berib, kapitalning tez aylanmasiga ega bo'lgan kichik korxonalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatmoqda, viloyat va respublika miqyosida byudjet soliq daromadlarining barqaror shakllanishiga xizmat qilmoqda. Soliqlar va yig'imlar to'plami umumiy soliq rejimi hisoblanadi. Shu bilan birga, umumiy soliq rejimi bilan bir qatorda, firmalar va tadbirkorlarni bir qator mintaqaviy va mahalliy soliqlar va yig'imlarni to'lashdan ozod qiladigan maxsus soliq rejimi mavjud. Umuman olganda, sayyohlik tashkilotlari hozirgi vaqtda to'rtta asosiy soliqqa tortish tizimida faoliyat yuritishi mumkin:

- umumiy soliq tizimi;

- soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi (USN);
- yagona daromad solig'i (ENVD) shaklida soliqqa tortish tizimlari;
- patent soliq tizimi.

Turoperatorlar va turagentlar umumiy soliqqa tortish tizimini yoki YeNVD qo'llash huquqiga ega, turistlarga doimiy yashash joyidan tashqarida to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatuvchi korxonalar YeNVD (masalan, umumiy ovqatlanish xizmatlari, vaqtinchalik joylashtirish va yashash xizmatlari) va patent soliq tizimidan (masalan, yo'lovchilarni avtomobil transportida tashish bo'yicha avtotransport xizmatlari ko'rsatuvchi, xalq badiiy hunarmandchiligi buyumlari ishlab chiqaruvchi) foydalanishi mumkin.

### **III BOB. O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURIZM FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

#### **3.1-§. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi subyektlarining soliq yuki kamayishiga ijobiy ta’sir qiluvchi samarali soliq imtiyozlarini beruvchi zamonaviy mexanizmlar.**

Maxsus soliq rejimlarining mohiyati hisobot va soliq davrlari uchun hisoblangan yagona soliq bilan kichik va o‘rta korxonalarining muayyan toifalari uchun soliqlarning ko‘p qismini almashtirishga to‘g‘ri keladi. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari bir qator soliqlarni yagona soliq bilan almashtirishdan iborat.

2021 – 2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021 yilda xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga o‘ydi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022 yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo‘shimcha 1,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlariga erishildi.

Hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta‘minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish maqsadida Respublika hududlarining aholisi soni va zichligi, geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi va infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasidan kelib chiqib, aholisi 300 mingdan kam bo‘lgan tumanlarda sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur‘atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, tex-

nik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish orqali sohani rivojlantirish imkoni mavjudligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, tog'li, tog'oldi, rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini rivojlantirish, chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo'llar o'tgan tumanlarni savdo, turizm, logistika hamda yo'l bo'yi xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lgan tumanlarda zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirish sohani yangi bosqichga olib chiqish imoniyatini beradi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona, joylashtirish vostalari xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun mazkur faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash lozimligi taqdiqot natijasida o'z samarasini berishi mumkinligi aniqlandi. 3.1.1-jadvalda ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to'xtatilishi lozimdir va ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo'llash kerak.

### 3.1.1-jadval

**Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga 2022 yilda ijtimoiy soliq bo‘yicha qo‘llaniladigan imtiyozlar natijasida byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga kutilayotgan yo‘qotishlar to‘g‘risda<sup>99</sup> mln.so‘m**

№	Soha nomlari	Subyektlar soni	Xodimlar soni	2021 yilda ish haqi fondi	2022 yil kutilayotgan ish haqi fondi	Ijtimoiy soliq bo‘yicha 2022 yilda yo‘qotish summasi
1	Mehmonxona xizmati	1 515	10 801,0	214,5	248,8	-27,4
2	Turoperator va turagentlik xizmatlari	803	2 729,0	46,1	53,5	-5,9
3	Avtotransportda yo‘lovchi va yuk tashish hamda transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish	1 418	23 405,6	573,0	664,7	-73,1
4	Kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta‘mirlash	1 741	7 116,0	143,0	165,8	-18,2
5	Umumiy ovqatlanish xizmati	14 193	69 018,0	723,9	839,7	-92,4
6	Chakana savdo xizmati	53 795	188 004,0	2 439,2	2 829,4	-311,2
	<b>Jami</b>	<b>73 465</b>	<b>301 073,6</b>	<b>4 139,7</b>	<b>4 802,1</b>	<b>-528,2</b>

Bundan tashqari, xizmat ko‘rstuvchi turistik subyektlariga ya‘ni mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan er uchastkalari) bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish orqali ularning faoliyatlarini rivojlantirishga olib kelishi tahlillarimizda o‘z ifodasini topdi. Bunda, 2027 yil 1 yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumla-

<sup>99</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

dan, ular egallagan er uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo‘llash foyda solig‘ini hisoblashda binolarning qiymatini 2 yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini berish lozim (3.1.2 va 3.1.3-jadvallar).

### 3.1.2-jadval

#### Savdo komplekslari shug‘ullanuvchi turistik subyektlariga er solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish<sup>100</sup> mln.so‘m

№	Hudud nomi	Er solig‘i			Mol-mulk solig‘i	
		soni	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	Yo‘qotish	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	Yo‘qotish
1	Qoraqalpog‘iston Res.	1	295,7	-266,1	54,4	-49,0
2	Andijon viloyati	3	1 093,0	-983,7	52,9	-47,6
3	Buxoro viloyati	3	1 277,5	-1 149,8	298,7	-268,8
4	Jizzax viloyati	1	336,8	-303,1	0,0	0,0
5	Qashqadaryo viloyati	1	185,6	-167,0	8,5	-7,6
6	Navoiy viloyati	0	0,0	0,0	0,0	0,0
7	Namangan viloyati	2	1 070,2	-963,2	19,0	-17,1
8	Samarqand viloyati	2	444,9	-400,4	186,6	-168,0
9	Surxandaryo viloyati	0	0,0	0,0	0,0	0,0
10	Sirdaryo viloyati	0	0,0	0,0	0,0	0,0
11	Toshkent viloyati	3	857,7	-772,0	540,9	-486,8
12	Farg‘ona viloyati	3	676,5	-608,8	420,3	-378,2
13	Xorazm viloyati	3	826,2	-743,6	159,5	-143,6
14	Toshkent shahri	3	7 633,8	-6 870,4	5 830,0	-5 247,0
	<b>Respublika bo‘yicha</b>	<b>25</b>	<b>14 697,9</b>	<b>-13 228,1</b>	<b>7 570,8</b>	<b>-6 813,7</b>

<sup>100</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



### 3.1.3-jadval

**Mexmonxona va joylashtirish xizmati bilan shug'ullanuvchi turistik subyektlariga er solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish<sup>101</sup> mln.so 'm**

№	Hudud nomi	Er solig'i			Mol-mulk solig'i	
		soni	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	yo 'qotish	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	yo 'qotish
1	Qoraqalpog'iston Res.	26	507,6	-456,9	330,3	-297,3
2	Andijon viloyati	20	1 098,6	-988,7	121,1	-109,0
3	Buxoro viloyati	80	793,2	-713,8	714,0	-642,6
4	Jizzax viloyati	30	881,4	-793,3	155,0	-139,5
5	Qashqadaryo viloyati	30	1 358,3	-1 222,5	207,6	-186,9
6	Navoiy viloyati	36	2 497,8	-2 248,0	499,7	-449,8
7	Namangan viloyati	19	337,2	-303,5	278,6	-250,7
8	Samarqand viloyati	89	26 131,7	-23 518,6	724,3	-651,8
9	Surxandaryo viloyati	38	768,2	-691,4	241,6	-217,5
10	Sirdaryo viloyati	10	94,1	-84,6	81,3	-73,2
11	Toshkent viloyati	52	6 372,1	-5 734,9	1 015,2	-913,7
12	Farg'ona viloyati	48	1 282,2	-1 154,0	1 052,7	-947,4
13	Xorazm viloyati	48	742,2	-668,0	501,2	-451,1
14	Toshkent shahri	159	12 355,5	-11 120,0	8 012,6	-7 211,3
	<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>686</b>	<b>55 644,9</b>	<b>-50 080,5</b>	<b>13 935,3</b>	<b>-12 541,8</b>

Turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi (3.1.4-jadval) ya'ni ularni soliqqa tortishda aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foiz qo'llash lozimligi taklif etilmoqda.

<sup>101</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

### 3.1.4-jadval.

**Mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan tuman va shaharlar**

#### **RO'YXATI<sup>102</sup>**

<b>T/r</b>	<b>Tuman (shahar)</b>	<b>Hudud</b>
1.	Taxtako'pir tumani	Qoraqalpog'iston Respublikasi
2.	Xo'jayli tumani	
3.	Ellikqala tumani	
4.	Xonobod shahri	Andijon viloyati
5.	Kogon tumani	Buxoro viloyati
6.	Romitan tumani	
7.	Arnasoy tumani	Jizzax viloyati
8.	Zomin tumani	
9.	Forish tumani	
10.	Kitob tumani	Qashqadaryo viloyati
11.	Shahrisabz tumani	
12.	Qamashi tumani	
13.	Xatirchi tumani	Navoiy viloyati
14.	Nurota tumani	
15.	Qiziltepa tumani	
16.	Chust tumani	Namangan viloyati
17.	Yangiqo'rg'on tumani	
18.	Urgut tumani	Samarqand viloyati
19.	Payariq tumani	
20.	Samarqand tumani	
21.	Toyloq tumani	
22.	Xovos tumani	Sirdaryo viloyati
23.	Boysun tumani	Surxondaryo viloyati
24.	Angren shahri	Toshkent viloyati
25.	Ohangaron tumani	
26.	Parkent tumani	
27.	Bo'stonliq tumani	Farg'ona viloyati
28.	Rishton tumani	
29.	Bog'ot tumani	Xorazm viloyati
30.	Xiva shahri	
31.	Xiva tumani	

<sup>102</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu ro'yxatga boshqa tuman va shaharlarni qo'shish yoki o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga berish kerak. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari turizm hududlarini turizm rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda belgilashlari kerak (3.1.5-jadval). Bunda, bitta tuman (shahar)da bir nechta turizm hududi belgilanishi mumkin.

### 3.1.5-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi Turizm sohasini rivojlantirishga bo'yicha taklif etilayotgan Aylanmadan olinadigan soliq (AOS) stavkasi 1 foizga tushurilishi natijasida byudjetga 2022 yilda AOS bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar hisob-kitobi taxlili<sup>103</sup>**

*mln.so'm*

№	Hudud nomi	Taklif etilgan imtiyozli faoliyat turlari bo'yicha			
		Kor-xona soni	2022 y. hisoblanishi kutilayotgan AOS ( <i>imtiyozni inobatga olmagan holda</i> )	AOS stavkasi 1 foiz bo'lganida hisoblanishi kutilayotgan AOS	Imtiyoz natijasida yo'qotish ( <i>2022 yilda</i> )
<b>Jami hudud bo'yicha:</b>		<b>14 090</b>	<b>77 534,2</b>	<b>44 198,6</b>	<b>-33 335,6</b>
<b>I.</b>	<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>	<b>700</b>	<b>7 597,0</b>	<b>4 506,6</b>	<b>-3 090,4</b>
1	Ellikqala tumani	325	5 290,9	3 141,6	-2 149,3
2	Taxtakupir tumani	70	285,0	168,4	-116,6
3	Xo'jayli tumani	305	2 021,1	1 196,6	-824,6
<b>II.</b>	<b>Andijon viloyati</b>	<b>751</b>	<b>4 239,2</b>	<b>2 440,3</b>	<b>-1 798,9</b>
4	Xonobod shahar	204	649,4	356,7	-292,7
5	Shaxrixon tumani	547	3 589,9	2 083,6	-1 506,3
<b>III.</b>	<b>Buxoro viloyati</b>	<b>994</b>	<b>6 271,2</b>	<b>3 577,1</b>	<b>-2 694,1</b>
6	Kogon tumani	318	1 920,0	1 084,0	-836,1

<sup>103</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

7	Romiton tumani	676	4 351,2	2 493,1	-1 858,1
<b>IV.</b>	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>867</b>	<b>5 471,8</b>	<b>3 070,4</b>	<b>-2 401,4</b>
8	Arnasoy tumani	120	666,8	398,8	-268,0
9	Zomin tumani	456	3 978,1	2 188,1	-1 790,0
10	Forish tumani	291	826,9	483,6	-343,4
<b>V.</b>	<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1 159</b>	<b>5 691,3</b>	<b>3 182,2</b>	<b>-2 509,2</b>
11	Kitob tumani	582	3 641,9	1 957,3	-1 684,5
12	Qamashi tumani	577	2 049,5	1 224,8	-824,7
<b>VI.</b>	<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 677</b>	<b>6 773,3</b>	<b>3 991,1</b>	<b>-2 782,2</b>
13	Qiziltepa tumani	1 220	2 397,6	1 400,3	-997,3
14	Nurota tumani	341	1 094,6	631,4	-463,2
15	Xatirchi tumani	1 116	3 281,1	1 959,4	-1 321,7
<b>VII.</b>	<b>Namangan viloyati</b>	<b>1 000</b>	<b>6 988,6</b>	<b>4 027,9</b>	<b>-2 960,8</b>
16	Chust tumani	625	4 158,4	2 378,7	-1 779,7
17	Yangiqo'rg'on tumani	375	2 830,2	1 649,2	-1 181,1
<b>VIII.</b>	<b>Samarqand viloyati</b>	<b>896</b>	<b>3 258,4</b>	<b>1 875,6</b>	<b>-1 382,8</b>
18	Urgut tumani	896	3 258,4	1 875,6	-1 382,8
<b>IX.</b>	<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>340</b>	<b>3 044,7</b>	<b>1 806,2</b>	<b>-1 238,6</b>
19	Boysun tumani	340	3 044,7	1 806,2	-1 238,6
<b>X.</b>	<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>181</b>	<b>654,6</b>	<b>383,1</b>	<b>-271,5</b>
20	Xovos tumani	181	654,6	383,1	-271,5
<b>XI.</b>	<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2 541</b>	<b>15 198,4</b>	<b>8 129,7</b>	<b>-7 068,8</b>
21	Angren shahar	726	4 715,0	2 458,9	-2 256,1
22	Bo'stonliq tumani	860	5 576,1	2 925,8	-2 650,3
23	Oxangaron tumani	218	843,7	450,1	-393,6
24	Parkent tumani	737	4 063,6	2 294,9	-1 768,7
<b>XII.</b>	<b>Fag'ona viloyati</b>	<b>403</b>	<b>2 109,4</b>	<b>1 198,1</b>	<b>-911,4</b>
25	Rishton tumani	403	2 109,4	1 198,1	-911,4
<b>XIII.</b>	<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 581</b>	<b>10 236,0</b>	<b>6 010,4</b>	<b>-4 225,6</b>
26	Xiva shahar	730	4 972,3	2 960,8	-2 011,5
27	Xiva tumani	449	2 512,6	1 474,8	-1 037,8
28	Bog'ot tumani	402	2 751,1	1 574,8	-1 176,3

Ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan er uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i miqdorlarini mazkur soliqlar

bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash (3.1.6-jadval) tavsiya etiladi.

### 3.1.6-jadval.

#### Turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha er solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish<sup>104</sup> mln.so'm

№	Hudud nomi	Er solig'i			Mol-mulk solig'i	
		soni	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	Yo'qotish	2022 yilda xisoblanishi kutilayotgan soliq	Yo'qotish
1	Qoraqalpog'iston Res.	82	838,4	-622,5	332,9	-247,2
2	Andijon viloyati	85	1 189,3	-883,1	346,5	-257,3
3	Buxoro viloyati	56	336,8	-250,1	199,5	-148,2
4	Jizzax viloyati	93	2 342,3	-1 739,1	246,1	-182,7
5	Qashqadaryo viloyati	163	1 446,9	-1 074,3	345,5	-256,5
6	Navoiy viloyati	192	661,7	-491,3	373,9	-277,6
7	Namangan viloyati	82	944,2	-701,1	374,7	-278,2
8	Samarqand viloyati	101	958,3	-711,5	387,5	-287,7
9	Surxandaryo viloyati	51	407,5	-302,6	165,5	-122,9
10	Sirdaryo viloyati	21	62,6	-46,5	9,3	-6,9
11	Toshkent viloyati	277	12 909,7	-9 585,5	1 374,7	-1020,7
12	Farg'ona viloyati	18	204,8	-152,1	55,7	-41,4
13	Xorazm viloyati	170	1 445,3	-1 073,1	480,7	-356,9
14	Toshkent shahri	0	0,0	0,0	0,0	0,0
	<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>1 391</b>	<b>23 747,9</b>	<b>-17 632,8</b>	<b>4 692,3</b>	<b>-3 484,1</b>

<sup>104</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tuman va shaharlarning turizm hududlari chegaralari belilashda Turizm va sport vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining hududiy bosh boshqarmalari xulosalari asosida hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan qo'shimcha kiritish mumkin.

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlari hajmini keskin ko'paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qadar chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 483-moddasiga asosan 2022 yil 1 yanvarga qadar bo'lgan davrda 2020 yil 31 dekabr-dagi holatga ko'ra faoliyatni turizm sohasida amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha soliq qarzini majburiy ravishda undirish, shuningdek, quyidagilar bo'yicha penya hisoblash choralari ko'rilmaligi belgilangan.

2021 yil 31 dekabrgacha bo'lgan davr uchun turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida mehmonxona xizmatlari (joylashtirish xizmatlari) ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lash mexanizimi, ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha, yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lashdan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksning 75-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari turistik zonalarda joylashgan alohida

sanatoriy-kurort obyektlari egallagan er uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va er solig'ining kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash yoki soliq to'lashdan ozod qilish huquqiga egaligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 30 aprel kunidagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-sonli qarorining 1-bandiga asosan 2022 yil 1 iyundan boshlab «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturi doirasida sayohat xarajatlarining bir qismi ish beruvchilarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplab beriladi. Ushbu qarorning 4-bandiga asosan 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturi doirasida respublika hududlari bo'ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish xarajatlarining bir qismini qaytarish («Cashback») tartibini joriy etish belgilangan.

Unga ko'ra, sayohat xarajatlarini qaytarish ichki sayohatlarni rejalashtirish va mablag'larni qaytarish hamda «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturi doirasida taqdim qilinadigan chegirmalar, tayyor turistik paketlarni mustaqil shakllantirishni nazarda tutuvchi elektron platforma, shu jumladan uning mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

Sayohat xarajatlarini qaytarish har bir turistga quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

- aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so'mdan oshmagan miqdorda;
- temir yo'lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;
- joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;

- teatr, muzey, tsirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so‘mdan oshmagan miqdorda.

Sayohat xarajatlari faqatgina Platforma orqali amalga oshirilgan ichki sayohatlar uchun uning yakuni bilan mahalliy turistlarning bank kartalariga qaytarish mexanizimi joriy qilindi.

Platforma Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi soliq.uz bilan integratsiya qilingan holda, xarajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, xarid chekining matritsali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko‘rsatish orqali sayohatlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Turizm va madaniy meros vazirligiga 2022 yil 1 sentyabrga qadar platformani ishlab chiqish va ishga tushirish 2022 yil 1 oktyabrga qadar joylashtirish vositalari, turoperator va turagentlar, gid (gid-tarjimon), yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi va ekskursiya etakchilari platforma orqali o‘z xizmatlarini yo‘lga qo‘yishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish hamda turizm sohasi subyektlari o‘rtasida platforma imkoniyatlarini doimiy targ‘ib qilib borish, platformaga xizmat ko‘rsatish va keyinchalik modernizatsiya qilish hamda doimiy ravishda texnik qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, 2022 yil 1 iyuldan boshlab “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomi berilgan fuqarolar yig‘inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish, ko‘ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun quyidagi imtiyozlar beriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-104-son qarori 2-bandiga asosan 2022 yil 1 apreldan 2025 yil 1 yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari ko‘rsatuvchi hamda ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini



1 foiz etib belgilandi. Bunda, mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning mazkur kichik bandda ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo'llaniladi.

Ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to'xtatiladi hamda qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Turoperator xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar (joylashtirish, avtomobil yoki temir yo'l transporti, ekskursiya va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar qamrab olingan) bo'yicha chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foiz miqdoridagi mablag'lar respublika byudjetidan subsidiya sifatida qaytarish, mahalliy turoperatorlar, turizm sohasida joylashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi yoki avtomobil transportida yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatida yo'lovchilarni tashishda foydalaniladigan va haydovchi bilan birga o'n va o'ndan ortiq o'rindiqqa ega bo'lgan hamda ishlab chiqarilganiga 5 yildan ortiq bo'lmagan transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda qo'shilgan qiymat solig'ini foizlar hisoblanmagan va ularning to'lanishini ta'minlash talab etilmagan holda 12 oy muddatga bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berish taklifi turizm sohasi subyektlarini soliqqa tortish tizimini hamda turizm sohasini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish uchun soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashga doir ishlab chiqilgan takliflarni boyitishga imkon beradi.

Tadbirkorlik subyektlariga 2022 yil 1 yanvardan boshlab 2027 yil 1 yanvarga qadar mehmonxona hamda joylashtirish vositalari shu jumladan, ular egallagan er uchastkalari bo'yicha, yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish taklifi 2027 yil 1 yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga shu jumladan, ular egallagan er uchastkasiga nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llaniladi.

Foyda solig'ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini beriladi.

2022 yil 1 apreldan boshlab 2025 yil 1 yanvarga qadar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Xojoyli, Ellikqala tumanlarida,

- Andijon viloyatining Xonobod shahrida,

- Buxoro viloyatining Kogon va Romitan tumanlarida,

- Jizzax viloyatining Arnasoy, Zomin, Forish tumanlarida

- Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz va Qamashi tumanlarida,

- Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota, Qiziltepa tumanlarida,

- Namangan viloyatining Chust, Yangiqo'rg'on tumanlarida,

- Samarqand viloyatining Urgut tumanida,

- Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida,

- Surxandaryo viloyatining Boysun tumanida,

- Toshkent viloyatining Angren shahri, Ohangaron, Parkent,

Bo'stonliq tumanlari

- Farg'ona viloyatining Rishton tumanida,

- Xorazm viloyatining Xiva shahri, Xiva va Bog'ot tumanlari turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona, savdo, ko'ngilochar, turoperator va tur-

agent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foiz belgilash orqali ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan er uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i miqdorlarini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilangan.

Jismoniy shaxslar tomonidan mahallalararo savdo-xizmat ko'chalarini bo'yida joylashgan turarjoy obyektlarini mehmonxona xizmati ko'rsatish turi bo'yicha noturarjoy obyektiga toifasiga o'tkazilganda 2024 yil 1 yanvarga qadar ularga nisbatan mol-mulk solig'i va er solig'ining jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan stavkasini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli Farmonining 9-bandiga asosan 2023 yil 1 yanvarga qadar etib borish qiyin bo'lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo'llaridan 5 km uzoqlikda) kempinglar va «safari» turizmini tashkil etish bo'yicha turizm xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar alohida avtonom infratuzilmani yaratgan taqdirda mazkur faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, er solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliq to'lashdan ozod etiladi.

Yuridik shaxslar, ularning loyiha tashkilotlari, bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlari jahon standartlariga mos va zarur madaniy ko'ngilochar infratuzilmalariga ega golf majmualarini barpo etish loyihasini amalga oshirish doirasida: foyda solig'i, er solig'i va mol-mulk solig'idan loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondi qismi bo'yicha ijtimoiy soliqdan loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan

tovarlarni, shu jumladan “vaqtincha olib kirish” bojxona rejimida olib kirishda bojxona boji va aktsiz solig‘idan hamda namunaviy loyihalar bo‘yicha zamonaviy sanitariya-gigiena shoxobchalarini qurish va (yoki) ularning faoliyatini tashkil etishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, er solig‘i va mol-mulk solig‘i, shuningdek, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli Farmoniga asosan 2021 yil 31 dekabrga qadar kamida 10 kishidan iborat xorijiy turistik guruhlar uchun O‘zbekiston Respublikasida tur tashkil etish va ularning joylashtirish vositalarida kamida besh kecha tunab qolishi sharti bilan turoperatorlarning avia va temir yo‘l chiptalari bo‘yicha xarajatlarini chipta narxining 30 foizi miqdorida qisman subsidiyalash mexanizimi amaliyotga joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2018 yildagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-sonli qaroriga asosan 2018 yil 10 fevraldan boshlab 2023 yil 31 dekabrga qadar quyidagi tartib joriy etilgan bo‘lib, unga ko‘ra ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan subyektlardan xodimlar va ularning oila a‘zolari uchun respublika bo‘ylab turistik yo‘llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko‘rib chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi lozim. Jismoniy shaxslarning daromad solig‘ini hisoblashda soliqqa tortiladigan daromadlari summasi O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab turistik yo‘llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lgan subyektlardan sotib olish-

ga yoʻnaltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Bunda turistik yoʻllanma ayirboshlanadigan vaucher, avia va temir yoʻl chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

Turizm sohasida faoliyat koʻrsatadigan subyektlarning soliq solinadigan bazasi Oʻzbekiston turizm brendi va «Uzbekistan.travel» sayti reklamasi boʻlgan bosma mahsulotlarni (xaritalar, risolalar, bukletlar, flayerlar va boshqalar), suvenir va qadoqlash mahsulotlarini (sumkalar, paketlar, maktab daftarlari, yorliqlar, gʻiloflar, kiyim-kechaklardagi va oshxona anjomlaridagi yozuvlar) tayyorlash va chop etishga yoʻnaltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytirish mexanizimi joriy etildi.

### **3.2-§. Turizm industriyasida zamonaviy soliq tizimini takomillashtirish yoʻllari**

Oʻzbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish va uning vositasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkchilarini taʼminlash imkoniyati va zaxiralariga ega. Buni turizm sohasidagi asosiy koʻrsatkichlarning dinamikasi va unga davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligida ham koʻrish mumkin. Xususan, ohirgi yillarda xorijiy turistlar oqimi va ularga koʻrsatilgan turizm xizmatlari hajmining keskin oshishi, sohadagi tadbirkorlik subyektlari va band boʻlganlar sonining oʻsishi va oʻz navbatida ushbu sohani iqtisodiyotning ayrim boshqa sohalariga qaraganda yuqori salohiyatini koʻrsatib berdi.

Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, 2022 yilda Oʻzbekiston milliy iqtisodiyotida turizmning toʻgʻridan-toʻgʻri ulushi 13,6 trln, soʻmni yoki YaIMning 2,7%ini tashkil etgan boʻlsa, jami ulushi esa (bilvosita hamda hosilaviy ulushi bilan) 24,7 trln, soʻm yoki YaIMning 4,9%iga

teng bo'ldi<sup>105</sup>. Bundan, ma'lumki, O'zbekistonda turizmning iqtisodiyotga multiplikativ ta'siri 1,8 ga teng, ya'ni bevosita turizm sohasida yaratilgan har 1 so'm, iqtisodiyotda 1,8 so'mli mahsulot va xizmat yaratilishiga asos bo'ladi.

Turizm sohasi bandlikni ta'minlash masalalarida ham alohida ahamiyatga ega. 2017 yildan xorijiy turistlar oqimining jadal o'sishi va turizm xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi natijasida sohadagi tadbirkorlik subyektlarining soni ko'paya boshladi. Turoperatorlar soni 2016 yildagi 425 tadan 2022 yilda 1 482 taga (3,5 barobar) etgan bo'lsa, joylashtirish vositalari soni 750 tadan 1 310 taga (1,7 barobar) etdi. Mos ravishda mazkur sohada bevosita band bo'lganlar soni ham 2016 yildagi 170,9 ming kishidan 2022 yilda 230,5 ming kishiga etdi.


Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2016 yilda har 12 ta xorijiy turistga 1 ta ish o'rni to'g'ri kelgan bo'lsa (har 4 turistga 1 ish o'rni), 2022 yilga kelib kelib 1 ish o'rni 29 ta xorijiy turistga (har 5 turistga 1 ish o'rni) to'g'ri keladi. Mazkur holatni 2022 da O'zbekistonda "Yashirin iqtisodiyot" hajmi YaIMning 48%<sup>106</sup>ga tengligini inobatga olgan holda turizm sohasida ham "yashirin iqtisodiyot" hajmi ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, turizm sohasining iqtisodiyotning ishlab chiqarish (qayta ishlash) va boshqa soha hamda tarmoqlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra, turizm sohasi faqatgina metallurgiya va metalni qayta ishlash sanoati hamda oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlaridan tashqari qolgan soha va tarmoqlarga qaraganda 2022 yilda yuqoriroq qo'shilgan qiymat yaratgan va milliy iqtisodiyotda salmoqli o'ringa ega bo'lgan (3.2.1-rasm).

---

<sup>105</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

<sup>106</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.



### 3.2.1-rasm. Turizm sohasini iqtisodiyotning ishlab chiqarish va boshqa soha va tarmoqlari bilan qiyosiy tahlili<sup>107</sup> (2022 yil, trln, so'm)

Turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkichining xorijiy mamlakatlardagi holat bilan taqqoslama tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 2022 yilda har 1000 ta ish bilan band bo'lganlarning 17 tasi turizm sohasida faoliyat yuritgan bo'lsa, dunyo bo'yicha har 1000 ish o'rnidan 100 tasi, Qozog'istonda – 49 ta, Rossiyada – 56 ta, Belarussiyada – 67 ta, Eron-da – 73 ta, Ozarbayjonda – 77 ta, Qirg'izistonda – 85 ta, Malayziyada – 147 ta, Gruzniyada – 277 ta ish o'rni turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Respublikamizdagi mavjud turistik resurslar salohiyatini etiborga olganda, erishilgan ko'rsatkichlar qoniqarli emasligi va mazkur sohada iqtisodiy foyda keltiradigan katta zaxira mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Oldingi boblarda ta'kidlanganidek, turizm xizmatlariga bo'lgan talab uning narxiga nisbatan yuqori egiluvchanlikka ega, ya'ni xorijiy turistlarni sayohat uchun manzil tanlashlarida va turizm xizmatlaridan foydalanishlariga narx katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlar sohasida narx

<sup>107</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

shakllanishida esa, mehnat va kapital resurslari narxi bilan bir qatorda soliqlar va boshqa majburiy yigʻimlar oʻrni katta. Bunda, ayniqsa turizm sohasidagi soliq imtiyozlarining undagi subyektlar soliq yukini kamaytirish borasidagi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida sohadagi soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi va samaradorligini nazariy tadqiqi va amaliy tahlili bu borada bir qator hal etilishi lozim boʻlgan masalalar mavjudligini koʻrsatmoqda.

Maʼlumki, investorlar uchun turli mamlakatlarda soliq tizimidagi mavjud tartibning (imtiyozlar va cheklovlar) mazkur mamlakatga kiritiladigan investitsiya va koʻriladigan foydaga boʻladigan soliq yukini baholashda qoʻllaniladi. Soliq yukining yuqorigi sohaga investitsiyalar kirishini sekinlashtiradi va turizm taklifini shakllantiruvchi turizm infratuzilmasini rivojlanishiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu esa, pirovardida, turizm mahsulotlari va xizmatlari narxining oshishiga olib keladi.

Sohani ragʻbatlantirish, shu jumladan soliq yukini kamaytirish uchun Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasiga soliq mexanizmlarini takomillashtirish va soliq imtiyozlarini berish borasida aniq mezon va mexanizmlar, ularning samaradorligini davriy baholab borishning yagona uslubiyati va tartibi mavjud emas.

Bu esa, soha subyektlariga kerak boʻlmagan soliq imtiyozlarining berilishi va ulardan umuman foydalanilmasligi, berilgan soliq imtiyozlarining samarasizligi va byudjetga ortiqcha bosimni yuzaga keltirishiga olib kelmoqda, shuningdek ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga toʻsqinlik qilmoqda<sup>108</sup>

---

<sup>108</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4389-sonli qarori.



Xususan, turizm sohasi subyektlariga taqdim qilingan jami 11 ta soliq imtiyozlaridan 2021 – 2022-yillar davomida 1 tasidan umuman foydalanilmagan bo‘lsa, qolganlaridan jami 35,5 mlrd so‘m miqdorida 148 ta subyekt foydalangan. Soliq imtiyozini taqdim etishdan oldin maqsadga muvofiqligi baholanmaganligi hamda samaradorligi davriy o‘rganib borilmaganligi uchun amaldagi soliq imtiyozlarning aksariyati amaliyotda samaradorligi kutilganidek past darajani tashkil qiladi.

Shuningdek, sohadagi soliq xarajatlari hisobining mavjud emasligi hamda investorlar uchun soliq mexanizmlarining samaradorligini baholash uslubiyati mavjud emas. Shuningdek, soliq mexanizmlarining samaradorligini baholash natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish algoritmining mavjud emas.

Joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish nuqtalari va turoperatorlar faoliyatining o‘ziga xosligi, xususan ularning xizmatlari tan-narxini tashkil qiladigan tarkibiy qismlari tahlili ko‘ra, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va realizatsiya qilinadigan mahsulotlar tan-narxining 80% gacha bo‘lgan qismini xodimlar ish haqi, ichki operatsion xarajatlar tashkil qilib, QQS zanjiri bo‘yicha etkazib beruvchilardan olinadigan xizmat va mahsulotlar 15%dan kam qismini tashkil qiladi.

Natijada, ushbu subyektlar uchun QQS aylanmadan olinadigan soliqqa aylanmoqda hamda ikki martalik soliq to‘lashiga olib kelmoqda. Bu ham turizm mahsuloti va xizmatlarining narxini oshishiga va raqobatbardoshligining kamayishiga olib keladi.

2020 yilning boshiga kelib dunyoda keng tarqalgan pandemiya natijasida O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining barcha jabhalari qatorida turizm sohasiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Turizm sohasiga ko‘rsatgan ta’sir ko‘lamini tashrif buyuruvchilar soni

va turizm xizmatlari eksporta hajmining keskin kamayganligidan ko‘rish mumkin.

Xususan, 2020 yilning yanvar va fevral oylarida xorijiy turistlar tashrifi 2019 yilning tegishli davriga nisbatan o‘rtacha 12,5 foizga o‘sgan bo‘lsa, mart oyida o‘tgan yilning ushbu oyiga nisbatan 57,2 foizga kamaydi, aprel oyiga kelib esa xorijiy turistlar oqimi to‘xtadi. 2020 yil yakuni bo‘yicha xorijiy turistlar tashrifi 2019 yilga qaraganda 4,5 barobarga kamaydi. Turizm xizmatlari eksporta hajmi esa 2020 yil davomida 2019 yildagi ko‘rsatkichlardan 5 barobarga pasaydi. Buning oqibatida mamlakat turizm sohasi o‘tgan yil davomida jami 1 052,1 mln. doll, miqdoridagi daromadni yo‘qotdi. Pandemiya ta‘sirida 81% turoperatorlar va joylashtirish vositalarining 63% o‘z faoliyatini to‘xtatib turishga majbur bo‘lishgan. Turoperator va joylashtirish vositalarining asosiy qismi xodimlar sonini o‘z sharoitidan kelib chiqib qisqartirishgan.

Mazkur holat esa, turizm sohasida erishilgan ijobiy natijalar, shu jumladan mazkur sohadagi tadbirkolik faoliyatining jozibadorligiga, turizm xizmatlari taklifining xilma-xilligi, sifati va narxiga, xorijiy turistlar uchun jozibali turistik maskan sifatida tanlanishiga va ichki turistik faollikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmadi.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalaridan kelib chiqib, jahon tajribasi va mamlakatimizdagi turizm rivojlanishi tahlillari asosida quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni taklif etamiz:

Turizm sohasida amaldagi soliq mexanizmlarining samaradorligini oshirish:

1) Samarasiz soliq mexanizmlarini bekor qilish va takomillash-tirish. Dissertatsiya ishining 2-bobidagi tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki, turizm sohasi subyektlariga taqdim qilingan soliq imtiyozlaridan soliq chegirmalari qolgan ikki turdagi soliq imtiyozlariga nisbatan past

samaradorlikka ega bo'lgan. Xususan, mazkur soliq mexanizimlari natijasida 15,9 mlrd.so'm soliq xarajatlari bo'lgan hamda ular orqali qo'shimcha bir ish o'rni yaratishga to'g'ri kelgan soliq xarajatlari miqdori 5,1 mln.so'mga teng bo'lgan.

Shuningdek, ushbu turdagi ba'zi soliq imtiyozlari o'tgan davr mobaynida foydalanilmagan. Shularni inobatga olgan holda, turizm sohasidagi amaldagi soliq mexanizimlarini takomillashtirish maqsadida, turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan bazasi O'zbekiston turizm brendi va "Uzbekistan.travel" sayta reklamasi bo'lgan bosma mahsulotlarni, suvenir va qadoqlash mahsulotlarini tayyorlash va chop etishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytirish<sup>109</sup> soliq chegirmasini bekor qilish lozim.

2) Zamonaviy sanitariya-gigiena tarmoqlarini qayta tiklash, kapital ta'mirlash va qurishga yo'naltirilgan 100 million so'mgacha bo'lgan xarajatlarini soliq solinadigan bazadan chegirish soliq mexanizmi<sup>110</sup> o'rniga sanitariya-gigiena shoxobchalarini qurish yoki ularning faoliyatini tashkil etishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha ma'lum davrda yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, er soligi va mol-mulk soligi to'lashdan ozod etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi;

3) Turizm mahsulotlarini sotish yoki turizm xizmatlarini onlayn bron (band) qilish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliqqa solinadigan bazasini elektron xizmatlarni, jumladan, elektron to'lovlar, bron (band) qilish, ekvayring va boshqa xizmatlarni, shuningdek, turizm xizmatlarining zamonaviy turlarini taklif

---

<sup>109</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-son qarori 8-bandi to'rtinchi xatboshi.

<sup>110</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmoni 15-bandi.

qiluvchi ixtisoslashtirilgan internet-saytlar va portallarni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan xarajatlar miqdoriga<sup>111</sup> emas, balki ushbu xarajatlarning ikki barobari miqdorida kamaytirishni joriy qilish lozim;

4) Soliq yuki kamayishiga ijobiy ta'sir qiluvchi amaldagi samarali soliq mexanizmlarini uzaytirish hamda ularni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Dissertatsiya tadqiqoti doirasidagi tahlillarga ko'ra, mehmonxonalarni boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarining mehnatiga haq to'lash fondidan ijtimoiy soliqni to'lashdan hamda mehmonxonalarga boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislar daromadlarini jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etish<sup>112</sup>, etib borish qiyin bo'lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo'llaridan 5 km uzoqlikda) kempinglar va «safari» turizmini tashkil etish bo'yicha turizm xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar alohida avtonom infratuzilmani yaratgan taqdirda mazkur faoliyat turi b'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, er solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek, ijtimoiy soliq to'lovlarini to'lashdan ozod etish<sup>113</sup>.

5) Turizm sohasida soliq mexanizmlarining doimiy samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi soliq mexanizmlarining maqsadli va samarali berilishini ta'minlash hamda berish jarayoni shaffofligini ta'minlash maqsadida soliq imtiyozlarini aniq mezon va mexanizmlarni ishlab

---

<sup>111</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son Farmoni 10-bandi ikkinchi xatboshi.

<sup>112</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3217-son karorining 11-bandi.

<sup>113</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-son Farmoni 9-bandi.

chiqish lozim. Soliq imtiyozlari turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha strategiya, kontsepsiya va boshqa davlat dasturlariga muvofiq berilishi, shuningdek, soliq imtiyozlaridan ko'zlangan maqsad ularni berish orqali yuzaga keladigan soliq xarajatlari va olinadigan foyda (yaratiladigan infratuzilma obyekta, ko'rsatiladigan turizm xizmati hajmi, turizm xizmati eksporta, ish o'rni va boshqalar) bilan asoslangan bo'lishi kerak. Beriladigan har bir soliq imtiyozlarining maqsadga muvofiqligini dastlabki baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- soliq imtiyozlaridan ko'zlangan maqsadning turizm sohasini rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari va ko'rsatkichlariga muvofiq bo'lishi;

- turizm bozorida aniq nuqsonlarning ("market failure") ta'sirini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi;

- qo'yilgan maqsadga erishish va turizm bozori nuqsonlarining ta'sirini kamaytirish bo'yicha taklif etilayotgan soliq imtiyozining muqobil echimlardan foydaliroq bo'lishi lozim.

6) Uzoq muddatli istiqbolda barqaror turizm rivojlanishiga qaratilgan soliq siyosatini takomillashtirish.

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va salmog'i hamda ijtimoiy-iqtisodiy multiplikativ samarasini inobatga olgan holda koronavirus pandemiyasidan keyingi jadal tiklanish bilan bir qatorda o'rta va uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish sur'atiga erishish rejalashtirish muhim hisoblanadi. Zero, to'g'ri rejalashtirish va samarali choralarni ko'rish orqali 2030 yilgacha mamlakat turizm sohasining YaIMdagi ulushini 7% ga etkazish imkoniyati mavjud.

Buning uchun esa, quyidagi yo'nalishlarda soliq islohotlarini amalga oshirish talab etiladi.

Turizm sohasining o'ziga xosligi va xorijiy tajribadan kelib chiqib, turizm sohasi subyektlari, ayniqsa, joylashtirish vositalari, turoperatorlar va umumiy ovqatlanish nuqtalari uchun pasaytirilgan QQS stavkasini qo'llash lozim.

Xususan, joylashtirish vositalari tomonidan ko'rsatiladigan mehmonxona xizmatlari tannarxining asosiy qismini xodimlar uchun ish haqi va ma'muriy xarajatlar tashkil qilganligi sababli yakuniy xizmat qiymatida hisobga olinadigan QQS hajmining kamligi mazkur soliqni aylanmadan olinadigan soliq ko'rinishiga olib keladi. Bu esa, bitta soliq obyektini takroriy soliqqa tortisha holatini yuzaga keltiradi va soliq yukini oshiradi. Shuningdek, turizm sohasi subyektlarining soliq yuklamasini kamaytirish maqsadida aylanmadan olinadigan soliq miqdori, ijtimoiy soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk va er solig'i bo'yicha minimal 1 foiz soliq stavkasi belgilash asosida maqbul rejim hosil bo'ladi.

Turoperatorlar faoliyatida ham ushbu holatni kuzatish mumkin. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda turoperatorlar Soliq kodeksiga asosan 2003 yilgacha xizmatlar eksportyorlari sifatida tasniflangan hamda xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun "nol" stavkadagi QQS amalda bo'lgan.

Umumiy ovqatlanish nuqtalarida esa ta'minot zanjiridagi asosiy bo'g'in bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarida QQS qo'llanilmasligi tufayli QQSni hisobga olishda qiyinchilik mavjud. Natijada, ular uchun ham QQS aylanmadan olinadigan soliq ko'rinishiga keladi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda aksariyat xorijiy mamlakatlarda 15 – 25% bo'lgan QQS stavkasini joylashtirish vositalari, turoperatorlar va umumiy ovqatlanish nuqtalari uchun 2 – 10 pasaytirilgan stavkadagi QQS joriy qilingan. Shundan kelib chiqib, joylash-

tirish vositalari, turoperatorlar va umumiy ovqatlanish nuqtalari uchun QQS stavkasini pasaytirish maqsadga muvofiq.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda turizm faoliyati subyektlarining barchasi turoperatorlar deb yuritiladi hamda yuridik shaxs sifatida ularning turizm faoliyati litsenziyalanadi. Hozirda tegishli litsenziya asosida faoliyat yuritib kelayotgan jami 1200 tadan ortiq turoperator va turagentlarning faoliyat harakteri farqli bo‘lganligi sababli hamda turagentlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish maqsadida turizm faoliyati subyektlarini turoperator va turagent sifatida alohida tasniflash hamda turagentlarni jismoniy shaxs sifatida soliqqa tortish tizimini engillashtirish maqsadga muvofiq.

Xorijiy va mahalliy turistlarni tashrif davomida ko‘proq xarid qilishga rag‘batlantirish xam mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlarni jozibali narxlar bilan ko‘proq xarajat qilishlarini ragbatlantirish maqsadida xorijiy tajribada xarid qilingan tovarlardagi QQSni xorijiy turistga qaytarish tizimi “Tax Free” samarali qo‘llanib kelinadi.

Shuni inobatga olgan holda, turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlariga ular tomonidan 5 nafardan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar bo‘yicha hisobvara-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdoridagi mablag‘larni (Tax Free) respublika byudjetidan subsidiya sifatida qaytarish taklif etiladi.

Mahalliy turoperatorlar, mehmonxonalar va yo‘lovchilarni tashish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlariga turistlarga xizmat ko‘rsatishda foydalaniladigan transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmagan holda olib kirish taklif etiladi.

Shu bilan birgalikda, ta'kidlash lozimki turizm sohasini rivojlanishi uchun soliq mexanizimlarini takomillashtirish bo'yicha yuqorida keltirilgan takliflarning o'zigina etarli bo'lmay, ushbu takliflarning samaradorligini ta'minlash maqsadida mamlakatda turizm mahsulotlarining iste'molchilari va mos ravishda kirish turizmi bo'yicha maqsadli xorijiy mamlakatlarni tanlab olish, ularning o'ziga xosligidan kelib chiqib, har bir mamlakat uchun alohida yondashgan holda "O'zbekiston milliy turizm brendini" targ'ib qilish strategiyasini ishlab chiqish hamda mamlakatda qulay va maqbul tadbirkorlik va investitsion muhitini yaratish maqsadga muvofiq.

### **3.3-§. O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish orqali turizm sohasini rivojlantirishni uzoq istiqbol davrga mo'ljallangan prognoz rejalar**

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha samarali davlat siyosatini yuritish, xususan ushbu sohada fiskal siyosatining yo'nalishlarini belgilashda o'rta va uzoq istiqbol davrda turli stsenariylar asosida asosiy ko'rsatkichlarni prognozlashtirish muhim hisoblanadi.

Bunda, turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlarini tegishli davr uchun shakllantirish va tizimlashtirish, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish asosida ularning prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish lozim bo'ladi<sup>114</sup>.

Mazkur tadqiqot ishida turizm sohasidagi soliq mexanizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarning turizm sohasini rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini turli stsenariylar asosida prognozlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

---

<sup>114</sup> Cho, V. (2001). Tourism forecasting and its relationship with leading economic indicators. *Journal of Hospitality and Tourism Research*, 25, 399 – 420.



birinchi bosqichda turizm sohasining 2014 – 2023 yillar uchun asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari shakllantirildi. Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish uchun ekonometrik model shakllantirildi hamda uning asosida ularning 2024 – 2030 yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari “STATA” ekonometrik tahlil dasturi asosida hisoblandi.

ikkinchi bosqichda tadqiqotlarimizda keltirilgan turizm sohasidagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni qo‘llash bilan bog‘liq stsenariylar shakllantirildi hamda ularda turizm sohasining prognozlashtirilgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi baholandi.

Turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari sifatida xoriyiy turistlar soni, turizm xizmatlari eksporta hajmi, turizm sohasidagi bandlik, turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmda yaratilgan qo‘shilgan qiymat, YaIMdagi turizmning ulushi ko‘rsatkichlari 2014 – 2023 yillar uchun shakllantirildi (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

### **Turizm sohasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining 2014 – 2023 yillardagi dinamikasi<sup>115</sup>**

	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 * yil
<b>Xorijiy turistlar soni (ming kishi)</b>	1862,0	1917,7	2027,0	2690,1	5346,2	6748,5	1504,1	1835,0	5232,7	5483,0
<b>Turizm xizmatlari eksporti (mln.doll)</b>	395,6	407,5	430,7	531,0	1041,0	1313,0	260,9	357	592,7	1066,8
<b>Turizm sohasidagi bandlik (ming kishi)</b>	196,7	188,4	170,9	187,6	201,0	230,0	57,1	78,1	129,6	233,3
<b>Turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi (mlrd so‘m)</b>	3324,1	3971,2	4827,3	14954,7	30098,5	43297,0	9480,5	14269,8	26060,2	51596,2
<b>To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yaratilgan qo‘shilgan qiymat (mlrd.so‘m)</b>	4428,8	4413,8	5092,4	7563,4	10166,2	13571,9	2971,8	4473,0	8168,8	16173,4
<b>YaIMdagi turizm ulushi (foiz)</b>	2,5	2,1	2,1	2,5	2,5	2,7	0,5	0,7	1,1	1,8

<sup>115</sup> O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Statistika davlat qo‘mitasi, shuningdek Butunjahon turizm tashkiloti, Butunjahon turizm va sayohat kengashi, Jahon banki ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

3.3.1-jadvalda keltirilgan 2014-2023 yillardagi ko‘rsatkichlar Davlat statistika qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari hamda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, Butunjahon turizm va sayohat kengashi hamda Jahon banki kutilmalari asosida shakllantirildi.

Jumladan, BMTning Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) baholashiga ko‘ra, 2021 yilning ikkinchi yarmidan turizm sohasi sekinlik bilan tiklana boshlaydi va yil yakuni bo‘yicha 2020 yildagi turizm ko‘rsatkichlariga nisbatan 22% ga yaxshilanadi<sup>116</sup>. Shuningdek, Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari turizm sohasining butkul tiklanishi va jadal rivojlanishi 2023 yilning ikkinchi yarmi va 2024 yilning boshiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatgan<sup>117</sup>. YaIM ko‘rsatkichlari esa Jahon bankining kutilmalari asosida shakllantirildi<sup>118</sup>.

Shakllantirilgan o‘zgaruvchilar yillik statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda ushbu ko‘rsatkichlar tasviriy statistikasi keltirildi. Tahlillar “STATA” ekonometrik tahlil dasturi asosida amalga oshirildi.

### 3.3.2-jadval

#### O‘zgaruvchilarning tasviriy statistikasi<sup>119</sup>

	<i>MTBXTS</i>	<i>YaIMTU</i>	<i>TTITh</i>	<i>TSB</i>	<i>TXEh</i>	<i>TTYaQQh</i>
Kuzatuvlar	10	10	10	10	10	10
O‘rtacha	3156.42	1.81	19354.00	163.46	622.18	6066.71
Maksimal	6748.50	2.70	44202.10	230.00	1313.00	13855.6
Minimal	1504.10	0.50	3324.10	57.10	260.90	1041.90
Standart og‘ishi	1804.36	0.82	15587.13	57.36	346.98	4885.95

<sup>116</sup> UNWTO. (2021). UNWTO World Tourism Barometer. Volume 19, Issue 2. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/epdf/10.18111/wtobarometereng.2021.19.1.2>

<sup>117</sup> UNWTO. (2021). UNWTO World Tourism Barometer. Volume 19, Issue 1. Available at: <https://www.e-unwto.org/doi/epdf/10.18111/wtobarometereng.2021.19.1.1>

<sup>118</sup> World Bank. Uzbekistan Overview. Available at: [https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview#\\_economy](https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview#_economy)



<sup>119</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Asimmetriya koeffitsienti (Skewness)	0.96	-0.51	0.57	-0.88	0.93	0.57
Kurtoz koeffitsienti (Kurtosis)	2.47	1.68	1.88	2.38	2.50	1.88

3.3.2-jadvalda tobe va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida YaIMda turizmning ulushi (*YaIMTU*), mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soni (*MTBXTS*), turizm xizmatlari eksporta hajmi (*TXEh*), to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmda yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi (*TTYaQQh*), turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi (*TTITH*), turizm sohasidagi bandlik (*TSB*) kabilar keltirildi.

Yuqoridagi 3.2.2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmining standart og‘ishi boshqa o‘zgaruvchilarning standart og‘ishiga qaraganda kattaroq ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi boshqa o‘zgaruvchilarga qaraganda yuqori darajadagi tebranishga ega bo‘lganligi kelib chiqadi. Eng past darajadagi standart og‘ish turizm sohasidagi bandlik ko‘rsatkichida bo‘lib, bundan turizm sohasidagi bandlik yillar kesimida keskin o‘zgarishlarga uchramaganligi kelib chiqadi.

Tahlil uchun tanlab olingan asosiy ko‘rsatkichlar asosidagi o‘zgaruvchilarni, eng avvalo, ekonometrik model asosida tahlil davridagi o‘zgarishini vizual tekshirish lozim, buning uchun esa grafik ko‘rinishida ularning o‘zaro bog‘liq holda birgalikdagi (3.3.1-rasm) hamda alohida tendentsiyalari (3.3.2-rasm) ifodalanadi. Ushbu rasmlarda ko‘rinib turganidek, tanlab olingan o‘zgaruvchilarining harakat tendentsiyasi o‘zaro uyg‘un holatda harakatlangan hamda ijtimoiy xavflar (pandemiya) sababli barchasida pasayish kuzatilgan.



### 3.3.1 va 3.3.2-rasmlar. Tahlilda foydalaniladigan tobe va mustaqil o‘zgaruvchilar qiymatlarining 2014 – 2023 yillardagi birgalikdagi dinamikasi<sup>120</sup>

Tadqiqot ishida ko‘rilayotgan o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqligi, korrelyatsiyasi o‘rganildi hamda ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblandi (3.3.3-jadval). Unga ko‘ra, o‘zgaruvchilarning barchasi bir-biri bilan yuqori korrelyatsion aloqadorlikka egaligi, shu jumladan *TSB* va *MTBXTS* orasidagi korrelyatsiya koeffitsienta 0.93 ga, *THEh* va *TTYaQQh* – 0.95 ga, *MTBXTS* va *YaIMTU* – 0.89 ga tengligi aniqlandi. O‘zgaruvchilarning o‘zaro yuqori korrelyatsion bog‘liqlikda ekanligi yuqorida keltirilgan vizual o‘rganish natijalarining to‘g‘riligini isbotlaydi.

3.3.3-jadval

**Korrelyatsiya jadvali<sup>121</sup>**

	<b>MTBXTS</b>	<b>YaIMTU</b>	<b>TTITH</b>	<b>TSB</b>	<b>TXEh</b>	<b>TTYaQQh</b>
<b>MTBXTS</b>	1.00					
<b>YaIMTU</b>	0.89	1.00				
<b>TTITH</b>	0.96	0.76	1.00			
<b>TSB</b>	0.93	0.99	0.83	1.00		
<b>TXEh</b>	0.99	0.90	0.95	0.94	1.00	
<b>TTYaQQh</b>	0.96	0.76	1.00	0.83	0.96	1.00

<sup>120</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>121</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlarini prognozlashtirish xususidagi adabiyotni o'rganish davomida, ko'pchilik olimlar tomondan asosan avtoregressiv o'rtacha harakatlanuvchi integral modellaridan foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin<sup>122</sup>.

Turizm sohasi asosiy ko'rsatkichlarini har biri uchun yuqorida amalga oshirilgan algoritm asosida Stata modeli yordamida tahlillar amalga oshirildi hamda ularning 2024 – 2030 yillardagi prognoz ko'rsatkichlari ekonometrik tahlil dasturi vositasida hisoblandi. Prognozni hisoblashda, tashqi ta'sirlar, mamlakatning tashqi siyosati o'zgarishsiz sifatida qaraldi.

Unga ko'ra, barcha ko'rsatkichlar 2024 yildan barqaror o'sish sur'atlarida harakatlangan bo'lib, ulardagi prognoz ko'rsatkichlarining harakatlanishidagi ehtimoliy o'zgarish diapazonlari turlicha ko'rinish oldi. Xususan, xorijiy turistlar soni 2020 yilda 1 504,1 ming kishi, 2023 yilda 4 697,6 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, prognoz natijalariga ko'ra, mamlakatga xorijiy turistlar oqimi 2024 yilda 5 778,0 ming nafardan 2030 yilda 10 294,2 kishiga etadi. Bunga mos ravishda turizm xizmatlari eksporta 2024 yildagi 1 133,2 mln. dollardan 2030 yilda 2 647,6 mln.dollarga etishi prognoz qilindi (3.3.4-jadval).

Xorijiy turistlar sonining oshishi va ichki turizm takliflarining kengayishi ta'sirida sohada bandlik darajasi ham o'sishi prognoz qilingan. Jumladan, 2021 yilda pandemiya ta'sirida sohada band bo'lganlar

---

<sup>122</sup> Chan, G., Lim, C., and McAleer, M. (2005). Modelling multivariate international tourism demand and volatility. *Tourism Management*, 26, 459 – 471; Cho, V. (2001). Tourism forecasting and its relationship with leading economic indicators. *Journal of Hospitality and Tourism Research*, 25, 399 – 420; Cho, V. (2003). A comparison of three different approaches to tourist arrival forecasting. *Tourism Management*, 24, 323 – 330; Coshall, J.T. (2005). A selection strategy for modelling UK tourism flows by air to European destinations. *Tourism Economics*, 11, 141 – 158; Gil-Alana, L.A., Gracia, F.P.D., and Cunado, J. (2004). Seasonal fractional integration in the Spanish tourism quarterly time series. *Journal of Travel Research*, 42, 408 – 414; Hassani, H., Webster, A., Silva, E.S., Heravi, S. (2015). Forecasting U.S. Tourist arrivals using optimal Singular Spectrum Analysis. *Tourism Management*, 46(C), 322 – 335.

soni kamayib 78,1 mingtani tashkil qilgan bo'lsa (2019 yilda – 230 ming ish o'ri), 2024 yilda turizm sohasining to'liq tiklanishi kutilayotganligi sababli sohada band bo'lganlar soni 257,6 tani tashkil qilishi hamda 2030 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 706,0 mingtani tashkil qilishi prognoz qilindi.

### 3.3.4-jadval

#### **Turizm sohasi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2024-2030 yillar uchun prognoz qiymatlari dinamikasi<sup>123</sup>**

	2024 y.	2025 y.	2026 y.	2027 y.	2028 y.	2029 y.	2030 y.
<b>Mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (MTBXTS) (ming.kishi)</b>	5 778,0	6 760,3	7 605,4	8 403,9	9 093,0	9 693,2	10 294,2
<b>Turizm xizmatlari eksporti hajmi (TXEh) (mln.doll)</b>	1 133,2	1 354,2	1 570,9	1 822,2	2 088,3	2 359,8	2 647,6
<b>Turizm sohasidagi bandlik (TSB) (ming.kishi)</b>	257,6	314,2	374,0	442,3	519,5	605,1	706,0
<b>Turizm tarmoqlaridagi ichki taklif hajmi (TIITh) (mlrd.so'm)</b>	54 810,6	65 498,7	75 978,5	88 135,0	101 002,7	114 133,1	128 057,3
<b>To'g'ridan-to'g'ri turizmda yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi (TTYaQQh) (mlrd.so'm)</b>	17 180,9	20 531,2	23 816,2	27 626,8	31 660,3	35 776,3	40 140,9
<b>YaIMdagi turizm ulushi (YaIMTU) (foiz)</b>	1,9	2,2	2,6	3,0	3,4	3,9	4,3

Shuningdek, 2014 – 2021 yillar davomida turizm ko'rsatkichlarining o'sishi o'rtacha 25%ni tashkil qilgan bo'lsa, tahlil natijalari 2024 – 2030 yillarda o'rtacha o'sish ko'rsatkichini 16% darajasida bo'lishini ko'rsatdi.

2024 – 2030 yillarda davomida xorijiy turistlar soni va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining barqaror o'sishi ichki turizm xizmatlari va turizm sohasining qo'shilgan qiymati hajmini oshishiga olib keladi. Bu esa, YaIMdagi turizmning ulushini 2024 yilda 1,9%dan 2030 yilda 4,3%gacha oshishiga zamin yaratishini tahlillar ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqot ishida turizm sohasidagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarning turizm sohasini rivojlanishiga

<sup>123</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo‘lgan ta’sirini turli stsenariylar asosida prognozlashtirish ikkinchi bosqichida tadqiqotning 3.1-qismida keltirilgan takliflarni qo‘llash bilan bog‘liq 2 ta stsenariylar shakllantirildi hamda ularda turizm sohasining prognozlashtirilgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi baholandi.

Turizm sohasidagi soliq yukining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda stsenariilar tahlili amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar o‘rganildi. Ular asosida, mazkur tadqiqot ishida stsenariylarni shakllantirishda Dwyer, Forsyth, Spurr va No tomonidan 2003 va 2006 yillardagi tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan va Forsyth, Dwyer, Spurr va Pham<sup>124125</sup> 2014 yildagi tadqiqot ishlarida rivojlantirilgan narx-talab egiluvchanligi usulidan foydalanildi. Unga ko‘ra, tahlil qilinadigan ko‘rsatkichlar shakllantiriladi hamda narx-talab egiluvchanligi darajasining kengligi baholanadi, shuningdek, joriy qilinayotgan soliq va yig‘imlar tufayli yuzaga keladigan soliq yukining shakllantirilgan ko‘rsatkichlarga bo‘lgan ta’siri hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib, turizm sohasi rivojlanishining stsenariylarini ishlab chiqishda 3.3.4-jadvalda keltirilgan turizm sohasi asosiy

---

<sup>124</sup> Crouch, G.I. (1995). A meta-analysis of tourism demand. *Annals of Tourism Research*, 22(1), 103 – 118; Morley, C.L. (1998). A dynamic international demand model. *Annals of Tourism Research*, 25, 70 – 84; Carmody. (2002). The economic value of tourism for Australia: A post-September 2001 stock-take & update. Access economics report for Australian Tourist Commission 25; Dwyer, L., Forsyth, P., Spurr, R., & Van Ho, T. (2003). Contribution of tourism by origin market to a state economy: a multi-regional general equilibrium analysis. *Tourism Economics*, 9(4), 431 – 448; Dwyer, L., Forsyth, P., Spurr, R., & Van Ho, T. (2006). Economic effects of the world tourism crisis on Australia. *Tourism Economics*, 12(2), 171 – 186; Kulendran, N., & Divisekera, S. (2007). Measuring the economic impact of Australian tourism marketing expenditure. *Tourism Economics*, 13(2), 261 – 274; Kulendran, N., & Dwyer, L. (2009). Measuring the return from Australian tourism marketing expenditure in Asia. *Journal of Travel Research*, 47, 275 – 284; Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). *Tourism economics and policy*. Clevedon, UK: Channel View Publications; Seetaram, N. (2012). Immigration and tourism demand: empirical evidence from Australia. *Tourism Management*, 33(6), 1535 – 1543; Forsyth, P., Dwyer, L., Spurr, R., & Pham, T. (2014), The impacts of Australia’s departure tax: Tourism versus the economy? *Tourism Management*, 40, 126 – 136.

<sup>125</sup> Forsyth, P., Dwyer, L., Spurr, R., & Pham, T. (2014). The impacts of Australia’s departure tax: Tourism versus the economy? *Tourism Management*, 40, 126 – 136.

iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2024 – 2030 yillar uchun prognoz qiymatlari foydalanildi.

Xorijiy adabiyotlardagi empirik tadqiqotlarda amalga oshirilgan meta-tahlillar asosida hisoblangan turizmdagi turli narx-talab egiluvchanligi koeffitsientlari asosida mazkur tadqiqot ishida qo'llaniladigan egiluvchanligi koeffitsienta shakllantirildi.

Turizmdagi narx-talab egiluvchanligi koeffitsientlari mamlakatlarda va hududlararo farqlanishi sababli tadqiqotchilar tomonidan doimiy baholab boriladi hamda meta-tahlillar asosida o'rtacha qiymati tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Xususan, turizmdagi narx-talab egiluvchanligini baholash bo'yicha 80 ta tadqiqot ishlari natijalari asosida meta-tahlilni birinchilardan bo'lib Crouch amalga oshirgan. Unga ko'ra, turizm mahsulot va xizmatlarining narxi va ularga bo'lgan talab manfiy korrelyatsiyaga ega bo'lib, turizmdagi narx-talab egiluvchanligi koeffitsientlarining kengligi  $-0,37$  dan  $-0,84$  gachani, o'rtacha ko'rsatkich esa  $-0,63$  ni tashkil etgan, ya'ni turizm xizmatlari (aviaqatnov xizmatlaridan tashqari) narxining 10%ga o'zgarishi tashrif buyuruvchilar sonining 6,3%ga o'zgarishiga olib keladi<sup>126</sup>.

Shuningdek, Carmody<sup>127</sup> kirish turizmi talabining narxga nisbatan elastikligini  $-0,83$  ga va Seetaram<sup>128</sup>  $-0,62$  ga tengligini ko'rsatgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar kengligini Kulendran va Divisekera<sup>129</sup> -

---

<sup>126</sup> Crouch, G.I. (1995). A meta-analysis of tourism demand. *Annals of Tourism Research*, 22(1), 103 – 118.

<sup>127</sup> Carmody. (2002). The economic value of tourism for Australia: A post-September 2001 stock-take & update. Access economics report for Australian Tourist Commission 25.

<sup>128</sup> Seetaram, N. (2012). Immigration and tourism demand: empirical evidence from Australia. *Tourism Management*, 33(6), 1535 – 1543.

<sup>129</sup> Kulendran, N., & Divisekera, S. (2007). Measuring the economic impact of Australian tourism marketing expenditure. *Tourism Economics*, 13(2), 261 – 274.



0,15 dan -0,96 gacha hamda Kulendran va Dwyer<sup>130 131</sup> -0,30 dan -0,94 gacha ekanligini empirik tadqiqotlarida baholashgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida qoʻllaniladigan tahlilda turizmdagi narx-talab egiluvchanligi koeffitsienta kengligini -0,5 dan -1,0 gacha sifatida olindi.

Shu bilan birga, tadqiqotning 3.2-qismida keltirilgan takliflarning turizm sohasi subyektlarining soliq yukiga boʻlgan taʼsiri Devereux and Griffith ishida taklif etilgan, Klemm<sup>132</sup> tomonidan rivojlantirilgan hamda ushbu tadqiqotning 3.1-qismida qoʻllanilgan samarali soliq stavkalari tahlili (Oʻrtacha samarali soliq stavkasi – OʻSSS) asosida baholandi. OʻSSS soliq yuki uchun proksi sifatida olindi.

Yuqoridagilar asosida quyidagi 2 ta stsenariylar shakllantirildi hamda ulardagi soliq yuklarining oʻzgarishidan yuzaga kelgan oʻzgarish va narx-talab egiluvchanligi koeffitsienti asosida prognoz qilingan turizmning asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlil qilindi:

Optimistik stsenariy-taklif etilgan choralarning barchasi joriy qilinadi;

